

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI

*II–qism
(uslubiy qo‘llanma)*

5380100 - “Yurisprudentsiya”
ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun

*Alisher Navoiy nomidagi
Samarqand davlat universiteti
o‘quv-uslubiy Kengashi majlisining
2008-yil 6-oktyabrdagi 1-son
qaroriga ko‘ra nashrga tavsiya etilgan.*

Samarqand – 2009

O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Uslubiy qo'llanma. – 2-qism. SamDU nashri, 2009. – _____ bet.

Mazkur uslubiy qo'llanma umumkasbiy fanlar blokiga kiradigan mutaxassislik fani hisoblanadi. Ushbu fan bo'yicha TDYUI, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar akademiyasi tomonidan chop etilgan o'quv qo'llanma va darsliklar mavjud. Shuningdek, fakultetda ushbu fan bo'yicha talabalarga ma`ruza matni, o'quv dasturlari, tarqatma materiallar hamda elektron darsliklar mavjud. Lekin bugungi kunda mazkur turdagi qo'llanmalarni yangi qonun hujjatlar asosida takomillashtirib chop etish talab qilinmoqda.

Uslubiy qo'llanma mazkur fan bo'yicha mavjud o'quv dasturi asosida tayyorlandi.

Ushbu ishda muallif yurisprudensiya yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarga O'zbekiston Respublikasi fuqarolik protsessual huquqi fanining maxsus qismi bo'yicha ilmiy-nazaruy va amaliy manbalarni puxta o'zlashtirishlari, ularda ushbu fan bo'yicha har taraflama mustahkam va chuqur bilim olishlari uchun qo'shimcha manba sifatida tavsiya etiladi.

Tuzuvchi	Katta o'qit. Z.QUVONDIQOV
Mas'ul muharrir	yuridik fanlari nomzodi, dots.J.Ibodullayev
Taqrizchilar:	katta o'qit. I.Begaliyev Samarqand viloyat fuqarolik ishlari bo'yicha viloyat sudining sudyasi A.Nazarov

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti, 2009

SO'Z BOSHI

Ushbu uslubiy qo'llanma mamlakatimizning o'z mustaqilligiga ega bo'lishi bilan barcha sohalarda keng islohotlarni amalga oshirilishi sababli, sud huquq sohasida ham olib borilayotgan islohotlarning keng avj olib borishida fuqarolik sudlarida ishlarni ko'rish qonuniy, asosli va adolatli bo'lishini talab qiladi va ularga nisbatan yuqori talabni yuklaydi. Bugungi kunda ushbu sohani keng va har taraflama rivojlantirish maqsadida mamlakatimizda ko'plab qonun hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, Konstitutsiyamiz, Sudlar to'g'risidagi qonun, Prokuratura to'g'risidagi qonun, advokatura to'g'risidagi, notariat, fuqarolarning murojaatlari to'g'risidagi fuqarolik to'g'risidagi, bundan tashqari mehnat kodeksi, uy-joy kodeksi, oila kodeksi fuqarolik kodeksi va bir qancha shunga o'xshash normativ me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Ushbu normativ- me'yoriy hujjatlar fuqarolik protsessual huquq fanining asosini va asosiy manbasini tashkil etadi. Shu o'rinda ushbu fanni talabalarga sodda qilib tushunarli tartibda o'zlashtirishlari uchun har bir mavzuning qisqacha manbasi, uning yo'nalishi, qoida va tartiblari, maqsadi va vazifalari haqida bo'lajak huquqshunos mutaxassislikni oluvchilarga batafsil tushunarli qilib yetkazish nazarda tutiladi.

Mazkur uslubiy qo'llanmaning ikkinchi qismida hozirgi davrda ushbu sohada mavjud bo'lgan qonun hujjatlar va bu borada qabul qilinayotgan yangi qonun hujjatlar, ularga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarga e'tibor qaratib, unda birinchi instantsiya sudida ish yuritish, sirdan hal qiluv qarorini chiqarish, buyruq tartibida ish yuritish, nikohdan ajratish to'g'risidagi ishlarning sud tartibida hal qilinishi, aliment undirish, otalikni sud tartibida belgilashning protsessual xususiyatlari, mehnatga oid nizolarni ko'rish tartibi, uy-joyga oid huquqiy munosabatlar Bilan bog'liq ishlar, davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek, manssaabdor shaxslarning xatti-xarakatlari bilan bog'liq ishlarning suda ko'rish tartibi, alohida tartibda ko'riladigan ishlar, hal qiluv qarorlarning ustidan appelyatsiya shikoyati berish tartibi, hal qiluv qarorlari ustidan kassattsiya instantsiyasiga shikoyat berish, sudning qonuniy kuchga kirgan qarorlarining qonuniy, asosli va adolatli ekanligini tekshirish ishlari va tartibi, qonuniy kuchga kirgan ishlarning yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish tartibi, sud qarorlarining ijrosi, fuqarolik sudida chet el fuqarolarining protsessual huquqlari, hakamlik sudlari tushunchasi va hakamlik sudlarida ish yuritish tartibi hamda xo'jalik sudlari va notariat vazifalari to'g'risidagi mavzular yoritilgan va ularni o'rganishning nazariy va amaliy pedagogik usullari yoritilgan. Shu bilan birga ushbu uslubiy qo'llanmada sud, prokuratura, advokatura, notariat idoralarining amaliyotini o'rganish bilan bevosita avvalgi manbalar va o'quv dasturlaridan, bu borada huquqshunos olimlar, amaliyotchilar tomonidan yaratilgan darsliklar, ilmiy adabiyotlar va o'quv qo'llanmalarni o'rganish bilan birga hozirgi kecha kunduzda jamiyatimiz hayotida bo'layotgan ijtimoiy- iqtisodiy va siyosiy o'zgartirishlarga moslagan holda olib borishni talab qiladi. Ushbu fanni talabalarga tushunarli yetkazishning ilg'or usullaridan foydalanish asosida hamda ularning bilim va saviyalarini dunyo talabi darajasiga javob bera oladigan darajada muvofiqlashtirib borish maqsadida ushbu uslubiy qo'llanma ishlab chiqildi.

№	Maruza mavzulari	Soat	Adabiyotlar
1	2	3	4
	<i>6-semestr</i>		
1	Mavzu: Birinchi instantsiya sudining yhal qiluv qarorlari.	2	
2	Mavzu: Buyruq tartibida ish yuritish	2	
3	Mavzu: Nikohdan ajralish to'g'risidagi ishlarini sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari.	2	
3	Mavzu: Aliment undirish to'g'risidagi ishlarni sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari.	2	
4	Mavzu: O'talikni belgilash to'g'risidagi ishlarni sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari.	2	
5	Mavzu: Mehnataga oid ishlarni sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari.	2	
6	Mavzu: Uy-joyga oid ishlarni sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari.	2	
7	Mavzu: Davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat va arizalar bo'yicha ish yuritish.	4	
8	Mavzu: Alohida tartibda ish yuritish.	4	
9	Mavzu: Birinchi instantsiya sudining hal qiluv qarorlari va ajrimlari ustidan appelyatsiya shikoyati berish (protest keltirish).	2	
10	Mavzu: Birinchi instantsiya sudining hal qiluv qarorlari va ajrimlari ustidan kassatsiya shikoyati berish (protest keltirish).	2	
11	Mavzu: Qonuniy kuchga kirgan sudning hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlarning qonuniy, asosli va adolaili ekanligini tekshirish.	2	
12	Mavzu: Qonuniy kuchga kirgan sudning hal qiluv qarorlari, ajrim va qarorlarning yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish.	2	
13	Mavzu: Sud qarorlarining ijrosi.	2	
14	Mavzu: Fuqarolik protsessida chet el fuqarolari va tashkilotlari, fuqarolik bo'lmagan shaxslarning ishtiroki.	2	
15	Mavzu: Hakamlar sudi (fuqarolik ishlarini hakamlar sudida ko'rib hal qilish).	2	
16	Mavzu: O'zbekistonda xo'jalik sudi (xo'jalik nizolarini ko'rish tartibi).	2	
17	Mavzu: O'zbekistonda notariat (notarial harakatlar).	2	
	Jami:	40	

№	Seminar mavzulari	Soat	Adabiyotlar
1	2	3	4
	<i>6-semestr</i>		
1	Mavzu: Birinchi instantsiya sudining yhal qiluv qarorlari.	2	
2	Mavzu: Buyruq tartibida ish yuritish	2	
3	Mavzu: Nikohdan ajralish to'g'risidagi ishlarini sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari.	2	
3	Mavzu: Aliment undirish to'g'risidagi ishlarni sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari.	2	
4	Mavzu: O'talikni belgilash to'g'risidagi ishlarni sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari.	2	
5	Mavzu: Mehnataga oid ishlarni sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari.	2	
6	Mavzu: Uy-joyga oid ishlarni sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari.	2	
7	Mavzu: Davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat va arizalar bo'yicha ish yuritish.	4	
8	Mavzu: Alohida tartibda ish yuritish.	4	
9	Mavzu: Birinchi instantsiya sudining hal qiluv qarorlari va ajrimlari ustidan appelyasiya shikoyati berish (protest keltirish).	2	
10	Mavzu: Birinchi instantsiya sudining hal qiluv qarorlari va ajrimlari ustidan kassatsiya shikoyati berish (protest keltirish).	2	
11	Mavzu: Qonuniy kuchga kirgan sudning hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlarning qonuniy, asosli va adolaili ekanligini tekshirish.	2	
12	Mavzu: Qonuniy kuchga kirgan sudning hal qiluv qarorlari, ajrim va qarorlarning yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish.	2	
13	Mavzu: Sud qarorlarining ijrosi.	2	
14	Mavzu : Fuqarolik protsessida chet el fuqarolari va tashkilotlari, fuqarolik bo'lmagan shaxslarning ishtiroki.	2	
15	Mavzu: Hakamlar sudi (fuqarolik ishlarini hakamlar sudida ko'rib hal qilish)	2	
16	Mavzu: O'zbekistonda xo'jalik sudi (xo'jalik nizolarini ko'rish tartibi).	2	
17	Mavzu: O'zbekistonda notariat (notarial harakatlar).	2	
	Jami:	40	

15-Mavzu. BIRINCHI INSTANTSIYA SUDINING HAL QILUV QARORLARI

Tayanch iboralar: sud qarorlarining tushunchasi va turlari, sud hal qiluv qarorlarining sud ajrimlaridan farqi, hal qiluv qarorining mohiyati va ahamiyati, sudning hal qiluv qaroriga nisbatan qo'yiladigan talablar, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Sudning hal qiluv qarori haqida»gi 1998 yil 17 apreldagi 13-sonli qarori va uning ahamiyati, hal qiluv qarorining mazmuni (uning tarkibiy qismlari), hal qiluv qarorini chiqarishda hal etiladigan masalalar, darhol ijro qilinadigan sud hal qiluv qarorlari, hal qiluv qarorining ijrosini ta'minlash, hal qiluv qarorining darhol ijro etilish tartibi, hal qiluv qarorini chiqargan sud tomonidan undagi kamchiliklarni tuzatish, qo'shimcha hal qiluv qarori, hal qiluv qarorini tushuntirish, sud hal qiluv qarorining qonuniy kuchi va uning huquqiy oqibatlarini, birinchi instantsiya sudining ajrimlari, ajrimning turlari (mazmuni, shakli, chiqarish tartibi), sud ajrimlarining qonuniy kuchi, xususi ajrimlar, ularning mazmuni va ahamiyati.

Dars o'tish vositalari: mavzu nazariy ahamiyat kasb etishi bilan uni asosan ma'ruza tarzida O'zbekiston Respublikasining protsessual qonunchiligi haqida, Prezident asarlarida sud -huquq sohasini isloh qilishga qaratilgan vazifalarni hamda Oliy sudning Plenum qarorlarining - normalarini sharhlash orqali yoritiladi hamda zaruratga qarab savol-javoblar uyushtiriladi.

Dars o'tish usullari: darsning mohiyatini ijtimoiy-gumanitar fanlar yutuqlaridan foydalangan holda yorqin tahlil qilish va seminarda har bir talabaning fikrini eshitish bilan yakunlanadi.

Sudda fuqarolik ishlarini yuritishning eng muhim jarayonlaridan biri bu fuqarolik ishini mazmunan qonuniy, asosli va adolatli ko'rib chiqishi hisoblanadi. Muayan ko'rilgan ish bo'yicha birinchi instantsiya sudlari o'zining qarorlarini chiqaradi. Ushbu qarorlar o'z navbatida bir necha turlarga bo'linishi mumkin. Bularga ajrim, buyruq, qaror va hal qiluv qarori hisoblanadi.

Ushbu qayd qilingan qarorlarning har biri o'zining mazmuniga ko'ra o'zgacha tartibda bo'lishi mumkin. Masalan, fuqarolik sudi tomonidan chiqarilgan ajrim biror bir ishni boshqa sudga o'tkazish haqida yoki guvohlarning sud majlisiga kelmaganligi sababli ishni ko'rishni boshqa kunga qoldirish holatlarida sud o'zining qarorini ajrim shaklida chiqaradi.

Birinchi instantsiya sudining hal qiluv qarorlari FPKning 18-bobida 203 - 223-moddalarga asosan qabul qilinadi va hal qiluv qarorlarini qabul qiladi. FPKning 203-moddasiga muvofiq, fuqarolik sud ishlarini yurtish tartibida birinchi instantsiya sudining ishni mazmunan hal qiladigan qarori hal qiluv qarori shaklida chiqariladi. Ushbu sudning qarori O'zbekiston Respublikasi nomidan sud ishni ko'rib tugatgandan so'ng darhol chiqariladi.

Fuqarolik sudida qonunchilik alohida hollarda ish juda murakkab bo'lganda ish yuzasidan asoslantirilgan hal qiluv qarorini ko'pi bilan uch kun ichida chiqaradi va ushbu qarorning xulosa qismi sud ishni tamomlagan majlisning o'zidayoq e'lon qilinadi. Ayni shu vaqtda ishda ishtirok etuvchilar chiqarilgan hal qiluv qarori bilan tanishib chiqishlari agarda ushbu qarorning

xulosa qismi tushunarsiz bo'lsa suddan uni tushuntirishni ham taraflar iltimos qilishi mumkin.

Bundan tashqari sud muayan ko'rilgan ish byicha hal qiluv qarorlarini chiqarishda protsessual kodeksda belgilangan talabalrga rioya qilishi kerak. Ushbu talablarga FPKning204-moddasiga muvofiq sud maslahatlashuvining sir tutilishini ta'minlashlari, 205-moddasiga muvofiq hal qiluv qarori chiqarish vaqtida yechiladigan masalalarga ya'ni dalillarga to'g'ri baho berish, ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarni aniqlashtirilishini, qaysilari aniqlanmaganligini, ushbu ishga nisbatan qandan moddiy huquq normalarini qo'llash lozimligini hamda arz qilingan talabni qanoatlantirish yoki qanoatlantirmaslikni aniqlashi kerak.

Shuningdek, sud sud xarajatlarini taqsimlaydi, hal qiluv qarorini ijro etish tartibi va muddatini belgilaydi va boshqa masalalarni hal qiladi. Agarda ko'rilgan ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan yangi holatlarni aniqlash yoki yangi dalillarni tekshirish zarurati tug'ilsa, sud hal qiluv qarorini chiqarmasdan, ishni suda ko'rishni tiklaydi va bu haqda ajrim chiqaradi.

Hal qiluv qarorining mazmuni to'rt qismdan, kirish, bayon, asoslantiruvchi va xulosa qismlaridan iborat bo'ladi. Hal qiluv qarorining kirish qismida hal qiluv qarori chiqarilgan vaqt va joy, hal qiluv qarori chiqargan sudning nomi, sudyaning ismi sharifi, sud tarkibi, sud majlisining kotibi, taraflar, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar ko'rsatiladi.

Hal qiluv qarorining bayon qismida da'vogarning talabi, javobgarning e'tirozlari va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning tushuntirishlari ko'rsatilishi kerak.

Hal qiluv qarorining asoslantiruvchi qismida ishning sud tomonidan aniqlangan holatlari, ishning holatlari to'g'risidagi sud xulosalari va unga asos bo'lgan dalillar, sud yoki bu dalillarni rad qilishda asoslangan xulosalar, sud amal qilgan moddiy va protsessual normalar ko'rsatilishi kerak.

Hal qiluv qarorining xulosa qismida sudning arz qilingan talablarni qanoatlantirish yoxud butunlay yoki qisman rad etish to'g'risidagi xulosasi, sud xarajatlarining taqsimlanishi, hal qiluv qarorlarining ustidan shikoyat berish muddati va tartibi ko'rsatilishi lozim. Ushbu asoslar FPKning206-moddasida belgilangan.

Bundan tashqari sud chiqargan hal qiluv qarorini o'zgartirmasligi, undagi xatolarni to'g'rilash tartibi, qo'shimcha hal qiluv qarorini chiqarishi, hal qiluv qarorining ijrosini kechiktirish tartiblarini, hal qiluv qarorining qonuniy kuchga kirishini, darhol ijro etilishi lozim bo'lgan hal qiluv qarorlari bularga alimentlar undirish to'g'risidagi, xodimga uch oylik ish haqidan ortiq bo'lmagan ish haqini undirib berish to'g'risidagi, mayib bo'lganlik uchun yoki sog'liqqa boshqacha tarzda shikast etishi, shuningdek boquvchisini yo'qotganlik natijasida ko'rilgan zararlarni qoplash uchun to'lovlar undirish to'g'risidagi, mehnat shartnomasi g'ayriqonuniy ravishda bekor qilingan xodimni yoki qayriqonuniy ravishda boshqa ishga o'tkazilgan xodimni avvalgi ishiga tiklash to'g'risidagi, shuningdek mehnat shartnomasini bekor qilish asoslarinig ta'rifini o'zgartirish to'g'risidagi hamda suda ishni ko'rish vaqtida javobgar

da`voni butunlay yoki qisman tan olganligiga qarab, to'liq yoki qisman qanoatlantirilgan talablar bo'yicha chiqarilgan hal qiluv qarorlarining tartibi belgilanadi.

O'zlashtirish savollari

1. Sud qarorlarining tushunchasi va turlari. Sud hal qiluv qarorlarining sud ajrimlaridan farqi.

2. Hal qiluv qarorining mohiyati va ahamiyati. – Sudning hal qiluv qaroriga nisbatan qo'yiladigan talablar.

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Sudning hal qiluv qarori haqida»gi 1998 yil 17 apreldagi 13-sonli qarori va uning ahamiyati.

4. Hal qiluv qarorining mazmuni (uning tarkibiy qismlari). Hal qiluv qarorini chiqarishda hal etiladigan masalalar.

5. Darhol ijro qilinadigan sud hal qiluv qarorlari.

6. Hal qiluv qarorining ijrosini ta'minlash. Hal qiluv qarorining darhol ijro etilish tartibi. Hal qiluv qarorini chiqargan sud tomonidan undagi kamchiliklarni tuzatish.

7. Qo'shimcha hal qiluv qarori. Hal qiluv qarorini tushuntirish.

8. Sud hal qiluv qarorining qonuniy kuchi va uning huquqiy oqibatlari.

9. Birinchi instantsiya sudining ajrimlari.

10. Ajrimning turlari (mazmuni, shakli, chiqarish tartibi). Sud ajrimlarining qonuniy kuchi.

11. Xususiy ajrimlar, ularning mazmuni va ahamiyati.

Mustaqil ta'lim mavzusi: Sirdan hal qiluv qarori chiqarish tartibi.

Tayanch iboralar: sirdan ish ko'rishning mohiyati, sirdan ish yuritish uchun asoslar, sirdan hal qiluv qarorini chiqarish tartibi, sirdan ko'rilgan ishlar yuzasidan qabul qilinadigan aktlar va ularning mazmuni, sirdan chiqarilgan hal qiluv qarorini qayta ko'rish to'g'risidagi arizaning mazmuni, sirdan chikarilgan hal qiluv qarorlari ustidan shikoyat berish, protest keltirish uchun asoslar, sirdan chiqarilgan hal qiluv qarorlarini bekor qilish va ishni ko'rishni tiklash uchun asoslar, sirdan chiqarilgan hal qiluv qarorining qonuniy kuchi va ijrosi.

Sirdan hal qiluv qarori chiqarish tartibi sudlarda FPKning 224-236-moddasiga muvofiq yuritiladi.

O'zlashtirish savollari

1. Sirdan ish ko'rishning mohiyati. Sirdan ish yuritish uchun asoslar.

2. Sirdan hal qiluv qarorini chiqarish tartibi.

3. Sirdan ko'rilgan ishlar yuzasidan qabul qilinadigan aktlar va ularning mazmuni. Sirdan chiqarilgan hal qiluv qarorini qayta ko'rish to'g'risidagi arizaning mazmuni.

4. Sirdan chikarilgan hal qiluv qarorlari ustidan shikoyat berish, protest keltirish uchun asoslar.

5. Sirdan chiqarilgan hal qiluv qarorlarini bekor qilish va ishni ko'rishni tiklash uchun asoslar.

6. Sirdan chiqarilgan hal qiluv qarorining qonuniy kuchi va ijrosi.

16-Mavzu. BUYRUQ TARTIBIDA ISH YURITISH

Tayanch iboralar: O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng jamiyatda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlar va yangilanishlar hamda sud-huquq tizimida olib borilayotgan islohotlar, konunchilikdagi liberallashtirish masalalari, buyruq tartibida ish yuritish institutining rivojlanish tarixi, buyruq tartibida ish yuritish tushunchasi va ahamiyati, sud buyrug'ini chiqarish uchun sudga murojaat qilish tartibi, sud buyrug'ini chiqarish bo'yicha talablar, sud buyrug'ini berish uchun asoslar va uning mazmuni, sud buyrug'ini chiqarish to'g'risidagi arizaning shakli va huquqiy tabiati, sud buyrug'i ustidan shikoyat qilish va uning ijrosi.

Dars o'tish vositalari: mavzu nazariy ahamiyat kasb etishi bilan uni asosan ma'ruza tarzida O'zbekiston Respublikasining protsessual qonunchiligi haqida, Prezident asarlarida sud -huquq sohasini isloh qilishga qaratilgan vazifalarni hamda Oliy sudning Plenum qarorlarining - normalarini sharhlash orqali yoritiladi hamda zaruratga qarab savol-javoblar uyushtiriladi.

Dars o'tish usullari: darsning mohiyatini ijtimoiy-gumanitar fanlar yutuqlaridan foydalangan holda yorqin tahlil qilish va seminarda har bir talabning fikrini eshitish bilan yakunlanadi.

O'tgan mavzularda biz birinchi instantsiya sudi tomonidan chiqariladigan sud qarorlarini o'rgangan edik. Navbatdagi sudning qarori buyruq shaklida chiqarilishi mumkin. Sud o'zining ish yurituvida muayan ishning mazmuniga qarab uni buyruq tartibida ham rasimiylashtirishi mumkin.

Fuqarolik sudlarida ishlarni buyruq tartibida hal qilinishining huquqiy asoslari FPKning 2,16,18,34 va 238 –moddasiga 11 ta qo'shimcha prim moddalar kiritilib belgilangan tartibda ish yuritishlari ko'rsatilgan.

Sud buyrug'ining tushunchasi haqida gapirganda biz ushbu hujjatni taraflarning biridan pul mablag'ini undirish yoki ko'char mol-mulkni nizosiz tartibda qarzdordan talab qilib olish to'g'risidagi arizasi bo'yicha sudya sudda ish qo'zg'atmasdan chiqarilgan hujjat hisoblanadi. Ushbu hujjat manfaatdor shaxsga nisbatan nizosiz huquqlarini tezlik bilan himoya qilishga qaratilganligi bilan boshqa protsess hujjatlaridan farq qiladi.

Amaldagi FPKning 239 –prim 2 moddasida kiritilgan qoidada sud buyrug'ini chiqarishga asos bo'lgan talablar keltirilgan. Ushbu qoida va talablar qo'yidagidan iboratdir:

-talabning notarial asoslantirilgan bo'lishi:

-talab yozma bitimga asoslanganligini va uning javobgar tomonidan tan olingan bo'lishligi:

-voyaga etmagan bolpalar uchun aliment undirish haqidagi, otalikni belgilash bilan yoki uchinchi shaxslarni jalb etish zaruriyati bilan bog'liq bo'lmagan talab arz qilingan bo'lishi sud buyrug'ini chiqarish uchun nasos bo'la oladi.

Sudda ishni ko'rish va muayan qarorni buyruq shaklida tushgan ariza asosida hal qilishda sudya mazkur talab etilayotgan bitimning qonuniyligiga

va uni javobgarining tan olganligiga e'tibor berishi lozim bo'ladi. Buning ahamiyati shundaki amaliyotda taraflar o'rtasida tuzilgan bitimlar bir qarashda qonun talablariga asosan yozma tuziladi, notarial tartibda tasdiqlangan bo'ladi, biroq keyinchalik aniqlanishicha, bunday bitimlar yangilish oqibatida yoki aldash, zo'rlik, qo'rqitish, bir taraf ikkinchi taraf bilan g'araz niyatda tuzilishi yoki shaxsning hayotida og'ir holatlarni yuz berishi oqibatidan foydalanib tuzilganligi aniqlanadi, shuningdek, ko'zbo'yamachilik uchun tuzilgan va hokazo bitimlar haqiqiy sanalmasligi kerak FPKning 116-125-moddalarida asoslantirilgan.

Bolalarni maaddiy tomondan ta'minlash maqsadida undiriladigan aliment Oila kodeksida, shuningdek, FPK da va boshqa qonun hamda huquqiy hujjatlarda o'ziga xos xususiyatlari bilan ayrim turkumdagi fuqarolik ishlaridan farq qiladi. Amaldagi fuqarolik protsesual kodeksda aliment undirish bilan bog'liq ishlar bo'yicha berilgan da'vo arizalari, suda ko'rish muddatlari bilan uning sudlovliligi, ishni mazmunan ko'rilishi, hal qiluv qarorini chiqarish va uning qonuniy kuchga Kirishi, ijro etilishi bilan, boshg'a protsessual xususiyatlari bilan ayrim turkumdagi fuqarolik ishlaridan farq qilishi ko'rsatilgan.

FPKning 238 prim 7-moddasiga ko'ra buyruq tartibida bolalar tarbiyasi bilan aliment undirish va boshqa talablar sudya ariza kelib tushgan kundan e'tiboran uch kun ichida buyruq chiqarishi lozimligi belgilangan. Sukd buyrug'ini chiqarish uchun uch kun muddat berilishining mohiyati shundan iboratki, arz qilingan talablarda nizo bo'lmasligi ariza tegishli dalillar bilan asoslantirilganligini arizani belgilangan muddatda hal qilish uchun barcha asoslar mavjudligidan dalolat beradi.

Sud buyrug'ini bekor qilish asoslari FPKning 238- prim 10 –moddasiga binoan amalga oshiriladi.

Sud buyrug'ini bekor qilish to'g'risidagi ajrim ustidan appelyatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida shikoyat berishga qonun yo'l qo'ymaydi va bunday tartibning kiritilishi ishlarning nizosiz bo'lganligi bilan asoslantiriladi.

O'zlashtirish savollari

1.O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng jamiyatda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlar va yangilanishlar hamda sud-huquq tizimida olib borilayotgan islohotlar, konunchilikdagi liberallashtirish masalalari.

2.Buyruq tartibida ish yuritish institutining rivojlanish tarixi. Buyruq tartibida ish yuritish tushunchasi va ahamiyati.

3.Sud buyrug'ini chiqarish uchun sudga murojaat qilish tartibi. Sud buyrug'ini chiqarish bo'yicha talablar.

4.Sud buyrug'ini berish uchun asoslar va uning mazmuni. Sud buyrug'ini chiqarish to'g'risidagi arizaning shakli va huquqiy tabiati.

5.Sud buyrug'i ustidan shikoyat qilish va uning ijrosi.

17-Mavzu. NIKOHDAN AJRATISH TO'G'RISIDAGI ISHLARNI SUDDA KO'RISHNING PROTSESSUAL XUSUSIYATLARI

Tayanch iboralar: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida oila masalalari, Oila kodeksi va uning ijobiy jihatlari, musulmon huquqida nikoh va oila, oilani mustahkamlashda sudning tutgan o'ri, nikohdan ajratish to'g'risidagi ishlarning taalluqligi va sudlovligi, ishni qo'zg'atish va ishni sudda ko'rishga tayyorlashning protsessual xususiyatlari, nikohdan ajratish to'g'risidagi ishlarni sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari, sud harajatlari va ularning taqsimlanishi, nikoqdan ajratish to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud hal qiluv qarorining mazmuni va uning huquqiy oqibatlarini, sudda nikohni haqiqiy emas deb topish uchun asoslar, nikohni haqiqiy emas deb topish oqibatlarini.

Dars o'tish vositalari: mavzu nazariy ahamiyat kasb etishi bilan uni asosan ma'ruza tarzida O'zbekiston Respublikasining protsessual qonunchiligi haqida, Prezident asarlarida sud -huquq sohasini isloh qilishga qaratilgan vazifalarni hamda Oliy sudning Plenum qarorlarining - normalarini sharhlash orqali yoritiladi hamda zaruratga qarab savol-javoblar uyushtiriladi.

Dars o'tish usullari: darsning mohiyatini ijtimoiy-gumanitar fanlar yutuqlaridan foydalangan holda yorqin tahlil qilish va seminarda har bir talabaning fikrini eshitish bilan yakunlanadi.

Nikoh masalalari barcha jamiyatlarda eng muqaddas munosabatlardan biri hisoblanadi, shunday ekan nikoh munosabatlariga kirishgan yoki unga kirishayotgan erkak va ayol avvalom bor uning muqaddasligini saqlab qolishi kerak. Nikoh masalalari erkak yoki ayol o'rtasida o'zaro xohish istak va erkinligi bilan amalga oshiriladigan munosabatlar hisoblanadi. Bularning asosi esa O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksida o'z ifodasini topgan.

Shunday ekan lekin hayotda nikoh, oila masalalarida ham bir qancha muammo va nizoli masalalar ham uchrab turadi. Bu nizoli masalalarga qator asoslarni keltirish mumkin. Masalan, yosh oila qurgan yigit va qizning hali hayotda etarlicha tajribalarga ega bo'lmasligi natijasida o'rtaga har xil muammolarni keltirib chiqaradi. Ushbu muammolar yigit va qizga ham bog'liq bo'lmasligi ularning munosabatlariga atrof muhitning ham ta'sirini ko'rish mumkin ya'ni qo'ni qo'shnilar yoki yigit va qizning o'rtoqlari tomonidan ham ularning shirin hayotini sovutishga qaratilgan salbiy harakatlarni qilishligi ham bo'lishi mumkin.

Lekin har qanday vaziyatda ham nikoh munosabatlariga kirishgan oila uning qiyinchiliklariga, boshqa atrof muhitdan bo'ladigan salbiy harakatlarga ishonmasligi o'z fikri va irodasiga asosan hayot kechirishlari va yuqorida qayd qilganimizdek oila muqaddasligini saqlab qolishlari lozim bo'ladi.

Endi hayotda biz xohlaymizmi yo'qmi uning muammolari tabiiy holda uchrab turaveradi. Masalan, nikoh munosabatlarining buzilishi, uning oqibatida farzandlarning tarbiyasi, er va Xotin o'rtasida orttirilgan umumiy mulkka bo'lgan huquqlar, otalikni belgilash, otalik huquqidan mahrum qilish yoki onalik huquqidan mahrum qilish va boshqa bir qancha ijtimoiy munosabatlar huquqiy normalar asosida hal etilishi kerak bo'ladi.

Ushbu masalalarning huquqiy echimi albatta FXDYO oraganalari tomonidan yoki sud organlari tomonidan hal qilinadi. Sud tartibida oilaviy munosabatlardan kelib chiqadigan masalalar asosan fuqarolik protsessual kodeksida belgilangan tartiblar va asoslar bilan hal etilib boriladi. Bunda er va xotining o'rtasida agar nizo bo'lsa yoki ular o'rtasidagi farzandlarning voyaga etmaganligi sababli Ushbu turkumdlagi ishlar bevosita sud tartibida hal qilinishi kerak.

FXDYO organlari tomonidan esa er va Xotin o'rtasida mulkiy nizoli va voyaga etmagan farzandlarning yo'qligidan iborat bo'ladi. Bundan tashqari qonun FXDYO organlarida er xotinning ajralishini rasmiylashtirishni ham belgilaydi. Bunga asos qilib qamoqda bo'lgan er yoki xotinning ya'ni uch yil muddatga ozodlikdan mahrum qilinganliklari, er yoki xotinning bedarak yo'qolganligi yoki ularning birining ruhiy kasalligi ham asos qilib nikohni bekor qilishlari mumkin.

Oila kodeksining 39-moddasida belgilanganidek, xotinning homiladorlik vaqtida va bola tug'ilganidan keyin bir yil davomida er nikohdan ajralish to'g'risidagi ishni xotinning roziligisiz qo'zg'atishga haqli emasligini ham belgilaydi.

FPKning 243-moddasiga binoan ajralish to'g'risidagi ishlar er va xotinning o'zaro kelishuvi asosida taraflardan birining turar joyidagi suddga berilishi kerak vash u suda ish hal qilinishi lozim.

O'zbekiston Respublikai sudlari tomonidan nikohdan ajratish hqidagi ishlarni ko'rishda qonunlarni qo'llash amaliyoti to'g'risidagi 1998 yil 11-sentyabr Plenumi qarorida sudlovlilik tushunchasiga yanada aniqlik kiritib, unda agar Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga kirgan davlatlarga ketgan va manzilgohi ma'lum bo'lgan shaxslar bilan nikohdan ajratish haqidagi da'vo, da'voarning xohishiga qarab javobgarning oxirgi yashash joyi yoki uning YA'ngi yashash joyidagi suda qo'zg'atilishi belgilangan¹.

O'zlashtirish savollari

- 1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida oila masalalari.
- 2.Oila kodeksi va uning ijobiy jihatlari. Musulmon huquqida nikoh va oila. Oilani mustahkamlashda sudning tutgan o'rni.
- 3.Nikohdan ajratish to'g'risidagi ishlarning taalluqligi va sudlovligi. Ishni qo'zg'atish va ishni sudda ko'rishga tayyorlashning protsessual xususiyatlari.
- 4.Nikoxdan ajratish to'g'risidagi ishlarni sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari.
- 5.Sud harajatlari va ularning taksimlanishi.
- 6.Nikoqdan ajratish to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud hal qiluv qarorining mazmuni va uning huquqiy oqibatlari.
- 7.Sudda nikohni haqiqiy emas deb topish uchun asoslar. Nikohni haqiqiy emas deb topish oqibatlari.

¹ Qnun nomi bilan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Axborotnomasi. 1998. 3-4-son.

18-Mavzu. ALIMENT UNDIRISH TO'G'RISIDAGI ISHLARNI SUDDA KURISHNING PROTSESSUAL XUSUSIYATLARI

Tayanch iboralar: aliment to'lashning ixtiyoriy va kelishuv shakli, aliment undirish to'g'risidagi ishlarning taalluqligi va sudlovligi, ish ko'zg'atish, ishda ishtirok etuvchi shaxslar, ishni sudda ko'rishga tayyorlash, ish ko'rish muddatlari, jvobgarning sud majlisiga kelmaslik oqibatlarini, ishni mazmunan ko'rgunga qadar vaqtinchalik aliment undirish tartibi, sudning hal qiluv qarori va uning mazmuni, ish bo'yicha sud xarajatlari, sudning hal qiluv qarorini ijro etish, javobgarni qidirish uchun asoslar, aliment miqdorini kamaytirish yoki uni to'lashdan ozod qilish uchun asoslar, aliment majburiyatlarining tugatilishi.

Dars o'tish vositalari: mavzu nazariy ahamiyat kasb etishi bilan uni asosan ma'ruza tarzida O'zbekiston Respublikasining protsessual qonunchiligi haqida, Prezident asarlarida sud -huquq sohasini isloh qilishga qaratilgan vazifalarni hamda Oliy sudning Plenum qarorlarining - normalarini sharhlash orqali yoritiladi hamda zaruratga qarab savol-javoblar uyushtiriladi.

Dars o'tish usullari: darsning mohiyatini ijtimoiy-gumanitar fanlar yutuqlaridan foydalangan holda yorqin tahlil qilish va seminarda har bir talabning fikrini eshitish bilan yakunlanadi.

Fuqaroilik sud ishlarini yuritish asosida nikohdan ajratilgan shaxslarga farzandlarning tarbiyasi ularning yashashi uchun er yoki xotin tomonidan aliment pullari undiriladi. Qonun hujjatlarga muvofiq ushbu aliment pullari er yoki xotin tomonidan ixtiyoriy yoki majburiy tartibda undirilishi mumkin.

Bolalarning tarbiyasiga va ularni moddiy tomondan ta'minlashga har bir ota-onaning ma'naviy va huquqiy burchi bo'lganligi sababli qonunda aliment ishlarida nizo bo'lmagan hollarda uning ixtiyoriy to'lanishi tartibi Oila kodeksining 135-moddasida belgilangan.

Aliment pullari aliment to'lovchining ish haqining 50 foizidan oshmasligini ham ma'muriyat hisobga olishi zarur. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 96-moddasiga binoan, voyaga etmagan bolalarga ta'minot berish majburiyatini ixtiyoriy ravishda bajarmagan ota yoki onadan sudning hal qiluv qarori yoki sud buyrug'i asosida aliment undiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998 yil 11-sentyabrdagi 22-sonli qarorining 14-bandida sud nikohdan ajratish to'g'risidagi ishlarni ko'rishda voyaga etmagan bolalarning huquqlari va manfaatlarini har tomonlasi himoya qilish maqsadida ishda aniqlangan holatlarga muvofiq manfaatdor shaxs tomondan da'vo qo'zg'atilgan yoki qo'zg'atilmaganligidan qat'iy nazar bolalar tarbiyasi uchun aliment undirish masalalarini muhokama qilish lozimligi belgilab qo'yilgan.

Aliment undirish to'g'risidagi ariza yozma ravishda tuzilib, u FPKning 149-moddasida belgilangan talablarni o'zida ifoda etishi kerak. Javobgarning sud majlismiga kelmasligi qoida bo'yicha uni majburiy keltirishni belgilaydi. Agar uning sud majlisiga kelmasligini sud uzrsiz deb hisoblasa unga nisbatan eng kam ish haqining 5 baravarigacha miqdorda jarima belgilanishi mumkin. FPK ning 261-moddasi.

Oila kodeksining 107-moddasiga muvofiq agar bolalar davlatning yoki boshqa jamoat tashkilotlarining to'liq ta'minotida bo'lsalar, sud aliment miqdorini shu kodeksning 99-moddasiga asosan javobgardan mazkur muassasa foydasiga undirishni belgilaydi. Aliment undirish to'g'risidagi sud hal qiluv qarorlari biz yuqorida ta'kidlaganimizdek darhol ijro etilishi kerak va u FPKning 219-moddasida belgilangan.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi ota-onani bolalarni ta'minlash majburiyatidan ozod etilmaydi. Shu tufayli da'vo qo'zg'atilgan-qo'zg'atilmaganligidan qat'iy nazar birgalikda hal etilishi shartligi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998 yil 11 sentyabrda qabul qilgan qarorida ko'rsatilgan.²

Sudlar da'vogarning turar joyi noma'lum bo'lganida ham da'vo arizasini qabul qilishni rad qilmasdan, balki o'z tashabbuslari bo'yicha javobgarning turar joyini aniqlashga va uning da'vo ishining sudda ko'rilishi kuni to'g'risida xabardor qilishga choralar ko'rishga majburlar.

Voyaga etmagan bolalar va muomalaga layoqatsiz shaxslarning manfaatlarini va ularning aliment olishga bo'lgan huquqlarini ta'minlashning muhim kafolati Oila qonunchiligida belgilangan.

Agar javobgarning yashab turgan joyi noma'lum bo'lganida uni ichki ishlar organlari orqali qidirtirish majburiyati belgilangan (FPKning 140-moddasi).

Bu normaga muvofiq sudya da'vo arizasini qabul qilishga va javobgarni qidirish to'g'risida ajrim chiqarishga majbur. Shu bilan bir vaqtda aliment undirish to'g'risidagi ishning yuritilishini vaqtincha to'xtatish to'g'risidagi masala hal qilinadi (FPKning 93-moddasi 3-qismi). Oila kodeksining 96-102-moddalari ham shu maqsadlarga xizmat qiladi. Bu qonunlarga asoslanib sud da'vo arizasini qabul qilish bilan birga ishning sudda hal qilinishiga qadar bolalarning ta'minoti uchun javobgar qanday xarajatlarni kutarishi lozimligi to'g'risida ajrim chiqaradi, ya'ni ona va bolalarning manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan choralarni ko'radi. Vaqtincha undirilishi lozim bo'lgan summaning miqdori javobgarning ish haqi (daromadi)ning tegishli qismi miqdorida yoki qat'iy summa bilan belgilanishi mumkin. Bu normaning tadbiq etilishi javobgarning ishning mazmuni bo'yicha hal qilinishini cho'zishga qaratilgan harakatining oldini oladi.

Aliment undirish to'g'risidagi da'vo arizasi yozma formada tuzilib, u FPKning 149-moddasida ko'rsatilgan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Javobgar alimentlar to'lashdan bosh tovlaganida uni qidirishlik uchun qanday choralar ko'rilganligi va uning hozirgi vaqtda qaerda yashaganligi to'g'risidagi ma'lumotlar ham arizada ko'rsatiladi. Javobgarning yashash joyi noma'lum bo'lsa, bu holat ham ko'rsatilishi kerak.

Da'vo arizasiga tubandagicha hujjatlar ilova qilinadi: bolaning tug'ilishi to'g'risidagi guvohnoma; nikohni qayd qilish to'g'risidagi guvohnoma; bolaning ariza beruvchi bilan birga yashashi va uning boqimida bo'lishi to'g'risidagi

ma`lumot; javobgarning ishlab turgan joyidan, uning ish haqi to`g`risidagi va uning ish haqidan boshqa shaxslarning foydasiga ijro hujjatlari bo`yicha qancha summa undirilishi to`g`risidagi ma`lumot; agar javobgar fermer bo`lsa, javobgarning tomorka uchastkasidan oladigan qo`shimcha daromadlari to`g`risida fuqarolarning o`zini-o`zi boshqaruvchi idoralardan ma`lumot ilova qilinadi.

Yuqorida ko`rsatilgan hujjatlardan birortasi ham bo`lmasa, da`vogarga bunday hujjatlarni mumkin qadar qisqa vaqt ichida topshirish qiyin bo`lsa, sudya ularni tegishli muassasalardan o`z tashabbusi bo`yicha talab qilib olishga majbur (FPKning 57, 158-moddalari).

Ota-onalardan bolalarning ta`minoti uchun alimentlar undirish to`g`risidagi da`volar ota-onalari o`rtasidagi nikohdan ajralgan-ajralmaganligidan qat`iy nazar qo`zg`atilishi mumkin. Sudya ishni sudda ko`rishga tayyorlashda javobgarning boshqa onadan bo`lgan bolalari uchun ham alimentlar to`lash-tulamasligini aniqlashi va bu onani mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxs sifatida ishga jalb qilinishi lozim. Da`vo qanoatlantirilmagan holda muqaddam yozilgan ijro varaqasi bo`yicha undiriladigan alimentning miqdori birmuncha kamayishi mumkin bo`lganligi sababli, bunday ishning hal qilinishi oqibati uchinchi shaxslar manfaatiga ta`sir etishi mumkin.¹

Mazkur turkumdagi ishlar oddiy tartibda, ammo tubanda ko`rsatilgan xususiyatlar e`tiborga olingan holda ko`riladi. FPKning 131-moddasi bunday ishlarni ko`rish uchun qisqartirilgan muddatlar belgilaydi. Chunonchi: taraflar bir shahar yoki bir tumanda yashasalar, ish 10 kundan kechiktirilmasdan ko`riladi, boshqa hollarda esa ariza qabul qilingan kundan boshlab 20 kundan kechiktirilmasdan ko`riladi. Ammo bu qoida bunday da`voning boshqa ishlarga qo`shib ko`rilishida tadbiiq etilmaydi. Masalan, otalikni belgilash to`g`risidagi ishga alimentlar undirish to`g`risidagi ishlar qo`shilganida tadbiiq etilmaydi. Bunday hollarda ish bir oygacha bo`lgan muddatga ko`rilishi mumkin.

Javobgarning sud majlisiga hozir bo`lishligini ta`minlashga alohida e`tibor beriladi. Alimentlar undirish to`g`risidagi ishlar bo`yicha javobgarning sudga kelishi umumiy qoida bo`yicha majburiy hisoblanadi. Agar javobgar sud tomonidan uzrsiz deb topilgan sabablar bo`yicha sud majlisiga kelmasa, unga eng kam ish haqining besh baravarigacha miqdorda jarima solinadi va majburiy ravishda keltirilishi mumkin (FPKning 261-moddasi).

Javobgar boshqa shaharda yoki tumanda yashasa va uning sudga kelishi qiyinrok bo`lsa, u kasalligi va boshqa uzrli sabablar bilan protsessda qatnasha olmasa, sud uni majlisga kelishdan ozod qilishi mumkin. Bunday holda ishni ko`ruvchi sud javobgardan ishning holatlari va qo`zg`atilgan da`voning yuzasidan batafsil bayonot olishi kerak.

Sud aliment undirish to`g`risidagi ish bo`yicha hal qiluv qarori qabul qila turib, bu qarorni FPKning 205 va 206-moddalari talablariga muvofiq ravishda

tuzadi. qarorning aslantirish qismida sud tomonidan belgilangan holatlar, sudning xulosalari qanday dalillarga asoslangan bo'lsa, bunday dalillar va sud amal qilgan qonunlar ko'rsatiladi. qarorning xulosa qismida javobgarning ismiu familiyasi, otasining ismi, tug'ilgan yili va joyi, uning doimiy turar joyi, ish joyi va vazifasi, aliment olayotgan bolaning ismi va tug'ilgan yili, qancha miqdorda va necha bolaga aliment undirilishi va olinadigan sud xarajatlarining miqdori aniq va to'la ko'rsatiladi. Mazkur ma'lumotlar sudga topshirilgan hujjatlarning asliga muvofiq ravishda ko'rsatiladi. Alimentlar da`vo bilan sudga murojaat qilingan paytdan boshlab kelgusi vaqt uchun undiriladi.

Agar sud aliment undirish uchun hamma choralarni ko'rishga qaramay, javobgar uni to'lashdan bosh tortgani sababli aliment undira olmaganini, shuningdek da`vogar oilani saqlash maqsadida yoki boshqa uzrli sabablar bilan o'z vaqtida da`vo qilmaganini aniqlasa, sud ishdagi ahvollarga qarab, o'tgan vaqt uchun ham, ammo uch yildan oshiq bo'lmagan muddatga aliment undirishi mumkin (Oila kodeksining 136-moddasi).

Bolalarning tarbiyasi uchun alimentlar javobgarning ish haqiga nisbatan xissalar bilan belgilanib, davriy to'lovlar shaklida undiriladi (Oila kodeksining 99-102-moddalari).

Ammo muayyan holatlarda (Oila kodeksining 101-moddasiga qaralsin) sud bolalarning ta`minoti uchun mablag' to'lanishini talab qiluvchi shaxsning iltimosi bo'yicha alimentlarni har oyda to'lanishi lozim bo'lgan qat`iy pul summasida ham undirilishi mumkin.

Favkulodda holatlar tufayli, masalan, bolaning og'ir kasal bo'lishi, mayib bo'lishi va shu kabi holatlar sodir bo'lganida alimentlardan tashqari otionalardan qo'shimcha xarajatlar ham undirilishi mumkin (Oila kodeksining 103-moddasi).

Agar sud aliment to'lovchi shaxsning boshqa voyaga etmagan bolalari borligini aniqlasa va undan qonun bilan belgilangan miqdorda alimentlar undirilganida bu bolalar, aliment oluvchi bolalarga nisbatan moddiy jihatdan kamroq ta`minlanadigan bo'lib qolsalaru shuningdek aliment to'lovchi birinchi va ikkinchi guruh nogironi bo'lsa yoxud aliment oladigan bolalar ishlasalar, ularning etarli ish haqi bo'lsa, undiriladigan alimentlarning miqdori sud tomonidan kamaytirilishi lozim.

O'zlashtirish savollari

1. Aliment to'lashning ixtiyoriy va kelishuv shakli. Aliment undirish to'g'risidagi ishlarning taalluqligi va sudlovligi.

2. Ish ko'zg'atish. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar. Ishni sudga ko'rishga tayyorlash.

3. Ish ko'rish muddatlari. Javobgarning sud majlisiga kelmaslik oqibatlarini.

4. Ishni mazmunan ko'rgunga qadar vaqtinchalik aliment undirish tartibi. Sudning hal qiluv qarori va uning mazmuni.

5. Ish bo'yicha sud xarajatlari. Sudning hal qiluv qarorini ijro etish. Javobgarni qidirish uchun asoslar.

6. Aliment miqdorini kamaytirish yoki uni to'lashdan ozod qilish uchun asoslar. Aliment majburiyatlarining tugatilishi.

19-Mavzu. OTALIKNI BELGILASH TO'G'RISIDAGI ISHLARNI SUDDA KO'RISHNING PROTSESSUAL XUSUSIYATLARI

Tayanch iboralar: sud tartibida otalikni belgilash to'g'risidagi ishlarni yuritish va uning turlari, otalikni belgilash to'g'risidagi ishlarning taalluqligi va sudlovligi, otalikni belgilashda alohida tartibda, shuningdek da'vo ko'zg'atish tartibida ish yuritish uchun asoslar, ishni sudda ko'rishga tayyorlash va ishni sudda ko'rib xal qilishning protsessual xususiyatlari, alohida va da'vo tartibida yuritiladigan otalikni belgilash ishlari bo'yicha isbotlash va dalillar, ish bo'yicha sud hal qiluv qarorlari va unga qo'yilgan talablar.

Dars o'tish vositalari: mavzu nazariy ahamiyat kasb etishi bilan uni asosan ma'ruza tarzida O'zbekiston Respublikasining protsessual qonunchiligi haqida, Prezident asarlarida sud -huquq sohasini isloh qilishga qaratilgan vazifalarni hamda Oliy sudning Plenum qarorlarining - normalarini sharhlash orqali yoritiladi hamda zaruratga qarab savol-javoblar uyushtiriladi.

Dars o'tish usullari: darsning mohiyatini ijtimoiy-gumanitar fanlar yutuqlaridan foydalangan holda yorqin tahlil qilish va seminarda har bir talabning fikrini eshitish bilan yakunlanadi.

Otalikni belgilash to'g'risidagi talabni suda ko'rilishi va uni hal qilish uchun sudya protsessual ahamiyatga ega bo'lgan va oilaviy qonunchilikda nazarda tutilgan qator holatlarni tekshiradi. Otalikni sud tartibida belgilash da'vo ishi va alohida tartibda ko'riladigan ishlarga oid qoidalar bo'yicha amalga oshirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining oila kodeksi otalikni belgilash to'g'risidagi ishlarning ikki turini belgilaydi. Birinchisiga, da'vo ishini yuritish tartibida ko'riladigan otalikni belgilash to'g'risidagi ishlar. Ikkinchisida alohida tartibda ish yuritish tartibida ko'riladigan otalik faktini belgilash to'g'risidagi ishlar bo'ladi.

Otalikni da'vo ishini yuritish tartibida belgilanishi to'g'risidagi va alohida tartibda ish yuritishda otalik faktini belgilash to'g'risidagi talablarning qanoatlantirilishi ishning suda ko'rilishi davomida Oila kodeksining 62-moddasida sana bo'tilgan holatlardan birining tasdiqlanishi bilan bog'liq bo'ladi.

Bolani o'z tarbiyasiga olgan va bolani otasi bo'lishiga iqror bo'lgan shaxs vafot etgani holda otalikni tan olish fakti belgilanadi.

Otalikni belgilash to'g'risidagi ishlarni qo'zg'atish uchun umumiy asos, bolaning ota-onalari o'rtasida nikohni qayd qilish organlarida rasmiylashtirilgan nikohning yo'qligi bo'ladi.

Nikohda bo'lmagan shaxslardan bolaning tug'ilishida otalik aga rota-onalar otalikni belgilash to'g'risida birgalikda FXDYO organiga ariza bermagan bo'lsalar, u holda sud tartibida belgilanishi mumkin. Bunday holat bolaning ota-onalari o'rtasida nizo bo'lganida, ya'ni ota-onalaridan birining qarshi bo'lishi yoki uni otalikni tan olish to'g'risida FXDYO organiga birgalikda ariza berishday bosh tortganida uchrashi mumkin.

Ko'pgina holatlarda otalikni belgilash to'g'risidagi da'vo arizalari aliment undirish to'g'risidagi talablar bilan birga qo'shib beriladi. Da'vo arizasi FPKning 148-149-moddalariga muvofiq sudga yozma shaklda beriladi.

Otalikni alohida ish yuritish tartibida belgilash to'g'risidagi ariza FPKning 284-moddasiga asosan yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktning belgilanishi to'g'risidagi arizalar kabi ariza beruvchining turar joyidagi sudga beriladi.

Bundan tashqari otalikni sud tartibida belgilashda sudlar O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2001 yil 1 –iyundagi «Otalikni belgilash haqidagi ishlarni ko'rishda sudlar tomonidan qonunlarning tatbiq etilishi to'g'risidagi» Plenum qarorida belgilab qo'yilgan¹.

Sud otalikni belgilash to'g'risidagi ishni ko'rishda qo'yidagilarga e'tibor berishi lozim:

-bolaning onasi bilan javobgarning bola tug'ilishiga qadar birga yashashliklari va umumiy tartibda ro'zg'or yuritganliklarini:

-bolani birgalikda tarbiyalaganliklarini yoki uni ta'minlab turganliklarini:

-javobgarning otalikni tan olganliklarini (otalikka iqoror bo'lganligini) aniq tasdiqlaydigan dalillarning bo'lishligini hisobga olishi kerak.

Otalikni belgilash bo'yicha sudning qarorolari qonuniy va asoslantirilgan bo'lishiga qarab protsessual va moddiy huquq normalarini to'g'ri tatbiq etishi lozim.

Yuqorida aytilganidek, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi nikohda bo'lmagan ota-onalardan tug'ilgan bolalarga nisbatan otalikning sud tartibida belgilanishi mumkinligi to'g'risida qoidalar o'rnatdi. Bu qoidalar ota-bola o'rtasida huquqiy munosabatlarni vujudga keltirish, xususan ona va bolalarning manfaatlarini himoya qilish uchun muhim ahamiyatga egadir. qonuniy nikohda bo'lmagan shaxslardan tug'ilgan bolaning otasini sud yo'li bilan belgilash uchun muayyan yuridik faktlarning mavjudligini aniqlash talab qilinadi.

Sud otalikni belgilash to'g'risidagi nizolarni ko'rishda tubandagilarning: **birinchidan**, bolaning onasi bilan javobgarning bola tug'ilishiga qadar birga yashaganliklari va umumiy ruzgor yuritganliklarini; yoki **ikkinchidan**, bolani birgalikda tarbiyalaganliklarini yoxud uni ta'minlab turganliklarini; yoxud uchinchidan, javobgarning otalikni tan olganligini (otalikka iqoror bo'lganligini) aniq tasdiqlaydigan dalillarning bo'lishligini e'tiborga oladi.

Yuqorida ko'rsatilgan hollar bolaning javobgar shaxsdan tug'ilishi faktini tasdiqlaydigan dalillar bo'lishi bilan bir qatorda, moddiy-huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan, ya'ni otalik huquqlari va burchlarini vujudga keltiruvchi shartlar bo'lib ham ko'riladi va mazkur turkumdagi ishlar bo'yicha da'voning asosini tashkil etadi.

Ko'rsatilgan bu holatlar qat'iy bo'lib, ularning har qaysisi huquqiy oqibatlarining tug'dirilishi uchun mustaqil ahamiyatga egadir.

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Axborotnomasi. 200. 1-3-4 son.

Binobarin, da`voni qanoatlantirishda bolaning javobgardan tug`ilishi faktini tasdiqlash uchun Oila kodeksining 62-moddasida ko`rsatilgan holatlardan hammasi bo`lmasa ham, faqat birigina bo`lganida ham etarli asos bo`ladi. Bu modda ko`rsatilgan holatlarning fuqarolik protsessida ikki xil ahamiyatga ega bo`lishini nazarda tutish kerak. Bir tomondan, bu holatlar bolaning otasi bilan bola o`rtasida huquqiy munosabatlarni vujudga keltiradigan moddiy-huquqiy ahamiyatga ega bo`lgan yuridik faktlar bo`lib ko`riladi. Binobarin, bular da`voning asosi tarkibiga kiradi va isbotlash predmetini tashkil etadi. Ikkinchi tomondan, ya`ni protsessual tomondan, bu holatlar da`voning asosida bo`lgan eng muhim fakti-bolaning javobgardan tug`ilishi faktini tasdiqlovchi dalillar rolini bajaradi. qonunda bunday holatlar sifatida bolaning otasi bilan bola o`rtasida kon-qarindoshlikni to`g`ridan-to`g`ri yoki egri tarzda isbotlovchi faktlar ko`rsatiladi va shu tufayli ular isbotlovchi dalil sifatida muayyan ahamiyatga ega bo`ladi. Masalan, bolaning javobgar tomonidan asralishi, unga ta`minot berilishi, otalikni belgilash uchun shart bo`lib ko`rilishi bilan birga bolaning javobgardan tug`ilgan bo`lishligini egri tarzda bo`lsa ham isbotlovchi dalil qatorida ko`riladi.

Otalikni belgilashda sud tomonidan e`tiborga olinishi lozim bo`lgan holatlar orasida Oila kodeksining 62-moddasida, avvalo bolaning otasi bilan onasi birgalikda yashagan bo`lishlari va birgalikda umumiy ruzgor yuritganliklari ko`rsatiladi. Oliy sud Plenumining yuqorida ko`rsatilgan 1982 yil 25 martda chiqarilgan qarorining 3-bandida tushuntirilishicha, bolaning onasi javobgar bilan birgalikda yashashlari va birgalikda umumiy ruzgor, xo`jalik olib borishlari, oilaviy munosabatlar uchun xarakterli holat bo`lishi bilan, Jumladan, bir uyda yashashlari, birgalikda ovqatlanishlari, bir-birlari to`g`risida o`zaro gamxurlikda bo`lishlari, birgalikda foydalanish uchun uy-ruzgor buyumlari olishlari va boshqa holatlar bilan tasdiqlanishi mumkinligi aytiladi. Sud amaliyotida O`zbekiston Respublikasi Nikoh va Oila kodeksining 61-moddasi talablari bo`yicha bolaning nasabini belgilash bilan bog`liq bo`lgan holatlarni etarli tekshirilmagani holda sud otalikni belgilash haqidagi da`voni qanoatlantirish hollari mavjudligi to`g`risida Respublika Oliy sudi ko`rsatib o`tgan.¹

Otalikni sud tartibida belgilash uchun bo`lgan asoslardan **ikkinchisi**-bola onasi va javobgar tomonidan birgalikda tarbiyalanishi yoxud otaning bolaga ta`minot berib turishi bo`ladi. Bunday hollarda ularning birgalikda yashashlari shart qilib qo`yilmaydi. Oliy sud Plenumining 1982 yil 25 martda chiqargan qarorida tushuntirishicha, bolaning javobgar tomonidan tarbiyalanishi deb aytilganida, uning doimiy ravishda bola bilan ko`rishib turishligi, to`g`risida ota-onalarcha gamxurlikda bo`lishligi nazarda tutiladi. Bunday hollarda javobgar boladan ayrim holda yashasa ham, ammo doimiy ravishda uning bilan ko`rishib turishi unga ruhiy va jismoniy tarbiya berilishi to`g`risida gamxurlik ko`rsatishi ham dalil bo`lishi mumkin. Xullas, bolani

tarbiyalashda, unga moddiy yordam berishda javobgarning ishtirok etishi-otalikni belgilash uchun asos bo'ladigan dalil hisoblanadi.

Otalikni bu ikkinchi asos bo'yicha belgilash uchun bola javobgarning to'la qaramog'ida bo'lishi yoki javobgar tomonidan beriladigan moddiy yordam bola uchun doimiy va asosiy yashash manbai bo'lishi kerak. Bunday hollarda javobgarning birmuncha uzoq muddat davomida bolani asrash uchun moddiy yordam ko'rsatib turganligining belgilanishi ham kifoya bo'ladi. Bu asosni e'tiborga olish uchun yordamning qancha vaqt davomida berib turganligi muhim ahamiyatga ega emas. Ammo javobgar tomonidan sovgalar tariqasida yoki har zamonda moddiy yordam berilishini-bolaning javobgar tomonidan asralishi fakti deb ko'rilmaligi kerak.

Bolaning onasi va javobgar bir oila bo'lib yashaganliklarida bolaga qilingan xarajatlarning miqdoridan qat'iy nazar, bolani asragan bo'lib ko'riladigan oilaviy munosabatlar mavjud bo'lganida, maxsus asos, qoida bo'yicha bolani birgalikda tarbiyalash bilan bog'liq qilinadi. Binobarin, bolaning javobgar tomonidan asralishi to'g'risida gumon bo'lganida, masalan, javobgar hech qaerda ishlamasdan, bolaning onasi qaramog'ida bo'lganida ham otalikni belgilash uchun bolaning ular tomonidan birgalikda tarbiyalanishi fakti sifatida e'tiborga olinishi mumkin.

Bolaning ota-onalari birga yashaganlarida bolaning javobgar boqimida bo'lishligi fakti, aksariyat hollarda, ochiqdan-ochiq ko'rinib turadi. Buni belgilash sud uchun unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi. Agar taraflar ayrim yashaganliklarida va javobgar moddiy yordam ko'rsatib turganida, bu holatni aniqlash qiyinrok bo'ladi. Bunday hollarda sud o'z tashabbusi bilan zarur dalillarni to'plashi lozim bo'ladi.

Javobgarning otalikni tan olganligining, otalikka iqror bo'lganligining sud tomonidan belgilanishi muhim ahamiyatga ega bo'lgan yuridik fakt hisoblanadi. Oila kodeksining 62-moddasida ko'rsatilgan otalikni sud tartibida belgilashning bu uchunchi asosiga alohida e'tibor berilish talab qilinadi.

Javobgarning otalikka iqror bo'lishligi to'g'risidagi sudning xulosasi bu fakti aniq tasdiqlaydigan dalillarga asoslangan bo'lishi lozim. Otalikka iqror bo'lish qat'iy formada qilingan bo'lishi va bu to'g'rida qarama-qarshi fikrlarga-mulohazalarga yo'l qo'yilmasligi kerak. Javobgarning noaniq iqrori, bolaning o'ziniki bo'lishligiga ishonib etmasligi, shu bilan birga bunday extimolni inkor ham etmasligi boshqacha aytganda yarim iqror bo'lishlik otalikni belgilash uchun asos bo'lmaydi.

Otalikni tan olganlikni isbotlaydigan dalillar: javobgarning xatlari, anketalari, arizalari va boshqa faktik ma'lumotlar bo'ladi. Bular bilan birgalikda otalikka iqror bo'lish faktini aniq tasdiqlaydigan, protsessual qonunlarda nazarda tutilgan boshqa isbotlash vositalaridan ham, masalan, javobgarning otalikka iqror bo'lganligini isbotlaydigan aktlar yoki hujjatlarning muallif ekanligi belgilash to'g'risida ekspertlarning fikrlaridan ham foydalanish mumkin bo'ladi.

Javobgarning sud majlisida otalikka iqror bo'lishligi alohida ahamiyatga egadir. Javobgar sudda da'voni tan olsa, otalikka iqror bo'lsa, qonunda

nazarda tutilgan shartlar bo'lmasa ham, sud otalikni belgilash to'g'risida qaror chiqarishga haqli bo'ladi.

Javobgarning da'voni tan olishi, ya'ni otalikka iqrор bo'lishligi moddiy-huquqiy va protsessual ahamiyatga ega bo'lgan fakt hisoblanadi. Bundan tashqari, javobgarning sud majlisida otalikka iqrор bo'lishi muhim dalil sifatida ham ko'rilishi mumkin. Ammo sudda iqrор bo'lishlik-da'voni qanoatlantirish to'g'risida qaror chiqarishga izohsiz asos bo'la olmaydi.

Ba'zi hollarda javobgar o'z bolasi bo'lmagan bolaga nisbatan ham iqrор bo'lishi mumkin. Bunday iqrор taraflarning qonunda belgilangan tartibdan chikib, bolani sud orqali farzand qilib olishni istashlari bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

Otalikka yolgondan iqrор bo'lish rad qilinishi kerak. Chunki sudning qarori barcha hollarda ish holatlariga muvofiq bo'lishi va chin haqiqatga qarama-qarshi bo'lmashligi kerak. Binobarin, javobgarning sud majlisida otalikka iqrор bo'lishi sudni bolaning haqiqatan kimdan tug'ilganligini aniqlash burchidan ozod qilinmaydi. Otalik to'g'risidagi nizolarni hal qilishda bexuda protsessual harakatlar qilmaslik va taraflarning o'zaro haqiqiy munosabatlarini har taraflama aniqlash maqsadida sud avvalo Oila kodeksining 62-moddasida ko'rsatilgan holatlarning bo'lish-bo'lmashligini belgilashi lozim. Agar ulardan biri ham tasdiqlanmasa, bolaning kimdan tug'ilganligi to'g'risidagi masalani tekshirishning ahamiyati bo'lmaydi, chunki tekshirish natijalaridan qat'iy nazar talab qanoatlantirilmaydi.

O'zlashtirish savollari

1.Sud tartibida otalikni belgilash to'g'risidagi ishlarni yuritish va uning turlari.

2.Otalikni belgilash to'g'risidagi ishlarning taalluqligi va sudlovligi.

3.Otalikni belgilashda alohida tartibda, shuningdek da'vo ko'zg'atish tartibida ish yuritish uchun asoslar.

4.Ishni sudda ko'rishga tayyorlash va ishni sudda ko'rib xal qilishning protsessual xususiyatlari.

5.Alohida va da'vo tartibida yuritiladigan otalikni belgilash ishlari bo'yicha isbotlash va dalillar.

6.Ish bo'yicha sud hal qiluv qarorlari va unga qo'yilgan talablar.

20-Mavzu. MEHNATGA OID ISHLARNI SUDDA KO'RISHNING PROTSESSUAL XUSUSIYATLARI

Tayanch iboralar: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va Mehnat kodeksida fuqarolarning mehnat huquqini himoya qilish, mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizoli ishlarning taalluqligi va sudlovligi, bevosita sudlarda ko'rilishi lozim bo'lgan mehnat nizolari, mehnatga oid nizoli ishlarda taraflar va ularning o'ziga xos xususiyatlari, ishga tiklash to'g'risidagi ishlar bo'yicha uchinchi shaxslarning ishtirok etish xususiyatlari, mehnat ishlari bo'yicha dalillarni taqdim qilish majburiyati, mehnatga oid bo'lgan ishlarni ko'rish muddatlari, mehnat ishlari yuzasidan sudning hal qiluv qarori, hal qiluv qarorini ijro etish xususiyatlari.

Dars o'tish vositalari: mavzu nazariy ahamiyat kasb etishi bilan uni asosan ma'ruza tarzida O'zbekiston Respublikasining protsessual qonunchiligi haqida, Prezident asarlarida sud -huquq sohasini isloh qilishga qaratilgan vazifalarni hamda Oliy sudning Plenum qarorlarining - normalarini sharhlash orqali yoritiladi hamda zaruratga qarab savol-javoblar uyushtiriladi.

Dars o'tish usullari: darsning mohiyatini ijtimoiy-gumanitar fanlar yutuqlaridan foydalangan holda yorqin tahlil qilish va seminarda har bir talabanning fikrini eshitish bilan yakunlanadi.

Mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar ham umumiy fuqarolik sud ishlarini yuritish kabi da'vo ishlarini yuritish tartibida sudlar tomonidan hal qilinadi.

Mehnatga oid nizola suda moddiy huquq normalari bilan birga protsessual huquq normalari hamda ushbu sohaga oid Oliy sud Plenumining qarorlari bilan birgalikda hal qilinadi. Fuqarolik ishlarini ko'ruvchi sudlar mehnatga oid arizalarni ko'rishdan oldin FPKning 31 va 239-moddasiga asosan umumiy qoidaga binoan ularni sudga talluqli bo'lish bo'lmasligini beligalashlari lozim. Mehnat huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan ishlarni sudga talluqli bo'lish bo'lmasliklarini belgilash haqida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 1998 yil 17-apreldagi Plenumi qarorida ko'rsatib o'tilgan¹.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 260-moddasida ko'rsatilganidek, mehnat nizolari bo'yicha xodim mehnat nizolari komissiyasiga yoki bevosita sudga murojaat etishga hq'aqli. Qonun MK ning 269-moddasiga ko'ra mehnat nizolari qo'yidagi hollarda tuman (shahar) sudlarida ko'rib chiqiladi:

-agar xodimning ish joyida mehnat nizolari komissiyasi tuzilmagan bo'lsa:

-ular mehnat shartnomasini bekor qilish asoslaridan qat'iy nazar ishga tiklash to'g'risidagi, mehnat shartnomasini bekor qilish vaqti va asoslari ta'rifini o'zgartirish to'g'risida, majburiy progul yoki kam haq to'lanadigan ishni bajargan vaqt uchun haq to'lashga doir bo'lsa:

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Axborotnomasi. Qonun nomi bilan 1998., 1-2 son.

-xodimi tomonidan ish beruvchiga etkazilgan zararning to'lanishi haqida bo'lsa:

-mehnat vazifalarini bajarayotganda xodimning sog'ligiga shikast etkazilishi oqibatidagi zararni shu jumladan ma'naviy zararni yoki uning mulkiga etkazilgan zararning ish beruvchi tomonidan to'lanishi haqida bo'lsa:

-Mehnat kodeksining 78-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollarda ishga qabul qilish rad etilganligi haqida bo'lsa:

-ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarga boshqa vakillik organlari bilan oldindan kelishib hal etilgan masalalar yuzasidan kelib chiqqan bo'lsa.

Mehnat huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan nizoli ishlarni protsessual xususiyatlaridan biri shuki bunda boshqa fuqarolik ishlarga nisbatan qisqa muddat belgilanganidir.

Mehnat nizosini ko'rish haqidagi ariza bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega bo'lgan shaxslar qonunda ko'rsatilgan, ular:

1) xodim, kasaba uyushmasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organlari;

2) mehnatning huquq bo'yicha inspektori;

3) ish beruvchi mehnat nizolari komissiyasining qaroriga rozi bo'lmagan taqdirda, shuningdek unga xodim tomonidan etkazilgan zararni qoplash haqidagi nizolar bo'yicha;

4) prokuror.

Mehnat nizolari to'g'risidagi ariza bilan bevosita tuman (shahar) sudiga Mehnat kodeksining 270-moddasida belgilangan muddatlardagina murojaat qilish mumkin, chunonchi:

ishga tiklash nizolari bo'yicha xodimga u bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganligi haqidagi buyruqning nusxasi berilgan kundan boshlab bir oy;

xodim tomonidan ish beruvchiga etkazilgan moddiy zararni to'lash haqidagi nizolar bo'yicha zarar etkazilganligi ish beruvchiga ma'lum bo'lgan kundan boshlab bir yil;

boshqa mehnat nizolari bo'yicha-xodim o'z huquqi buzilganligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan kundan boshlab uch oy.

Ushbu 270-moddada belgilangan muddatlar uzrli sabablarga ko'ra o'tkazib yuborilgan taqdirda, bu muddatlar sud yoki mehnat nizolari komissiyasi tomonidan qayta tiklanishi mumkin.

Xodimning sog'lig'iga etkazilgan zararni qoplashga doir nizolar bo'yicha sudga murojaat qilish uchun muddat belgilanmaydi.

Mehnat nizolarini ko'rish uchun boshqa fuqarolik ishlariga nisbatan birmuncha qisqa muddatlar belgilangan. FPKning 131-moddasiga ko'ra, mehnat nizolari birinchi instantsiya sudi tomonidan 10 kunlik muddat ichida ko'rilishi lozim. Ishni boshqa muddatda ko'rilishi shu qonunda belgilangan. Mehnat to'g'risidagi nizolarning tezdin ko'rilishini ta'minlash bilan huquq normalari fuqarolarning mehnatga oid huquqarining amaldagi Konstitutsiya

o'z himoyasiga olganligidan va ularning manfaatlari hamisha davlat e'tiborida ekanligidan dalolat beradi.

3-§. Mehnat ishlarini sudda ko'rishga tayyorlash

Mehnat ishlarini sudda ko'rish uchun tayyorlash alohida ahamiyatga egadir. Sudya ishni ko'rishga tayyorlashga kirishishda FPKning 158-160-moddalari talablarini aniq bajarishi lozim. Jumladan, ish yuzasidan aniqlanishi kerak bo'lgan faktlarni belgilashi, barcha dalillarni keltirilgan-keltirilmaganligini tekshirishi, agar zarur bo'lsa, qo'shimcha dalillarni talab qilib olishi kerak.

Ishga tiklash to'g'risidagi va boshqa nizolar bo'yicha mehnat nizolari komissiyasining qarori ish beruvchi va kasaba uyushmasi qumitasi yoxud xodimlar boshqa vakillik organining vakillari o'rtasidagi kelishuvga binoan qabul qilgan taqdirda sud shu to'g'risidagi qarorning nusxasini talab ilib olishi kerak. Mehnat nizolarini ko'ruvchi komissiyada avvalo ko'rilishi talab qilingan ish sudga kelganida ishning mazkur organlarda qanday ko'rilganligini, ishning ko'rilishi vaqti va joyi to'g'risida xodimning xabardor qilinganligi, uning shu majlisda ishtirok etganligini guvohlantiradigan materiallar talab qilib olinadi.

Mehnat nizoli ishlarini sudda ko'rishda sud dalillarga e'tibor berishi, buning uchun da'vo talablariga qarab isbotlash qaysi taraf tomonidan amalga oshirilishi lozimligiga ahamiyat berishi kerak. Mehnat ishlarini ko'p hollarda isbotlash ish beruvchi tomonidan bo'lishi sud amaliyotida ko'p uchraydi (masalan, ishga tiklash, shtat qisqartirilishi va hokazo).

Mehnat qollektivlarida mehnat intizomi buzilishini oldini olish va mehnat munosabatlari sohasida qonunchilikni mustahkamlash maqsadida mehnat ishlarini sudda ko'rishga tayyorlashning har bir holatida bunday ishlarning ochiq sud majlisida, xodimning ish xonasida, prokuror va jamoatchilikning ishtirokida ko'rish lozim bo'lish-bo'lmasligini belgilashi lozim. Bu masalaga alohida e'tibor berilishi kerakligi Respublika Oliy sudining Plenum qarorida ko'rsatib o'tilgan¹.

4-§. Mehnat ishlarida taraflar

Har qanday fuqarolik ishi kabi mehnatga oid nizoning ham muvaffaqiyat bilan hal qilinishi-barcha manfaatdor shaxslarning protsessual holatlarini to'g'ri belgilashga bog'liqdir. Umumiy qoida bo'yicha mehnat ishlarida taraflar mehnatga oid nizoli huquqiy munosabatning sub'ektlari bo'ladi. Mehnat huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan nizoli ishlarda taraf bo'lib voyaga etmagan ya'ni o'n to'rttdan o'n sakkizgacha bo'lgan fuqarolar ish haqini yoki boshqa daromadni tasarruf etish bilan bog'liq bitimlardan kelib chiqadigan ishlar bo'yicha sudda o'z huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish huquqi bunday nizolarni hal qilishning o'ziga xos protsessual xususiyatlaridandir (FPKning 38-moddasi). Ishdagi sub'ekt avvalo da'vogar bo'ladi. Da'vogar o'zining sub'ektiv huquqining yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatining himoya kiinishi

to'g'risidagi talabi bilan sudga murojaat qilgan shaxs bo'ladi. har qanday mehnat nizosi bo'yicha da'vo bilan xodimlar sudga murojaat qilganlarida da'vogar shaxs qaysi korxonada, muassasa, tashkilot bilan huquqiy munosabatda bo'lgan bo'lsa, mazkur tashkilot (yuridik shaxs) javobgar bo'ladi. Bunday ishlar bo'yicha tashkilotning ma'muriyati, ya'ni ish beruvchi mansabdor shaxs javobgar bo'lmaydi. Tegishli tashkilotning rahbarlari protsessda ustav (nizom) bo'yicha vakil sifatida qatnasha oladilar. Ishni shaxsan o'zlari, shuningdek ular tomonidan vakil qilingan shaxslar tomonidan olib borilishi mumkin. Bunday vakillar tashkilotning doimiy ishlaydigan xodimlari (yuristkonsultlar va boshqa xodimlar), shuningdek tegishli tartibda vakolat olgan boshqa shaxslar bo'lishi mumkin.

Kasaba uyushmalari mehnat nizolarini ko'rib hal etishda vakil sifatida ishtirok etishi ham mehnat munosabatlaridan kelib chiqadigan ishlarni o'ziga xos xususiyatlaridandir. Ular xodimni (FPKning 48-49-moddalarida) huquqi bilan qonuni manfaatlarini o'zlariga berilgan huquq doirasida sudga vakolatnomasini ko'rsatishi bilan hech qanday sarf-xarajatsiz protsessda qatnashadi.

Kasaba uyushmalarining vakillari xodimlarning ishlari bo'yicha ixtiyoriy vakillikni amalga oshirishlari mumkin. Bunday vakillikni ular FPKning 52-moddasida belgilangan qoidaga muvofiq amalga oshiradilar.

Kasaba uyushmalari mehnat ishlariga da'vogar, javobgar yoki uchinchi shaxs sifatida jalb qilina olmaydilar, chunki ular mehnat ishlarini dastlabki hal qiluvchi organlar bo'lib ko'riladilar. Hech qanday taraf bilan nizoli huquqiy munosabatda bo'lmaydilar.

Korxonaga etkazilgan mulkiy zararni undirish to'g'risidagi ishlarni hal qilishga sud zararning faqat xodimning aybi bilan etkazilmaganligini, balki zarar etkazilishda ish beruvchining ham aybi borligini aniqlasa, zarar etkazilishda aybdor bo'lgan mansabdor shaxslarni ham ishga qo'shimcha javobgar sifatida ishtirok etishga jalb qilish to'g'risidagi masalani hal qilishi kerak. Bu to'g'ridagi tushuntirishlar O'zbekiston Respublikasi Oliy Sui Plenumining 1990 yil 14 dekabrda va unga kiritilgan qator o'zgartirish va qo'shimchalar bilan chiqargan qarorida berilgan. Yuqorida aytganimizdek, umumiy qoida bo'yicha da'vogar buzilgan huquqining yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatining himoya qilinishi to'g'risida sudga murojaat qilgan shaxs bo'ladi. Fuqarolik ishini qo'zg'atish tashabbusi kimga tegishli bo'lishidan, ya'ni xodimga, ish beruvchiga yoki prokurorga tegishli bo'lishidan qat'iy nazar, ish bo'yicha da'vogar mehnat nizolarini ko'ruvchi komissiyaga yoki sudga o'z talabi bilan murojaat qilgan xodim hisoblanadi, javobgar esatlab yuzasidan nizolashuvchi korxonada hisoblanadi.

5-§. Ishga tiklash yoki xodimni oldingi vazifasiga qo'yish to'g'risidagi ishlar bo'yicha uchinchi shaxslarning ishtiroki

Mehnat nizolarini sudga ko'rishni yana boshqa xususiyati ham borki, u ham bo'lsa, boshqa ishda ishtirok etuvchi sub'ektlardan mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslarni ishtirok etmasligi va bunday ishlarda ayrim

hollarda mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar da`vo talablarini predmetiga nisbatan talab qo`ymasa ham, biroq, noto`g`ri bo`shatilgan yoki boshqa ishga o`tkazilgan xodimlarni ishga tiklash yoki oldingi vazifalariga qo`yish to`g`risidagi ishlar bo`yicha sud o`z tashabbusi bilan ishdan bo`shatishga yoki boshqa ishga o`tkazishga buyruq bergan mansabdor shaxsni javobgar tomonidan uchinchi shaxs sifatida ishtirok etishi uchun jalb qilishi mumkin. Sud ishdan bo`shatish yoki boshqa ishga o`tkazish ochiqdan-ochiq qonunga xilof bo`lganligini aniqlasa, u shu protsessning o`zida aybdor mansabdor shaxsga davlat muassasasi, korxonasi, tashkilotning ishdan bo`shatilgan xodimi majburan bekor yurgani uchun haq to`lashi yoki ish haqidagi farqni to`lashi natijasida ko`rgan zararlarini qoplash majburiyatini yuklashi lozim. Uchinchi shaxslarni mehnat ishlarida ishtirok etilishi haqida O`zbekiston Respublikasi Oliy sudining 1998 yil 17 apreldagi «Sudlar tomonidan mehnat shartnomasi (kontrakt)ni bekor qilishni tartibga soluvchi qarorlarni qo`llanish haqida»gi Plenum qarorida berilgan¹. Bunday hollarda mansabdor shaxsdan undirilgan summaning miqdori mehnat haqidagi qonunlar bilan belgilanadi (FPKning 259-moddasi).

Korxonada, muassasa va tashkilotlarning ma`muriyati tomonidan ishdan noto`g`ri bo`shatilgan yoki boshqa ishga ko`chirilgan xodimni ishga yoki avvalgi vazifasiga qayta tiklash to`g`risida chiqarilgan hal qiluv qarori bajarilmagan taqdirda, sud korxonada, muassasada, tashkilotlarda xodimning majburan bekor yurgan vaqti uchun ish haqi undirish to`g`risida yoki noto`g`ri boshqa ishga ko`chirilgan xodimga hal qiluv qarori chiqarilgan kundan boshlab, to uni ijro etish uchun o`tgan vaqtdagi ish haqi tafovutini to`latib olishi to`g`risidagi masalani hal etishi mumkin.

Ayni vaqtda sud chiqargan hal qiluv qarorining ijro etilmaganligi haqida xodimga pul summasi to`lanishi hisobiga kelib chiqqan zararlar korxonada, muassasada, tashkilotning da`vosi bo`yicha sudning hal qiluv qarorini bajarmaslikda aybdor bo`lgan mansabdor shaxslardan bunday hollarda undiriladigan pulning miqdori mehnat haqidagi qonunlar bilan belgilanadi (FPKning 259-moddasi, Mehnat kodeksining 273-274-moddalari).

Shu tartibda qonun ishdan noto`g`ri bo`shatilgan yoki noto`g`ri ko`chirilgan xodimlarni mansabga yoki ishga tiklash to`g`risidagi ishlarni ko`rishda mustaqil talablar arz qilmagan uchinchi shaxslarning ishda ishtirok etishlarining ikki muhim xususiyatini: 1-dan, javobgarining (korxonaning) manfaatlari yuzasidan uchinchi shaxsga (aybli mansabdor shaxsga) nisbatan regress da`vosini qo`zg`atish va 2-dan, bu da`voni asosiy da`vo bilan bir vaqtning o`zida ko`rish mumkinligini belgilaydi. Ammo mansabdor shaxsni ishga javobgar tarafidagi uchinchi shaxs sifatida ishga jalb qilmasdan regress da`voni hal qilishga yo`l qo`yilmaydi. Mansabdor shaxs sudning (yoki ish sudda ko`rishga tayyorlanishi davrida sudyaning) ajrimi bilan ishda ishtirok etishga jalb qilinishi va FPKning 160-moddasida ko`rsatilganidek, ishning ko`rilishi kuni to`g`risida albatta xabardor qilinishi kerak.

Ishga tiklanish to'g'risida xodim tomonidan da'vo qo'zg'atilganida javobgar (korxonalar) tarafida turib, uchinchi shaxs sifatida ishda qatnashishga jalb qilinadigan mansabdor shaxs bir vaqtning o'zida regress da'vosi sudning tashabbusi bilan manfaatdor tashkilot tomonidan, bunday da'voning qo'zg'atish-qo'zg'atilmasligidan qat'iy nazar, ya'ni asosiy da'vo bo'yicha javobgar tomonidan da'vo qo'zg'atilgan bo'lish-bo'lmasligidan qat'iy nazar ko'riladi. Mehnat ishida uchinchi shaxs sifatida ishtirok etuvchi mansabdor shaxs bunday ish yuzasidan vakil bo'la olmaydi. Tashkilotning regress da'vosi sudning tashabbusi bo'yicha hal qilinmagan hollarda bunday da'vo prokuror tomonidan qo'zg'atiladi. Yetkazilgan zarar faqat mansabdor shaxsning aybi borligi aniqlangandagina undirilishi mumkin. Moddiy javobgarlikka xodimni noto'g'ri bo'shatishda yoki boshqa ishga o'tkazishda bevosita aybli bo'lgan shaxslar tortiladi. Binobarin, uchinchi shaxslar sifatida faqat bir shaxsgina jalb qilinmasdan, xodimning noto'g'ri bo'shatilishi yoki o'tkazilishida aybli bo'lgan konkret shaxsni belgilash uchun bir necha shaxslar ham jalb qilinishi mumkin.

FPKning 259-moddasi xodimlari noto'g'ri bo'shatish bilan ko'rashishga, mehnatkashlarning manfaatlarini, shuningdek mansabdor shaxslarning noto'g'ri harakatlari tufayli zarar ko'rgan tashkilotlarini mulkiy huquqlarini himoya qilishga, qonunchilikni yanada mustahkamlashda va qonunlarga hurmatda bo'lish ruhida tarbiyalashga qaratilgan.¹

Mehnatga oid fuqarolik ishining to'g'ri hal qilinishi ish yuzasidan aniqlanishi lozim bo'lgan faktlarning holisona ravishda va to'la belgilanishiga bog'liqdir. har qaysi mehnat ishi bo'yicha aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar doirasi nizoli huquqiy munosabatning mazmuniga va da'vog'ar tomonidan arz qilingan talablarning mohiyatiga qarab belgilanadi. Jumladan, shtatning qisqartirilishi munosabati bilan ishdan bo'shatilgan xodimlarni ishga tiklash to'g'risidagi da'volarni hal qilishda, sud darhaqiqat shtat qisqartirish bo'lgan-bo'lmasligini, bunday hollarda ish beruvchi mazkur asoslar bo'yicha xizmatchilarni bo'shatishni tartibga soladigan mehnat qonunchiligi normalariga rioya qilingan-kilinmaganligini aniqlaydi.

Mehnat intizomini buzish bilan bog'liq bulagn ishlarni ko'rishda sudlar, xodim tomonidan mehnat intizomini buzadigan xatti-harakatlarni qilingan-kilinmaganligi, xodimga nisbatan ta'sir etish choralarining ish beruvchi tomonidan qo'llangan-qo'llanmaganligini belgilash talab qilinadi.

Xodimlar tomonidan korxonalar, muassasa va tashkilotga etkazilgan zarar haqini ulardan undirish to'g'risidagi ishlarni ko'rishda xodimlarni moddiy javobgarlikka tortilishlari asoslarini va shartnomalarini, shuningdek undirilishga tegishli summalarni belgilaydigan holatlarni har tomonlama aniqlashi lozim.

Sud bunday ishlarni hal qilishda mehnat nizolarini ko'ruvchi komissiya ko'rilayotgan nizo tug'rsida chiqarilgan qarorlarni e'tiborga olsa ham, ammo bu qarorlar sud uchun majburiy emas. Sud ishni ko'rishda nizoli huquqiy

munosabatning barcha holatlarini, taraflarning haqiqiy huquq va burchlarini to'la va to'g'ri aniqlash bilangina chegaralanmasdan, balki nizoning mehnat nizolarini ko'ruvchi komissiya va kasaba uyushmalarida ko'rilishi tartibga rioya qilinganligini tekshiradi. Bu tartibning jiddiy ravishda buzilishi, masalan, arz qiluvchining ishtirokisiz ishning ko'rilishi qabul qilingan qarorning bekor qilinishiga sabab bo'lishi mumkin.

6-§. Mehnat ishlari bo'yicha kelishuv bitimi

Da`vogar da`vodan har qachon voz kechishga haqli bo'lgani tufayli mehnat ishining sudda ko'rilishi kelishuv bitimi bilan tugatilishi mumkin. Bunday hollarda sud kelishuv bitimi xodimning mehnatga oid huquqlarini va korxonaning manfaatlarini buzilishga qaratilmaganligini diqqat bilan tekshirishga majbur. Jumladan, noto'g'ri bo'shatilgan yoki boshqa ishga ko'chirilgan xodimlarni ishga tiklash yoki avvalgi mansablariga qo'yish to'g'risidagi kelishuv bitimlari, agar bunday bitimlar xodimning g'ayriqonuniy bo'shatilishida aybli bo'lgan mansabdor shaxsni tashkilotga etkazilgan zararni to'lash burchidan ozod qilinadigan bo'lsa, tasdiqlanmasligi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 1998 yil 17 apreldagi Plenum qarorida xodimning iltimosiga ko'ra, sud hal qiluv qarorini chiqarishda mehnat shartnomasini bekor qilish ta'rifini o'z tashabbusiga ko'ra, taraflarning kelishuviga ko'ra o'zgartirish bilan cheklanishi mumkinligi ko'rsatib o'tilgan.¹

Mehnatga oid ko'p masalalar mehnat qonunchiligi bilan tartibga solinganligi tufayli bunday masalalar yuzasidan kelishuv bitimlarini tuzish kamdan-kam uchraydi.

7-§. Mehnat ishlari bo'yicha sudning hal qiluv qarorlari

Mehnat ishlari yuzasidan chiqariladigan hal qiluv qarorlarining mazmuniga ham alohida e'tibor berilishi kerak. qarorda odatda tubandagi holatlar ko'rsatiladi.

Qarorning bayon qilish qismida, agar nizo mehnat nizolarini ko'ruvchi komissiyada ko'rilsa, nizoning bu organlarda ko'rilishi natijalari ko'rsatiladi. Korxonada bunday organlar bo'lmasa, ularning yo'qligi qarorda aks ettiriladi. Agar ish FPKning 259-moddasiga binoan mansabdor shaxs jalb qilinib, ko'rilgan bo'lsa, bu to'g'rida qarorning barcha qismlarida yozilishi kerak. Jumladan, qarorning bayon qilish qismida uning bergan tushuntirishlari qisqacha ifodalanishi, asoslash qismida sudning qanday xulosalarga kelganligi, qaror qismida esa uning korxonaga to'lashi lozim bo'lgan zarar haqining miqdori aniq belgilab ko'rsatilishi kerak.

Ishga tiklanish to'g'risidagi da`vo qanoatlantirilganligi qarorda xodimning qaerga va ishga (mansabga) tiklanishi lozimligi ko'rsatiladi. Uning noiloj bekor yurgan vaqti uchun korxonadan undiriladigan summaning miqdori belgilanadi.

Agar korxonaning qaytadan tashkil topgani yoki tugatilishi sababli xodimni avvalgi ishga tiklash mumkin bo'lmasa, sud bekor yurgan vaqti uchun qonunda ko'rsatilgan o'rtacha ish haqi undiriladi. Bu to'g'rida Mehnat kodeksidagi qoidalar hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining yuqorida bayon etilgan Plenum qarorida rahbariy tushunchalar berilgan. Mehnat shartnomalarini tuzish, o'zgartirish va bekor qilishni tartibga soluvchi qonunchilikni sudlar tomonidan tadbiq etilishi to'g'risidagi qarorida xodimdan undirilishi lozim bo'lgan zarar haqining miqdori zararining qanday konkret holatda etkazilganligini, shuningdek xodimning moddiy ahvoli e'tiborga olinib, sud tomonidan kamaytirilishi mumkin.

Sud qonunda ko'rsatilmagan asoslar bo'yicha xodimning ishdan bo'shatilishini to'g'ri deb topolmaydi. Agar sud xodimning ishdan bo'shatilishi sababining ifodalanishi noto'g'ri va mehnat to'g'risida amalda bo'lgan qonunchilikka xilof deb topsa, uni o'zgartirib, qarorida ishdan bo'shatilish asosini qonunga muvofiq ravishda ko'rsatishi kerak.

Sud hal qiluv qarorining qaror qilish qismida aybli mansabdor shaxsdan tashkilot uchun undiriladigan summaning aniq miqdori hal qiluv qarorida darhol ijro etish to'g'risidagi (FPKning 219-moddasi, Mehnat kodeksining 273-moddasi) masalalarni ko'rsatishi lozim.¹

Mehnatga oid da'vo qanoatlantirilgani holda hal qiluv qarorining qaror qismida javobgardan davlat foydasiga undiriladigan sud xarajatlarning summasi va qarorning ijro etish tartibi ko'rsatiladi.

8-§. Mehnat ishlari bo'yicha sud hal qiluv qarorlarining ijro etilishi xususiyatlari

Mehnatga oid fuqarolik ishlarining muhim protsessual xususiyatlaridan yana biri ishga tiklash va ish haqini undirish to'g'risidagi ishlar bo'yicha chiqarilgan hal qiluv qarorlarining darhol ijro etilishi mumkinligidir. Shuning o'zi bilan fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya etishga qo'shimcha kafolat beriladi.

Hal qiluv qarorning darhol ijro etilishida sudya qaror chiqarilgan zamon undiriladigan summani undirish uchun da'vogarga ijro varaqasini berishi lozim.

Ishga tiklash to'g'risidagi qarorning ijro etilishi kechiktirilganida, qaror chiqarilgan kundan e'tiboran, to uning ijro etilishi kunigacha kechiktirilgan barcha vaqt uchun xodim foydasiga, uning oladigan o'rtacha ish haqi yoki ish haqining farqi undirilishi kerak. Bu masala hal qiluv qarorini chiqargan sudning ajrimiga muvofiq hal qilinadi.

Sud xodimni ishga tiklash to'g'risidagi qaror ijro etilmagan vaqtda unga ish haqi to'lanishi to'g'risidagi masalani hal qilish bilan o'z tashabbusi bo'yicha shu protsessning o'zida qarorni ijro etmaslikka aybdor bo'lgan mansabdor shaxsning zararining korxonaga to'lanishi tugrsidagi masala ham keyinchalik korxonaning yoki prokurorning regress (qaytarma) da'vosi bo'yicha hal

qilinishi mumkin. Korxonaning mansabdor shaxsga nisbatan regress talabi qanoatlantirilgani holda ijro varaqasi sud tomonidan bevosita sud ijrosiga topshiriladi va bu to'g'rida haq undiruvchi (korxonaga) xabardor qilinadi (Mehnat kodeksining 273-moddasi).

Mehnat nizolarini ijro bosqichida ham uning o'ziga xos xususiyati ham mavjud. Ijro aktlarini ijro qilish haqidagi qonunga muvofiq xodimlarning mehnatga oid huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan talablari birinchi navbatda qanoatlantiriladi.

O'zlashtirish savollari

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va Mehnat kodeksida fuqarolarning mehnat huquqini himoya qilish.

2. Mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizoli ishlarning taalluqligi va sudlovligi.

3. Bevosita sudlarda ko'rilishi lozim bo'lgan mehnat nizolari.

4. Mehnatga oid nizoli ishlarda taraflar va ularning o'ziga xos xususiyatlari.

5. Ishga tiklash to'g'risidagi ishlar bo'yicha uchinchi shaxslarning ishtirok etish xususiyatlari.

6. Mehnat ishlari bo'yicha dalillarni taqdim qilish majburiyati.

7. Mehnatga oid bo'lgan ishlarni ko'rish muddatlari.

8. Mehnat ishlari yuzasidan sudning hal qiluv qarori. Hal qiluv qarorini ijro etish xususiyatlari.

21-Mavzu. UY-JOYGA DOIR HUQUQIY MUNOSABATLARIDAN KELIB CHIQADIGAN ISHLARNI SUDDA KO'RISHNING PROTSESSUAL XUSUSIYATLARI

Tayanch iboralar: uy-joyga doir huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizoli ishlarning tushunchasi va ahamiyati, uy-joyga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarning taalluqliligi va sudlovligi, uy-joyni xususiyashtirish to'g'risidagi ishlar, kooperativ uy-joylar bilan bog'lik bo'lgan nizolar, uy-joylarni ekspertizadan o'tkazish, ishni sudda ko'rishga tayyorlash va sudda muhokama qilish, ish bo'yicha sud hal qiluv qarori va uni ijro etish xususiyatlari.

Dars o'tish vositalari: mavzu nazariy ahamiyat kasb etishi bilan uni asosan ma'ruza tarzida O'zbekiston Respublikasining protsessual qonunchiligi haqida, Prezident asarlarida sud -huquq sohasini isloh qilishga qaratilgan vazifalarni hamda Oliy sudning Plenum qarorlarining - normalarini sharhlash orqali yoritiladi hamda zaruratga qarab savol-javoblar uyushtiriladi.

Dars o'tish usullari: darsning mohiyatini ijtimoiy-gumanitar fanlar yutuqlaridan foydalangan holda yorqin tahlil qilish va seminarda har bir talabani fikrini eshitish bilan yakunlanadi.

Uy- joyga doir huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar fuqarolik sud ishini yuritish tartibida ko'rib chiqiladi. Ushbu nizolarni xususiyatiga ob'ektiga va sub'ektiga qarab ikki turga bo'lish mumkin:

- davlat uy- joy fondidan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan nizolar:
- xususiy uy-joy fondi bilan bog'liq nizolar.

Masalan, orderni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi, uy-joy kvartiraga etkazilgan zararlarni qoplash, turarjoydan qonunga xilof ravishda foydalanish, turar joyni o'zboshimchalik bilan egallash, uy -joyni bo'lish, uy-joyni o'zboshimchalik bilan qurish va boshqa shu kabi ishlar bevosita fuqarolik sudlariga talluqlidir.

Fuqaroni boshqa tura rjoy bermasdan ko'chirish, agr ijaraga oluvchi va uning oila a'zolari yoki u bilan doimiy yashayotgan fuqarolar turar joyni buzayotgan yoki shikastlanayotgan yoki undan o'z maqsadi bo'yicha foydalanilmayotgan bo'lsalar, bunda ogohlantirishlar va jamoat ta'sir choraldari natija bermayotgan bo'lsa, shuningdek, shartnomada uzoqroq muddat belgilanmagan holda ijaraga oluvchi tura rjoy haqini 6 oy to'lamagan bo'lsa, qisqa muddatli ijarada esa shartnomada belgilangan to'lov muddati o'tganidan keyin ikki martadan ortiq to'lanmagan holda ijaraga beruvchi yoki o'zga manfaatdor shaxslarning talabi bo'yicha amalga oshiriladi.

Uy- joyga oid nizolar fuqarolik sud ishlarini yurituvda umumiy asoslarga muvofiq da'vo arizasini berish yo'li bilan qo'zg'atiladi. FPKning 158-moddasiga muvofiq ishlar suda ko'rishga tayyorlanadi.

Uy- joyga oid nizolarni hal qilishda sudlar O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenum qarorlari asosida ishni to'g'ri va o'z vaqtida hal qilib berishlari lozimdir.

Turar joyga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan hamma nizolar fuqarolik huquqiy nizolar bo'lib, asosan sudlarga taalluqlidir. Istisno sifatida O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksining 104-113-moddalarida ko'rsatilgan, ya'ni turar joylar o'zboshimchalik bilan egallangan hollarda uyning emirilishi xavfi bo'lgan hollar bunday uylarda yashovchilarni xizmat bilan bog'liq bo'lgan turar joylardan, yotoqxonalaridan va mehmonxonalardan ko'chirish to'g'risidagi ishlar sudlarga taalluqli bo'lmasdan, ma'muriy organlarga, ya'ni proko'ratura organlariga taalluqli bo'ladi (Uy-joy kodeksining 70-moddasi).

Qoida bo'yicha ma'muriy tartibda ko'chirish uchun prokurorning sanksiyasi (qarori) talab qilinadi. Prokuror ma'muriy tartibda ko'chirish to'g'risida sanksiya bermagan taqdirda manfaatdor tashkilotlar, muassasalar, korxonalar turar joyda yashovchilarni ko'chirish to'g'risida sudga murojaat qila olmaydi.

Fuqarolik kodeksining 615-moddasiga asosan taraflarning kelishuvi bilan uy-joyni ijaraga berish shartnomasi bekor qilinishi qonunda o'z ifodasini topgan. Bu qoidaga ko'ra turar joylarni foydalanish uchun berish to'g'risidagi ba'zi da'volarni, chunonchi: fuqarolik huquqiy majburiyatlariga asoslangan talablar to'g'risida, masalan, avval egallagan turar joyning kapital ta'mirdan so'ng qaytarib berilishi, uy-joyning bo'zilishi munosabati bilan kvartira berilishi va shu kabi boshqa hollarda qo'zg'atilgan da'volarni sudlar ko'rishga haqlidir.

Qonunda belgilangan tartibni bo'zib, turar joyni egal-lash to'g'risidagi nizolar ham sudlarga taalluqli bo'lib, sud berilgan orderni haqiqiy emas deb topishi mumkin (Uy-joy kodeksining 46-moddasi).

Davlat uy-joy fondidagi turar joyni xususiyashtirishni amalga oshirishda fuqaro va mulkdorlarning huquqini himoya qilish munosabati bilan vujudga keluvchi nizolarni sudlarga taalluqli bo'lishi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1997 yil 2 maydagi "Xususiyashtirilgan turar joylarga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf qilish bilan bog'liq ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi qarorida ko'rsatilgan.¹

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi "Imoratlarga bo'lgan shaxsiy mulk huquqi haqidagi ishlar bo'yicha sud praktikasi to'g'risida" chiqarilgan qarorida o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarga nisbatan egalik huquqini belgilash to'g'risidagi da'volarning sudlarga taalluqli bo'lmasligi tushuntiriladi.

Fuqarolar bilan turar joy ko'rish kooperativlari o'rtasidagi nizolar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi tomonidan berilgan tushuntirishga ko'ra turar joy *ko'rish* kooperativ a'zolarining umumiy majlisi (vakillar majlisi) hal qilinadigan masalalar bo'yicha sudlarga taalluqli bo'lmaydi. Masalan, kooperativ a'zolari o'rtasida turar joylarni taqsimlash kooperativga kirish

¹ *Каранг:* Шонун номи билан. Ўзбекистон Республикаси Олий судининг Ахборотномаси. 1997, 3-сон, 29-бет. Бу Пленум қарорига 1998 йил 1 сентябрдаги Пленумда ўзгартиришлар киритилган.

va pay badallarining miqdorini belgilash, kooperativ a`zorigiga qabul qilish to`g`risidagi ishlar sudga taalluqli bo`lmaydi.

Kooperativ a`zolari umumiy majlisning qaroriga binoan berilgan turar joyni foydalanish uchun olish huquqi b`zilgani holda, kooperativ a`zolarining bu tufidagi da`volari sudlarga taalluqli bo`ladi (Uy-joy kodeksining 99,103-moddalari).

Turar joy ko`rish kooperativi bilan kooperativ a`zolari o`rtasidagi, kooperativ a`zolari bilan ularning oila a`zolari o`rtasidagi fuqarolik huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan boshqa nizolar ham, masalan, joyni ayirboshlash, kooperativ a`zolidan chiqarish to`g`g`risidagi va shu kabi boshqa ba`zi nizolar sudlarga taalluqli bo`ladi.

Agar kooperativ a`zolarining umumiy majlisi turar joyni ayirboshlovchi shaxsni kooperativ a`zorigiga qabul qilishga rozi bo`lsa-yu, hokimiyat ayirboshlash uchun ruxsat bermasa, bunday holda ham kooperativ a`zosining egallab turgan turar joyini boshqa turar joyga ayirboshlash to`g`risidagi nizo sudlarga taalluqli bo`ladi.

O`zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksining 106, 112-moddalar, turar joy ko`rish kooperativi a`zolidan chiqarish bilan bog`lik bo`lgan nizolarning turlari sud organlari tomonidan hal qilinadi.

O`zlashtirish savollari

1.Uy-joyga doir huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizoli ishlarning tushunchasi va ahamiyati.

2.Uy-joyga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarning taalluqliligi va sudlovligi.

3.Uy-joyni xususiylashtirish to`g`risidagi ishlar. Kooperativ uy-joylar bilan bog`lik bo`lgan nizolar.

4.Uy-joylarni ekspertizadan o`tkazish.

5.Ishni sudga ko`rishga tayyorlash va sudga muhokama qilish.

6.Ish bo`yicha sud hal qiluv qarori va uni ijro etish xususiyatlari.

22-Mavzu. DAVLAT ORGANLARI VA BOSHQA ORGANLAR, SHUNINGDEK MANSABDOR SHAXSLARNING HATTI-HARAKATLARI (QARORLARI) USTIDAN BERILGAN SHIKOYAT VA ARIZALAR BO'YICHA ISH YURITISH

Tayanch iboralar: Davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan beriladigan shikoyatlarga oid bo'lgan ishlarning turlari, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan shikoyatlar bo'yicha ishlar, sudga shikoyat qilinishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlar (qarorlar), sudga shikoyat bilan murojaat etish uchun asoslar va muddatlar, saylov komissiyalarining xatti-harakat (qaror)lari ustidan berilgan shikoyatlarni ko'rish muddati va tartibi, notarial harakatlar yoki bunday harakatlarni bajarishni rad etganlik ustidan shikoyat berish, fuqarolik holati aktlarini qayd etishdagi noto'g'riliklar ustidan sudga shikoyat berish tartibi, prokurorning huquqiy hujjatni g'ayriqonuniy deb topish haqida sudga ariza berish uchun asoslar.

Dars o'tish vositalari: mavzu nazariy ahamiyat kasb etishi bilan uni asosan ma'ruza tarzida O'zbekiston Respublikasining protsessual qonunchiligi haqida, Prezident asarlarida sud -huquq sohasini isloh qilishga qaratilgan vazifalarni hamda Oliy sudning Plenum qarorlarining - normalarini sharhlash orqali yoritiladi hamda zaruratga qarab savol-javoblar uyushtiriladi.

Dars o'tish usullari: darsning mohiyatini ijtimoiy-gumanitar fanlar yutuqlaridan foydalangan holda yorqin tahlil qilish va seminarda har bir talabanning fikrini eshitish bilan yakunlanadi.

Fuqarolik sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonun hujjatlarida, jumladan Fuqarolik Protsessual kodeksining 2-moddasida belgilanganidek, sudlar da'vo ishi tartibida yuritiladigan ishlardan tashqari idoralar va mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan beriladigan shikoyatlarni ham, alohida ish yuritish tartibida hal qilinadigan ishlarni ham ko'radilar.

Davlat idoralari va boshqa idoralar, shuningdek mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan beriladigan shikoyatlarni faqat qonunda to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilgan hollardagina sudlarga taalluqli bo'ladi.

Umumiy qoida bo'yicha, idoralar va mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari)ga beriladigan shikoyatlar asosan ma'muriy tartibda ish yuritish qoidasiga amal qilgan holda ish ko'riladi.¹ Amaldagi fuqarolik protsessual kodeksida bu turkumga kiradigan ba'zi ishlarning hal etilishini sudning vakolatiga kiritilganligini va uning ish ko'rish doirasini kengayganini ko'ramiz, jumladan, bu masalalarga oid FPKning uch kichik bo'lim ajratilib, uni davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek mansabdor shaxslarning xatti-harakat (qaror)lari ustidan berilgan shikoyat va arizalar bo'yicha ish yuritish

deb nomlanib, umumiy qoida deb nomlangan 29-bobda davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek mansabdor shaxslarning xatti-harakat (qaror)lari ustidan berilgan shikoyatlarga oid ishlar yoritilib, bu ishlarga: 1-dan, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlari ustidan shikoyat berish; 2-dan, notariusning, fuqarolik holati aktlarini qayd qilish organining muayyan harakatlarini bajarishni rad etganligi yoki noto'g'ri bajarilganligi ustidan shikoyat berish; 3-dan, prokurorning huquqiy hujjatning g'ayriqonuniy deb topish to'g'risidagi arizasini ko'rish bilan bog'liq ishlarni ko'rib hal etish belgilangan (FPKning 264-moddasi).

Fuqarolarning ishtiroki bilan bo'ladigan bunday ma'muriy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni ko'rib hal etishning sud tartibi sudsiz ma'muriy tartibda ko'riladigan ishlarga nisbatan muayyan ustunliklarga ega bo'lish nizolarning to'g'ri hal qilinishiga katta kafolatlar yaratilganligini, fuqarolar, davlat va boshqa idoralarning huquq ham manfaatlarini jiddiy qo'riqlanishi bilan farqlanadi.

Idoralar va mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatdar yuzasidan kelib chiqadigan ishlar fuqarolik sud ishlarini yuritishning umumiy qoidalari bo'yicha, ammo ularning ayrim xususiyatlarini e'tiborga olgan holda sudda ko'riladi. Bunday ishlar ma'muriy huquqiy munosabatlardan kelib chiksa ham, biroq qonunda ko'rsatilgan hollarda sud tartibida ko'rishga taaalukli qilib belgilangan.

Qonunda ma'muriy huquqbuzarlik qoidalarini buzish uning huquqiy oqibatlarini organlar, mansabdor shaxslar va sud tomonidan bunday ishlarni ko'rib hal qilish tartibiga, undan keyin davlat organlari boshqa organlar, shuningdek mansabdor shaxslarning xatti-harakat (qaror)lari ustidan berilgan shikoyat va arizalar bo'yicha ish yuritish masalalari yoritiladi. Amaldagi qonunga asosan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror ustidan shikoyatni manfaatdor shaxs-jabrlanuvchi, shuningdek ularning qonuniy vakillari va advokatlar tomonidan berilishi mumkin. Shikoyat yuqori turuvchi organga (mansabdor shaxsga) yoki ma'muriy ishlar bo'yicha tuman (shahar) sudyasiga, sudyaning ma'muriy ishlar bo'yicha qarori ustidan esa, tuman (shahar) sudi raisiga yoki yuqori turuvchi sudga berish tartibi belgilangan.

Shikoyat ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan qaror qabul qilgan organ (mansabdor shaxsga) yoki bevosita sudga yuboriladi.

Ish yuzasidan qaror chiqargan organ (mansabdor shaxs) shikoyatni olgach, uni uch sutka ichida ish bilan birga shikoyatni ko'rib chiqish huquqiga ega bo'lgan organga (mansabdor shaxsga) yuboradi.

Qonunga ko'ra, qaror ustidan shikoyat bergan shaxs davlat boji to'lashdan ozod etiladi.

Shikoyat qarorning nusxasini olgan kundan boshlab o'n kun ichida beriladi. Agar shikoyat muddati uzrli sabablar bilan o'tkazilib yuborilgan taqdirda bu muddat shikoyatni ko'rib chiqishga vakolatli organ (mansabdor shaxs) tomonidan tiklanishi konunda nazarda tutilgan.

Prokuror, tuman (shahar) sudining ma`muriy ishlar bo'yicha sudyasining qarori ustidan-tuman (shahar) sudining raisiga yoki yuqori turuvchi sudga boshqa organ (mansabdor shaxs) qarori ustidan qaror chiqargan organga (mansabdor shaxsga) protest bildirishi mumkin.

Ma`muriy ish yuzasidan chiqarilgan qarorga nisbatan berilgan shikoyat va bildirilgan protestni vakolatli organlar (mansabdor shaxslar), shikoyat va protest tushgan kundan boshlab o'n kun muddat ichida ko'rib chiqishi lozim.

Berilgan shikoyat yoki bildirilgan protestni ko'rib chiqish paytida organ (mansabdor shaxs) chiqarilgan qarorni qonuniyligi, asosiligi va adolatliligini tekshirishi lozim.

Ma`muriy ishlar bo'yicha sudyaning qarori yuzasidan berilgan shikoyat yoki protest bo'yicha kassatsiya instantsiyasi sudida ish yuritish tartibi ayrim istesnolardan tashqari qonunda ko'rsatilgan qoidalarga asosan hal etiladi.

Kassatsiya instantsiyasi sudi ma`muriy ishlar bo'yicha sudyaning qarori yuzasidan berilgan shikoyatni yoki bildirilgan protest bo'yicha hal qiluv qarori chiqaradi va u chiqarilgan vaqtdan boshlab kununiy kuchga kiradi.

Ma`muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan ish yoki bildirilgan protestni ko'rib chiqish paytida organ (mansabdor shaxs) quyidagi qarorlaridan birini qabul qiladi.

1) chiqarilgan qarorni o'zgartirishsiz, shikoyat yoki protestni esa qanoatlatirmasdan qoldiradi;

2) chiqarilgan qarorni bekor qiladi va ishni qayta ko'rib chiqish uchun yuboradi;

3) chiqarilgan qarorni bekor qiladi va ishni yuritishni tugatadi;

4) jazo chorasini kuchaytirmagan holda uni ma`muriy huquq-buzarlik uchun javobgarlik to'g'risidagi normativ hujjatda nazarda tutilgan doirada o'zgariradi.

qarorni bekor qilish yoki o'zgartirish uchun organ (mansabdor shaxs) tomonidan ishni to'liq bo'lmagan holda yoki bir tomonlama ko'rib chiqilishi, organ (mansabdor shaxs) hal qiluv qarorining va qonunda qo'llangan normalari va ma`muriy javobgarlik nazarda tutilgan boshqa normativ hujjatlar ishning faktik holatlariga mos kelmasligi, ma`muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritilish qoidalarini jiddiy buzilishi, qo'llanilgan ma`muriy jazoning adolatsizligi asos bo'lib hisoblanishi lozim.

Shikoyat yoki bildirilgan protest bo'yicha qabul qilingan qarorlarida: u chaqirilgan vaqt va joy, shikoyat va protestni ko'rib chiqayotgan mansabdor shaxs, prokuror va boshqa ishtirok etayotgan shaxslar, protestni mohiyati, chiqarilgan qarorni asoslanishi qarorda ko'rsatilishi lozim.

Sudning hal qiluv qarorining nusxasi uning ish yuzasidan qaror chiqarilgan shaxsga uch kun muddat ichida yuboriladi. Protestni ko'rib chiqish natijalari to'g'risida esa prokurorga ma`lum qilinishi lozim.

Agar sud ma`muriy ishni ko'rishda tugatish bilan qarorni bekor qilish, undirib olingan pul summalarini va narsalarini qaytarib berishga, shuningdek ilgari qabul qilingan qaror bilan bog'liq chiqimlar cheklashlari bekor qilishga oid bo'ladi. Narsani qaytarib berish mumkin bo'lmagan hollarda uning qiymati,

basharti bu narsalar tadbirkorlik uchun muljallangan bo'lsa, boy berilgan foydasi ham qoplanadi.

Bunday ishlar qaytarma da'vo talablariga oid qoidalar asossiz tartibga solinadi.

Idoralar va mansabdor shaxlarning xatti-harakat (qaror)lariga berilgan shikoyatlar yuzasidan kelib chiqadigan va fuqarolik sud ishlarini yurgizish qoidalari bo'yicha ko'riladigan ishlar sudning yoki sudyaning yakka holda ma'muriy jazoga tortish to'g'risidagi ko'riladigan ishlarini, chunonchi mayda xuliganlik uchun qamoqqa olish yoki jarima solish to'g'risidagi, ichkilikka berilganlarni davolash uchun mehnat profilaktoriyalariga yuborish va shu kabi boshqa ishlarni ko'rishdan farq qilish kerak.

Yuqorida qayd qilingan ma'muriy huquqbuzarlik tufayli sudda ko'riladigan ishlarni idoralar va mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qaror)lariga berilgan shikoyatlar yuzasidan kelib chiqadigan ishlarni da'vo ishi tartibida ko'riladigan fuqarolik ishlariga ham aralashmaslik kerak. Agar ma'muriy akt bilan fuqarolik, mehnat yoki boshqa munosabatlardan kelib chiqadigan huquqlar buzilsa-bu holda ish da'vo ishini yuritish tartibida ko'riladi. Bunday ishlar, masalan, turar joy maydoniga beriladigan orderni haqiqiy emas deb topish, notarial organning ijro xati haqida nizolashish, mulkni xatlashdan arestdan chiqarish, fuqarolik holati dalolatnoma yozish daftarida otalikni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi, ma'muriy jazo berilishi haqidagi buyruqni bekor qilish va shu kabi boshqa da'volar ko'riladi. YUqorida ko'rsatib o'tilgan ishlarga nisbatan fuqarolik sud ishini qoidalariga hech qanday istisnolar va qo'shimchalar belgilanmagan.

Bunday ishlar da'vo ishini yuritish tartibida ko'riladi. Davlat yoki jamoat xo'jaliklarining ekinlarini poyxon qilish tufayli etkazilgan zararning to'lanishi to'g'risidagi fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish idoralarning qarori ixtiyoriy ravishda bajarmagan fuqarolarga nisbatan qo'zg'atiladigan da'volar ham da'vo ishini yuritish tartibida ko'riladi.

Sudga shikoyat berish uchun asos bo'lib davlat organlari boshqa organlar va mansabdor shaxslarning hay'at tarkibi (kollegial) tomonidan hamda rahbar xodimlarining yakka taribda amalga oshirilgan xatti-harakatlari natijasida;

Fuqarolarning huquqlari va erkinliklari buzilsa;

fuqaro yuqorida ko'rsatilgan idora va mansabdor shaxslarning harakatlari tufayli fuqaroning o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishga turli to'sqinliklar vujudga kelgan bo'lsa; Shuningdek fuqaro zimmasiga birorta g'ayriqonuniy majburiyat yuklatilishi yoki uning g'ayriqonuniy ravishda biror-bir javobgarlikka tortilishiga sabab bo'ladigan harakatlar (qarorlar) ham sudga shikoyat qilishini mumkin bo'lgan harakatlar jumlasiga kiradi (FPKning 266-moddasi).

Fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzadigan organlar va mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlarga oid ishlar Fuqarolik protsessual kodeksining 264-275-moddalarida ko'rsatilgan bo'lib har qanday xatti-harakatlar tushiniladi.

Bulardan mustasno tariqasida agar;

a) qonun hujjatarida binoan bunday ishlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining vakolatiga kiritilgan xatti-harakat (qaror)lar;

b) qonunda yoki boshqa huquqiy me'yorlarda tegishli xatti-harakatlar (qarorlar)ga nisbatan shikoyat qilish boshqa tartibi belgilangan xatti-harakat (qaror)lar sudlarga taalluqli bo'lmaydi, bu FPKning 267-moddasiga belgilangan.

Organlar va mansabdor shaxslarning xatti-harakat (qarorlar)lari ustidan beriladigan shikoyatlarga oid ishlar sudlovlik to'g'risidagi qoidalarga amal qilgan holda fuqaro o'zining yashab turgan joyidagi sudga yoki davlat organi yoki mansabdor shaxsning ish joyi joylashgan hududdagi (alternativ sudlovlik) sudga shikoyat bilan murojaat qilishga haqli.

Shikoyat bo'yicha sudyaning harakatlari organlar va mansabdor shaxslarning xatti-harakat (qaror)lari ustidan shikoyatlarga oid ishlarni qonunda ko'rsatilgan turkumdagi ishlariga tegishli bo'lib, bu qoidaga asosan sudya organlar va mansabdor shaxslardan zarur bo'lgan hujjatlarni talab qilishga hamda fuqaroning iltimosiga yoki o'zining tashabbusi bilan qilingan xatti-harakat (qaror)larining ijrosi sudda hal etgunga qadar to'xtatish masalasini ham hal etishga haqlidir.

Sud, bu umumiy qoidalarni FPKning 27-29-boblarida belgilangan ma'muriy huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan ishlarga ham tadbiq etishi lozim.

Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlarni va qarorlar yuzasidan shikoyat berish bilan bog'liq bo'lgan ishlarni yuritish FPKning 27 bobida belgilangan qoidalardir. Bulardan tashqari 1995 yil 30 avgustda qabul qilingan «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi hamda «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlari va qarorlari ustidan keltirilgan shikoyatlarni sudlarda ko'rish amaliyoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Plenumining 1996 yil 19 iyulidagi qarori bilan tartibga solinadi.¹

Bu huquqiy me'yorlarda shikoyat qilish uchun asoslar va boshqa qoidalar o'z ifodasini topgan. FPKning 269-moddasida shu turkumdagi ishlar yuzasidan shikoyat berish tartibi ko'rsatilgan. Bu qoidada fuqaro o'zining huquqlarini va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar (qarorlar) ustidan bevosida sudga murojaat qilishga agar yuqori idora, mansabdor shaxs shikoyatni bir oy muddatda ko'rib chiqmasa yoki shikoyatga rad javobini olsa, fuqaro shikoyat bilan sudga murojaat qilishga haqli bo'la oladi.

Davlat organlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoa birlashmalari, mansabdor shaxslarning xatti-harakat (qaror)lari ustidan beriladigan shikoyatlar FPKning 148-149-moddalarida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq rasmiylashtirilishi va O'zbekiston Respublikasining «Davlat boji haqida»gi qonuni va Vazirlar

mahkamasining «Davlat boji stavkalari haqida»gi qarorida belgilangan tartibda davlat boji undirilishi yuqoridagi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Plenum qarorini 12-bandida ko'rsatilgan.¹

Shikoyat berish huquq manfaatlari poymol qilingan fuqaro yoki uning vakili, shuningdek fuqaroning iltimosiga asosan vakolat berilgan jamoat birlashmasining, mehnat jamoasining vakili tomonidan berilishi mumkin.

Shikoyat qilish turli sohalarda uchrashi mumkin. Masalan, boladan alohida yashayotgan ota yoki ona, tarbiya, davolash, aholini ijtimoiy himoyalash muassasalari va boshqa shunga uxshash muassasalardan o'z bolasi to'g'risida axborot olish huquqiga ega ekanligi, agar ota (ona) tomonidan bolaning hayoti va sog'lig'i uchun xavf-xatar bo'lganda ularga axborot berishni rad etganda manfaatdor shaxs rad etish haqidagi qaror ustidan sudga shikoyat qilish mumkinligi belgilangan.²

Amaldagi Fuqarolik-protsessual kodeksida harbiy xizmatchilar o'zlarining huquqlari va erkinliklarini buzgan harbiy boshqarma organlari va harbiy mansabdor shaxslarning xatti harakatlari (qarorlari) ustidan qonunda ko'rsatilgan hollarda harbiy sudga shikoyat bilan murojaat qilish huquqi belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Plenum qarorida harbiy xizmatchi bo'lmasada, harbiy boshqaruv organlarida egallab turgan lavozimi bo'yicha harbiy xizmatchilarning huquqlari va erkinliklariga taalluqli masalalarni hal etish vakolatiga ega bo'lgan shaxslarning harakatlari va qarorlari ustidan ham harbiy sudga shikoyat qilishi mumkinligi ko'rsatilgan. Bulardan tashqari bu Plenum qarorining

4-6-bandlarida, shikoyat qilish uchun asos bo'ladigan ayrim ishlar keltirilgan. Shuningdek jamoat tashkilotlari va birlashmalari, uy-joy ko'rish kooperativlari, xissadorlik jamiyatlari, kasaba uyushmalari va shu kasabalar uyushmasining umumiy majlis hamda ularning boshqaruv organlari va mansabdor shaxslarning qarorlari hamda sudga shikoyat qilinishi mumkinligi belgilangan.

Demak, harbiy xizmatchilar o'zlarining harbiy tartib qoidalarini bajarishda mansabdor shaxslari yoki harbiy boshqarmalarining qarorlari tufayli ularining huquq va manfaatlari poymol qilingan bo'lsa, yuqoridagi qonun va boshqa huquqiy me'yorla shu holatga ko'ra sudga shikoyat qilish imkoniyatidan foydalanish mumkinligi o'z ifodasini topgan.

Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlari va qarorlar ustidan shikoyat berish uchun muddatlarga amal qilgan bo'lishi lozim masalan, fuqaroga o'zining huquqlari va erkinliklarini buzilganligi ma'lum bo'lgan kundan e'tiboran uch oylik muddat belgilangan. Bunday turkumdagi ishlarni sud fuqarolik ishlarini sudga ko'rish bilan bog'liq umumiy kodalar asosida hal etadi.

Oliy sudning yuqoridagi Plenum qarorida agar sud shikoyatni ko'rish paytida harakati ustidan shikoyat qilinayotgan mansabdor shaxs ilgari

lavozimida ishlamayotgan bo'lsa, u holda sud fuqarolarning buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash vakolatiga ega bo'lgan tegishli organ, tashkiloti ishga jalb qilish to'g'risidagi masalani hal etishi, bordi-yu shikoyat qanoatlantirilgan taqdirda sul shu organ tashkilot rahbariga fuqaroning buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash majburiyatini yuklash mumkinligi ko'rsatilgan.

Sud shikoyati ko'rib chiqish yakuniy bo'yicha hal qiluv qarori chiqaradi.

Agar sud ishda to'plangan dalillariga asosan shikoyatni asosli ekanligi aniqlasa shikoyat qilingan xatti-harakat (qarorni) g'ayriqonuniy deb topadi va fuqaroning talabni qanoatlantirish masalasini hal etib uning uning buzilgan huquq va erkinliklarini tiklaydi va fuqaroni talabini qanoatlantirish majburiyatini yuklaydi. Unga nisbatan qo'llanilgan javobgarlik chorasini bekor qiladi yoki uning buzilgan huquqini boshqacha yo'l bilan tiklash masalasini hal etadi, aks holda shikoyatni qanoatlantirishni rad etish to'g'risida hal qiluv qarorini chiqaradi.¹

Qonunda belgilanganidek, hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgandan so'ng tegishli organga yoki mansabdor shaxsga shuningdek fuqaroga o'n kundan kechiktirmasdan hal qiluv qarorini nusxasini yuborilishi ko'rsatilgan. Tegishli manfaatdor shaxs esa, hal qiluv qarorini olgan kundan e'tiboran bir oy muddatda kechiktirmay ijrosi haqida sud va fuqaroga ma'lum qilishi lozim. Agar hal qiluv qarori belgilangan muddatda ijro qilinmagan taqdirda sud javobgar zimmasiga mulk yoki pul berish bilan bog'liq bo'lmagan muayyan harakatlarni bajarish majburiyatini yuklovchi ishni ko'rsatgan bo'lsa, talab qiluvchi bu harakatlarni javobgar hisobidan bajarishi va sarf qilgan xarajatlarini keyinchalik javobgardan undirib olishga haqlidir (FPKning 211-moddasi).

Hal qiluv qarorini boshqa hollarda bajarmaslik oqibatlarini FPKning 381-moddasida ko'rsatilgan huquqiy oqibatlar tug'dirishi mumkin.

Fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida sud ishlarni ko'rish chogida tegishli organlar va mansabdor shaxslarning faoliyatida jiddiy kamchiliklar aniqlansa, sud bu kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida xususiy ajrimlar chiqarib, vakolatli organlar va mansabdor shaxslarga yuborishi, agar jinoyat alomatlar mavjudligi aniqlansa proko'ratura organlarini xabardor qilishi lozim bo'ladi.

Sud amaliyotida saylov komissiyalarining harakatlari (qarorlari) ustidan beriladigan shikoyatlar juda kam uchraydigan ma'muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar turkimiga kirsa-da, bunday ishlar ham sudlarga taalluqli ekanligi belgiglangan. Saylov bilan bog'liq ishlar aksariyat hollarda uchastka komissiyalarida, tegishli hokimiyatlarda hal etiladi. Sud idoralarida bu turkumdagi ishlarni yuritish faqat qonunda ko'rsatilgan hollardagina ularga taalluqli bo'ladi (FPKning 272-moddasi).

Saylov o'tkazishda uchastka saylov komissiyalarining ahamiyati muhim o'rin to'tadi. Ular har bir saylovchini saylov ro'yxatiga to'g'ri kiritishlari darkor. Bu ishlar tuman (shahar) hokimiyat-larini roli beqiyos bo'lib, ular shu hududda

istikomat qiluvchi saylovchilarning ro'yxatlari va boshqa saylovga doir ma'lumotlar bilan saylov komissiyasini ta'minlashi va shular asosida ro'yxat tuzishi lozim. Fuqarolar saylov ro'yxati bilan tanishish uchun saylov uchastka komissiyasi binosiga taklif qilinadi. Har qanday O'zbekiston fuqarosi saylov komissiyasiga saylovchilari ro'yxatidagi xato va kamchiliklar to'g'risida arz qilishga haqlidirlar.

Fuqarolarning saylovchilar ro'yxatidagi noto'g'riliklari tushunchasiga, chunonchi: ro'yxatga kiritilmaslik, ro'yxatdan chiqarilganlik, familiyasi, ism va otaning ismi buzib yozilganlik va hokazo kiradi. Uchastka saylov komissiyasi saylovchining arizasini yigirma to'rt soat ichida ko'rib chiqishi lozim. Ro'yxatga noto'g'ri kiritilganlik to'g'risidagi va qonunda ko'rsatilgan boshqa masalalar hamda tegishli uchastka saylov komissiyasi tomonidan chiqargan qararlardan norozi tomon shu qaror ustidan tegishli saylov uchastkasi joylashgan tuman, shahar sudiga shikoyat berishlari mumkinligi qonunda ko'rsatilgan.¹

Sudda beriladigan bunday shikoyatga shikoyatchining arizasi rad qilinganligi to'g'risidagi uchastka saylov komissiyasining asoslantirilgan ma'lumoti ilova qilinadi.

Agar bu yozma ma'lumot shikoyat bilan birga taqdim etilmagan bo'lsa, sud uni tegishli uchastka saylov komissiyasidan talab qilib olishga majbur.

Demak, sud shikoyatni qabul qilishi uchun ariza beruvchi shaxs saylovchilar ro'yxatida bo'lgan noto'g'riliklarni tuzatish to'g'risida ilgari ariza bergan bo'lishi va saylov komissiyasi bu arizani rad qilgan bo'lishi kerak degan xulosa qilish lozim.

Bordi-yu fuqaro arizani avval saylov komissiyasiga bermasdan, sudiga shikoyat qilgan taqdirda sud arz qiluvchiga saylovchilar ro'yxatini tuzatishning qonun bilan belgilangan tartibini tushuntirib, shikoyatni tegishli uchastka saylov komissiyasiga yuborishga majbur.

O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisiga saylov o'tkazish to'g'risidagi qonunning 18-moddasida ko'rsatilganidek, Saylov komissiyasining qarorlari siyosiy partiyalarning organlari xokimiyat vakillik organlari, deputatlikka nomzodlar, ularning ishonchli vakillari, kuzatuvchilari, saylovchilar tomonidan yuqori saylov komissiyasiga yoki sudga qaror qabul qilingandan keyin o'n kun muddat ichida shikoyat qilishlari mumkin. Markaziy saylov komissiyasining qarori esa, qaror qabul qilingandan keyin o'n kun muddat ichida Respublika Oliy sudiga shikoyat qilinishi mumkin.¹

Amaldagi kodeksda saylov komissiyalarining xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat sudda uch kundan kechiktirmay ko'rib chiqilishi agar, saylov kuniga (masalan olti kun yoki undan kam) vaqt qolgan bo'lsa darhol ko'rib chiqishi belgilangan. SHikoyatni sud ochiq sud majlisida ariza beruvchini va tegishli saylov komissiyasining vakilini, shuningdek prokurorni

agar shikoyat ariza beruvchiga daxli bo'lmasdan boshqa fuqarolarga tegishli bo'lsa, o'sha fuqarolarni ham chiqargan holda ko'radi.

Ko'rsatilgan shaxslarning kelmasligi, agar sudda ishni ko'rish to'g'risidagi chaqiruv xati ularga topshirilgan bo'lsa, ishni ko'rishga to'sqinlik qilmaydi. Lekin sud bu shaxslarning shaxsiy bayonotlarini zarur deb topsa, ishni ko'rishni keyinga qoldiradi va ular qaytadan chaqiradi.

Sud saylov komissiyasining harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlar bilan bog'liq ishlarni prokurorning ishtirokida ko'radi.

Sudning saylov komissiyasining harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlari bo'yicha chiqargan hal qiluv qarori bu sohadagi kamchiliklarga o'zgartirish kiritishi uchun asos bo'ladi.

Binobarin, bu qaror chiqarilishi bilan darhol tegishli saylov komissiyasiga va arizachiga topshiriladi.

4-§. Notarial harakatlar yoki bunday harakatlarni bajarishni rad etganlik ustidan berilgan shikoyatlar to'g'risidagi ishlarni ko'rish

Amaldagi «Notariat to'g'risida»gi 1996 yil 26 dekabrda O'zbekiston Respublikasining qonunida va FPKning 273-moddasida ko'rsatilishicha, manfaatdor shaxs mansabdor shaxs bajarilgan notarial harakatlarni yoki fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish idoralari, xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar bajargan notarial harakatni bajarish rad etilganligini noto'g'ri deb hisoblasa, bu haqidagi u sudga shikoyat qilishga haqlidirlar.

Mansabdor shaxslar shikoyatni notarial kontora, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish idoralari, xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar turgan joydagi tuman (shahar) sudiga berishi mumkin.

Notariat to'g'risidagi qonunda Letsenziya berish rad etilganligi haqida chiqarilgan qaror ustidan ham sudga shikoyat berish belgilangan.¹

Notariat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi Letsenziya qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, adliya boshqarmalari tomonidan malaka komissiyalarining qarorlari asosida beriladi. Letsenziya berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan belgilab qo'yilgan. Letsenziya berish rad etganligi to'g'risidagi sudga qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, adliya boshqarmasining qarori olingan kundan boshlab bir oy ichida shikoyat qilishi mumkin.

Sudga mansabdor shaxslar tomonidan noto'g'ri tasdiqlangan vasiyatnomalar va vakolatnomalar to'g'risidagi yoki mazkur shaxslar notarial harakatlarni bajarishni kechiktirish yoki uni amalga oshirishni rad etganliklari haqidagi shikoyatlar tegishli bo'lishiga qarab, kasalxona va boshqa statsionar davolash profilaktika muassasasi, sanatoriy, keksalar va invalidlar uyi, ekspeditsiya, gospital, harbiy davolash muassasasi, harbiy qism, qo'shilma, harbiy o'quv yurti, qamoqxona joylashgan erdagi tuman (shahar) sudiga topshiriladi. O'zbekiston Respublikasi bayrogi ostida so'zib yuruvchi dengiz

kemasi yoki xavzalarida bo'lgan kema kapitani noto'g'ri tasdiqlangan vasiyatnoma to'g'risidagi yoki kapitan uni tasdiqlashni rad etganligi haqidagi shikoyatlar esa shu kema ro'yxatiga olingan port joylashgan erdagi tuman (shahar) sudiga beriladi.

Odatda, notarial harakatlar barcha zarur hujjatlar topshirilgan kunning o'zidayok amalga oshiriladi. Ayrim hollarda notarius notarial harakatlar qilishni boshqa kunga qoldirishi mumkin, ammo uch kundan oshiq muddatga kechiktirmasligi lozim.

Notarial harakatni amalga oshirish kushma ma'lumotlarni talab qilish yoki hujjatlarni ekspertizaga yuborish zarur bo'lganida kechiktirilishi mumkin.

Notarial harakatlarni amalga oshirish, basharti qonunga binoan manfaatdor shaxslardan ushbu harakatni amalga oshirishga e'tiroz bor-yo'qligini so'rash lozim bo'lganda, kechiktirilishi mumkin. Notarial harakatni amalga oshirishni kechiktirish muddati bir oydan oshmasligi lozim. Notarial harakatni amalga oshirishni so'rab murojaat qilgan shaxsning talabiga ko'ra unga notarial harakatni amalga oshirishni kechiktirish haqidagi qaror beriladi.¹

Manfaatdor shaxs tasdiqlashni so'rayotgan huquq yoki fakt ustida da'volashish uchun sudga murojaat qilish istagidagi boshqa manfaatdor shaxsning arizaga ko'ra notarial harakatni amalga oshirish ko'pi bilan o'n kun muddatga kechiktirilishi mumkin. Agar bu muddat ichida ariza tushganligi haqida sudga ma'lumot olinmasa, notarial harakat amalga oshirilishi lozim.

Yuqorida keltirilgan qonunga muvofiq shikoyat ishining ko'rilishi uchun quyidagicha dalillar keltirilishi yoki sud tomonidan talab qilib olinishi kerak.

1-dan, notarial harakat bajarilganligi yoki uning bajarilishi to'g'risidagi hujjat. Bunday hujjat, chunonchi: merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnoma berishni rad qilganlik, ijro xati berishni rad qilganlik, oldi-sotdi, mulkni xadya qilish to'g'risidagi va boshqa bitimlarni guvohlantirishni rad qilganlik to'g'risidagi notariusning qarori;

2-dan, shikoyat yuzasidan notariusning yoki notarial harakatlarni bajaruvchi organ vakilining yozma bayonoti va bunga ilova qilinadigan tegishli hujjatlar;

3-dan, shikoyatda ko'rsatilgan vajlarni isbotlaydigan dalillar, masalan, uy-joyga bo'lgan egalik huquqini tasdiqlaydigan hujjatlar, vasiyatnoma, avtomashina hujjati, tovarning kreditga olinishida berilgan majburiyatnoma va shu kabi dalillar bo'ladi.

Notarial harakat noto'g'ri bajarilganligi yoki uni bajarish rad etilganligi haqidagi shikoyatlar notarial harakat noto'g'ri bajarilganligi yoki bunday harakatni bajarish rad etilganligi arizaga ma'lum bo'lgan kundan e'tiboran yigirma kunlik muddatda beriladi.

Shikoyatda bajarilgan notarial harakatning yoki bunday harakatni bajarishning rad etishning noto'g'riligi nimalardan iborat ekanligi ko'rsatilishi lozim.

Shikoyat berish muddati o'tkazib yuborilganda uni tiklash haqidagi iltimos sud tomonidan umumiy asoslarda hal qilinadi.

Qarzdor notarius yoki konsul tomonidan berilgan ijro xati xususida umumiy tartibda da'vo taqdim etish yo'li bilan nizolashishi mumkin. Bajarilgan notarial harakat negizida manfaatdor shaxslar o'rtasida kelib chiqqan huquqqa doir nizo taalluqliligiga qarab, sud tomonidan ko'riladi.

Notarius va notarial harakatlarni bajaruvchi idoralarning xatti-harakatlari ustidan berilgan shikoyatlar 1996 yil 26 dekabrda O'zbekiston Respublikasining Notariati to'g'risidagi qonunining 39-moddasi, FPKning 31-moddasi, 264-moddani 3-bandida va 273-275-moddalariga muvofiq ko'riladi.

5-§. Fuqarolik holati dalolatnomalari yozuvlaridagi noto'g'riliklarni begilash

Ushbu mavzu amaldagi Fuqarolik Protsessual kodeksida mansabdor shaxslarning nojuya xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish bobida berilgan, chunki bunday ishlar bizning nazarimizda mansabdor shaxslarning harakatlari bilan bog'liq bo'lishi deb hisoblaymiz. SHuning uchun bunday turkumdagi ishlarni alohida tartibda ko'riladigan bobdan ushbu bobga o'tkazilgan.

Fuqarolik holati dalolatnomalari yozuvlarini qayd qilish idoralarida xodisa va harakatlar belgilangan ro'yxatga olingandan keyingina fuqarolar, davlat va jamoat tashkilotlari sub`ektlarining, huquq va manfaatlari tegishli fuqarolik holati dalolatnomalari yozuvlarini qayd etish idoralarida va sudlarda himoya qilinishi mumkin.

Oila kodeksida ko'rsatilganidek, tug'ilish, farzandlikka olish, otalikni belgilash, ism, otaning ismi va familiyani o'zgartirish, nikoh tuzish, nikohdan ajralish va o'lim holatlari fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish davlat idoralarida va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish to'g'risidagi 1993 yil 2 sentyabrda qonunga ko'ra shaharcha, kishlok, ovul fuqarolari yig'inining raisi (oksoqoli) fuqarolik holati aktlarini ro'yxatga olishni qayd qilishi lozim.¹

Dalolatnoma yozuvlariga tuzatish kirish uchun asos bo'lgan holatlar dalolatnoma yozuvlaridagi va beriladigan tegishli guvohnomalarni yozishda yo'l qo'yilgan xato va noaniqliklar hisoblanadi.

Fuqarolik holati dalolatnomalardagi yozuvlar unda nomlari ko'rsatilgan shaxslarning huquq va burjlarini belgilash bilan birga boshqa shaxslarning ham huquq hamda burjlariga ta'sir etish mumkin. Shu tufayli bunday yozuvlarning to'g'ri bo'lishi muhim ahamiyatga egadir. Dalolatnoma yozuvlari rasmiy hujjat bo'lib hisoblanadi.

Bu turkumdagi ishlarni tug'ilish, farzandlikka olish, nikoh, ajralish va vafot etganlik faktlarini belgilashga oid bo'lgan ishlardan farqi shundaki, noto'g'riliklari belgilashda dalolatni tasdiqlaydigan hujjatlar mavjud bo'lib, faqat bu hujjat o'zidagi noaniqliklar borligi bilan farqlanadi.

Yozuvlarda bo'lgan xatolar, noto'g'riliklari odatda fuqarolik holati dalolatlarini qayd qilish to'g'risidagi nizoga binoan tuzatiladi. Agar fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish idoralarida huquq haqida biron nizo bo'lmasa ham, yozuvga tuzatish kiritishni rad etgan bo'lsalar, fuqarolik holatlari dalolatnomalari daftaridagi yozuvlarning noto'g'riligini belgilash to'g'risidagi ishlarni sud ko'radi. Bunday ishlar amaldagi fuqarolik Protsessual kodeksida sudlar tomonidan davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek mansabdor shaxslarning xatti-harakat (qaror)lari ustidan berilgan shikoyatlarni sudda ko'rish qoidasi asosida ko'riladi.

Bunday toifadagi ishlar bo'yicha mafaatdor shaxslar nafaqat hujjatlarida xato noto'g'riliklar bo'lgan fuqarolar bo'lib qolmay, balki meros qoldiruvchini vafotidan keyin tegishli huquq va burchlarga ega bo'lgan ularning merosxurlari ham berishi mumkin. Voyaga etmagan bolalarning tug'ilganlik haqidagi yozuvlarga tuzatish kiritish haqida ularning ota-onasi, farzandlikka oluvchilari ham shikoyat bilan murojaat etishga haqlidirlar.

Daftarlardagi yozuvlarning noto'g'riligini belgilash to'g'risida sudga manfaatdor shaxslar: hujjat egalari, vorislar va tegishlicha boshqa shaxslar, shuningdek, prokuror murojaat qilishi mumkin.

Fuqarolik holatlari dalolatnomalari daftaridagi noto'g'ri yozuvlarni belgilash to'g'risidagi shikoyat, shikoyat beruvchi yashaydigan joydagi sudga beriladi. SHikoyatda fuqarolik holatlari dalolatnomalari daftaridagi yozuvlarning noto'g'riligi nimadan iborat ekanligi, qachon va qaysi fuqarolik holati aktlarini qayd qilish organi tomonidan yozilgan yozuvni tuzatishni rad etganligi ko'rsatilishi lozim. Bulardan tashqari shikoyatda tegishli guvohnoma nusxasi, rad etish xulosasi, hujjatlardagi xatolarni tuzatish yoki ularga o'zgartirishlar kiritish haqidagi ma'lumotlar ham ilova qilinadi.

Sud shikoyatlari tayyorlash faktida lozim hollarda tegishli hujjatlarni o'z tashabbusi bilan talab qilib olishi ham mumkin. Shu bilan bir qatorda sudya manfaatdor shaxslardan, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish idoralaridan va boshqa manfaatdor tashkilot, fuqarolarni ishga jalb qilish masalasini ham ko'rib chiqadi. Agar sud fuqarolik holati dalolatnomalari yozuvlaridagi xatoliklarni ko'rishda, manfaatdor shaxslarning huquqi buzilishida nizo borligi aniqlansa, bu ishlar da'vo yuritish qoidalari asosida hal etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Fuqarolik holati aktlari yozularidagi xatoliklarini belgilashni tartibga soluvchi qonunchilikni sudlar tomonidan qo'llash haqida»gi 1992 yil 13 noyabrdagi qarorida sud fuqarolik holati aktidagi shikoyatchini tug'ilganlik haqidagi yozuvda ota-onasini millati yozilmay qolgan bo'lsa, bu masalani ham ko'rish hamda agar, bedarak yo'qolgan deb topilgan esa yoki xotin topilsa, ularning nikohini bekor qilish haqidagi yozuvlardan tashqari fuqarolik holati aktlardagi dastlabki yozuvlarni bekor klish masalasi sud tomonidan hal qilinishi belgilangan.¹

FPKning 275-moddasi 2-qismiga muvofiq fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish daftaridagi yozuvning noto'g'riligi to'g'risidagi

sudning hal qiluv qarori fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish idoralarining bunday yozuvni tuzatishlari uchun asos bo'ladi.

Fuqarolik holati dalolatnomalari yozuvlaridagi noto'g'riliklarni belgilashga oid boshqa masalalar yuqorida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1992 yil 13 noyabrdagi «Fuqarolik holati aktlari yozuvlaridagi xatoliklarni belgilashni tartibga soluvchi qonunchilikni sudlar tomonidan qo'llash haqida»gi qarorida o'z ifodasini topgan.

6-§. Prokurorning huquqiy hujjatni g'ayriqonuniy deb topishi haqida

Yuqorida fuqarolik ishlarini sudda ko'rish bilan bog'liq bo'lgan prokurorning protsessual faoliyati to'g'risida fikr yuritilgan edi.

Prokuror o'ziga berilgan vakolat doirasida qonunlarni aniq bajarishi yuzasida nazorat olib boruvchi mansabdor shaxs bo'lib, fuqarolik ishlari bo'yicha ham sudlar tomonidan qonuniy va asosli qaror chiqarishga ko'maklashishi lozim. «Prokuratura to'g'risida»gi 1992 yil 9 dekabr qonunda belgilangandek, prokuratura idoralarining faoliyati yuqoridagilar bilan birga qonuning ustunligini har tomonlama qaror toptirishga, huquq-tartibotni mustahkamlashga, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan mustahkamlangan inson va fuqaroning ijtimoiy, iktisodiy, siyosiy, shaxsiy huquqlari hamda erkinliklariga, shuningdek davlat mustaqilligini, ijtimoiy davlat tuzumi, siyosiy va iktisodiy tizimlarini, milliy guruhlar va tuzilmalarning huquqlarini g'ayriqonuniy tajovuzlardan muxofoza qilishni taminlashga qaratilgan.¹

Prokuraturani nazorat qilish doirasiga vazirliklar, davlat qumitalari va idoralari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar tomonidan chiqariladigan aktlarning qanchalik qonuniy ekanligi ham kiradi.

Masalan, prokuror ham o'zini-o'zi boshqarish organlarining qarorlari. shuningdek rais (oksoqol)ning xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish mumkin (qonunning 25-moddasi).¹

Prokurorlar o'z faoliyatlarini sudlarda jinoiy ishlarni ko'rish davlat ayblovni qo'llab-quvvatlash, fuqarolik ishlarini ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni hamda xo'jalik nizolarni ko'rishda ishtirok etish bilan qonunlarga zid bo'lgan sud xarajatlariga protest keltiradilar.

Fuqarolik qonunchiligida ko'rsatilganidek, davlat organining yoki fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organining qonun hujjatlariga muvofiq bo'lmagan hamda fuqarolarning yoki yuridik shaxsning fuqarolik huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzadigan hujjati sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

«Prokuratura to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuniga asosan prokuror yoki uning o'rinbosari qonunga zid bo'lgan huquqiy hujjatga nisbatan ana shu hujjatni chiqargan idoraga yoki yuqori beruvchi idoraga

protest keltiradilar. Mansabdor shaxsning xatti-harakatlariga nisbatan ham huddi shu tartibda protest keltiriladi.

Prokuror keltirilgan protest bu protest topshirilgan vaqtdan boshlab ko'pi bilan o'n kunlik muddat ichida qarab chiqilishi lozim. qonuniylik buzilganligidan tezda barham berish talab qilingan favkulotda prokuror protestni ko'rib chiqishning qisqartirilgan muddatini belgilashga haqqidir.

Protestni qarab chiqish natijalari to'g'risida prokurorga darhol yozma ravishda ma'mul qilinishi belgilangan.

Protest g'ayriqonuniy huquqiy hujjat chiqargan idora yoki yuqori turuvchi idora tomonidan rad etilgan taqdirda, shuningdek protest qonunda belgilangan muddat ichida qarab chikilmagan taqdirda, prokuror tegishli sudga ana shu hujjatni g'ayriqonuniy deb e'tirof etish tegrisidagi ariza bilan murojaat qilishi mumkin. Sudga ariza, protest rad etilganligi to'g'risidagi ma'lumot berilgan paytdan boshlab bir oylik muddat ichida yoki qarab chiqish uchun qonunda belgilangan muddat o'tgandan keyin berilishi ko'rsatilgan.¹

Ana shu qoidani bajarilishiga qaratilgan FPKning 29-bobi prokurorni huquqiy hujjatni g'ayriqonuniy deb topish to'g'risida ariza bilan tegishli idoralar va mansabdor shaxslar ustidan sudga murojaat etish tartibi belgilangan. Masalan, FPKning 276-moddasida prokuror qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra haqiqiy hujjatni g'ayriqonuniy deb topish haqida ariza bilan sudga murojaat qilishga haql ekanligi maxsus huquqiy me'yor sifatida ifoda etilgan.

Prokurorning sudga ariza berishi sudga ko'rib chikilgunga qadar huquqiy hujjatning amal qilishini to'xtatib qo'yishligi ham asoslantirilgan.

Sud bunday turkumdagi ishlarni fuqarolik sud yuritish qoidalarining umumiy tartibi asosida ko'rib hal etadi, jumladan, ishni sudga tayyorashda protsessga jalb etiladigan shaxslar, ularning vakillari va boshqalar haqida. FPKning 158-161-moddalarida ko'rsatilgan harakatlarni amalga oshira borib, ishni mazmunan ko'rishga tayinlashi lozim.

Prokurorning arizasini sud yigirma kun ichida uning ishtirokida va protestni rad etish to'g'risidagi qaror qabul qilgan yoxud protoestni ko'rib chikmagan organning rahbari yoki uning vakili ishtirokida ko'rib chiqadi.

Sud majlisiga organ rahbari yoki uning vakili uzrsiz sabablarga ko'ra kelmaganligi prokurorning arizasini ko'rib chiqish uchun to'sqinlik qilmaydi, biroq sud bu shaxsning kelishini majbur deb topishi FPKning 277-moddasida berilgan.

Prokuror fuqarolik ishlarini qo'zg'atish, unda ishtirok etish shaklidan qat'iy nazar, hamma vaqt davlat vakili qonunni bajarilishi ustidan nazorat qiluvchi organ bo'lib qolaveradi. Shu sababli prokuror huquqiy hujjatni g'ayriqonuniy deb topish to'g'risida ariza bilan sudga murojaat etganda sudga nizo qilgandan so'ng oqibatda haqli bo'lib chiqqan tarafning manfaatini himoya qilgan bo'ladi.

Agar sud prokurorning arizasi asosli ekanligini aniqlasa, arizani qanoatlantirish haqida hal qiluv qarori chiqaradi va huquqiy hujjatni g'ayriqonuniy deb topadi.

Bundan tashqari, agar sud protest keltirilgan hujjat uni chiqargan organning vakolatlari doirasida qonunga muvofiq qabul qilingan deb topsa, u arizani qanoatlantirishni rad etish haqida hal qiluv qarorini chiqaradi.

Prokurorning huquqiy hujjatni g'ayriqonuniy deb topish haqidagi arizasi bo'yicha sud chiqargan hal qiluv qarori protestini rad etish to'g'risida qaror qabul qilgan yoki prottsestni ko'rmagan organ rahbariga yuboriladi.

Prokuror fuqarolarni manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudga ariza bilan huquqiy hujjatni g'ayriqonuniy deb topish haqida murojat etish bilan, agar davlat organlari, fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarning g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi), shu jumladan, davlat organi yoki fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan qonun xo'jatlariga muvofiq bo'lmagan hujjat chiqarilishi natijasida fuqaroga yoki yuridik shaxsga etkazilgan zarar davlat tomonidan yoki fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organi tomonidan to'lashi lozimligi masalasini ham qo'yishi mumkin.

Demak, prokuror davlat boshqaruv idoralari va jamoat tashkilotlari tomonidan qabul qilinadigan huquqiy xo'jatni g'ayriqonuniy deb topish to'g'risida ariza bilan sudga murojat etish qoidalari ham davlat, jamoat tashkilotlari va fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy me'yorlardir.

O'zlashtirish savollari

1.Davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan beriladigan shikoyatlarga oid bo'lgan ishlarning turlari.

2.Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-xarakterlar va qarorlar ustidan shikoyatlar bo'yicha ishlar.

3.Sudga shikoyat qilinishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlar (qarorlar).

4.Sudga shikoyat bilan murojaat etish uchun asoslar va muddatlar.

5.Saylov komissiyalarining xatti-harakat (qaror)lari ustidan berilgan shikoyatlarni ko'rish muddati va tartibi.

6.Notarial harakatlar yoki bunday harakatlarni bajarishni rad etganlik ustidan shikoyat berish.

7.Fuqarolik holati aktlarini qayd etishdagi noto'g'riliklar ustidan sudga shikoyat berish tartibi.

8.Prokurorning huquqiy hujjatni g'ayriqonuniy deb topish haqida sudga ariza berish uchun asoslar.

23-Mavzu. ALOHIDA TARTIBDA ISH YURITISH

Tayanch iboralar: alohida tartibda ish yuritish tushunchasi va mohiyati, alohida tartibda yuritiladigan ishlarni da'vo tartibida, shuningdek davlat organlari va boshqa organlar, mansabdor shaxslarning xatti-harakat (qaror)lari ustidan berilgan shikoyat va arizalar bo'yicha ish yuritishdan farqi, alohida tartibda yuritiladigan itilar va ularni ko'rish tartibi, yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni belgilash to'g'risidagi ishlar, yuridik ahamiyatga ega bo'lgan ishlarni sudga taalluqliligi, bunday ishlarni sudda ko'rishda ishtirok etuvchi shaxslar, fuqarolarni qonunda belgilab qo'yilgan tartibda bedarak yo'qolgan deb topish va o'lgan deb e'lon qilish, arizaning mazmuni, ishlarning sudlovligi, arizani qabul qilgandan keyin sudyaning harakatlari, fuqaroi bedarak yo'qolgan deb topish va o'lgan deb e'lon qilgan ishlar bo'yicha ularning kelib qolishi yoki turar joyini aniqlash oqibatlari, fuqaroning muomala layoqati cheklangan yoki uning muomalaga layoqatsiz deb topilishi, fuqaroni muomalaga layoqatli deb topilishi uchun asoslar, mulkni egasiz deb hisoblash, bunday ishlarda ishtirok etuvchi shaxslar. Ishning sudlovligi, arizaning mazmuni, ishni sudda ko'rishga tayorlash va ko'rishm, sudning hal qiluv qarori va uning ahamiyati, taqdim etuvchiga dsb berilgan hujjatlar yo'qotilgan taqdirda ularga bo'lgan huquqlarni tiklash (chaqirib ish yuritish), arizani berish tartibi.

Hujjat saqlab turgan shaxsdan ariza tushgandan keyin sudning harakatlari. Sudning hal qiluv qarori. G'ayriixtiyoriy tartibda psixatriya stasionariga yotkizish.

Dars o'tish vositalari: mavzu nazariy ahamiyat kasb etishi bilan uni asosan ma'ruza tarzida O'zbekiston Respublikasining protsessual qonunchiligi haqida, Prezident asarlarida sud -huquq sohasini isloh qilishga qaratilgan vazifalarni hamda Oliy sudning Plenum qarorlarining - normalarini sharhlash orqali yoritiladi hamda zaruratga qarab savol-javoblar uyushtiriladi.

Dars o'tish usullari: darsning mohiyatini ijtimoiy-gumanitar fanlar yutuqlaridan foydalangan holda yorqin tahlil qilish va seminarda har bir talabaning fikrini eshitish bilan yakunlanadi.

Fuqarolik sud ishalrini yuritishda alohida tartibdagi ishlar ham ko'riladi. Ushbu turkumdagi ishlarning fuqarolik protsessual asoslari FPKning30-bob, 279-moddasidan 309-moddasigacha bo'lgan qoida va tartiblar asosida ish yuritiladi.

Sud tomonidan alohida tartibda ish .yuritish tartibida ko'riladigan ishlarga qo'yidagilar kiradi:

-yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi ishlar:

-fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish yoki o'lgan deb e'lon qilish to'g'risidagi ishlar:

-fuqaroni muomalaga layoqatsiz yoki fuqaroni muomala layoqatini cheklash to'g'risidagi ishlar:

-mol mulkni, ashyni egasiz deb topish to'g'risidagi ishlar:

-taqdim etuvchiga deb berilgan hujjatlar yo'qolgan taqdirda ular bo'yicha huquqlarni tiklash to'g'risidagi ishlar hisoblanadi.

Agar amaldagi qonunlarda biron-bir yuridik faktni belgilashning boshqacha tartibi nazarda tutilmagan bo'lsa, Jumladan, sud fuqaroning muayyan vaqtda va muayyan holatlarda vafot etganligi faktini, merosning qabul qilinganligi faktini, merosning ochilishi joyini belgilashi va boshqa faktlarni ham belgilashi amaldagi FPKda belgilangan. Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni sud tartibida belgilashga oid ayrim masalalar yangi fuqarolik protsessi kodeksida hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1991 yil 21 dekabr va unga 1997 yil 2 mayda kiritilgan o'zgarishlarda bu turkumdagi ishlarining doirasi cheklanmaganligi ko'rsatilgan bo'lib faktlarni belgilashga;

Sudlar huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan boshqa faktlarni ham, jumladan:

1968 yil 1 oktyabrgacha tug'ilgan bolalarga nisbatan otalikni tan olganlik faktlarini, otalik faktlarini, otalikni qayd qilish faktlarini;

-ixtironi joriy etish faktlarini, taklifni ratsionalizatorlik sifatida kvalifikatsiyalanganlik faktlarini;

-binoga, payga, avtomobilga va boshqa maxsus ro'yxatdan o'tkaziladigan mulkka egalik qilish faktlarini;

-nikoh bekor qilinmasdan, lekin oilaviy munosabatlar tugatilganligidan so'ng imoratni er-xotindan birining mablag'lariga ko'rilgalik faktlarini;

-sug'urta guvohnomasga egalik qilish faktlarini;

-fuqaro yoki uning ota-onasi Ulug' Vatan urushi davrida O'zbekiston Respublikasi evakuatsiya qilinganlik faktlarini ham belgilashga haqlidirlar.

Amaldagi qonunlarda belgilashning boshqacha (sudsiz) tartibi nazarda tutilgan faktlarni belgilash to'g'risidagi arizalar sud tartibida ko'rilishi mumkin emas. Jumladan:

a) ish stajini (pensiya tayinlash uchun, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik, xomiladorlik va bola tug'ilishi munosabati bilan nafaqa tayinlash uchun ish haqiga foizli qo'shimchalarni qo'shib hisoblash uchun, uzoq yillar qilgan xizmati uchun bir yo'la mukofot puli to'lash uchun va x.k) aniqlash to'g'risidagi;

b) haqiqiy harbiy xizmatni utaganlik, partizan qismida bo'lganlik, janglarda yaralanganlik to'g'risidagi;

v) fuqarolarni yoshini belgilash to'g'risidagi;

g) oliy o'quv yurtini, texnikumini, o'rta maktabni bitirganlik faktlarini belgilash to'g'risidagi;

d) kasaba uyushmalari hujjatlarini, pasport va fuqarolik hollari aktlarini yozish organlari tomonidan beriladigan guvohnomalarni tegishlilik faktlarni belgilash to'g'risidagi arizalar sudda ko'rilmaydi.

Sud yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni, agar arizachi shu faktlarni tasdiqlaydigan tegishli hujjatlarni boshqacha yo'l bilan olishi mumkin bo'lmagan yoki yo'qotilgan yoxud yo'q qilingan hujjatlarni tiklash mumkin bo'lmagan taqdirdagina, belgilandi.

Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni belgilash to'g'risidagi ishlar bo'yicha arizalar ariza yashab turgan joyidagi sudga beriladi.

Arizada: muayyan faktni belgilash ariza beruvchiga qanday maqsadlar uchun zarur ekanligi ko'rsatilish, shuningdek ariza beruvchining tegishli hujjatlarni olishi mumkin bo'lmaganligi yoxud yo'qolgan hujjatlarni tiklash mumkin emasligini tasdiqlovchi dalillar keltirishi mumkin.

Sudning hal qiluv qarorida sud tomonidan belgilangan fakt, uning qanday maqsad uchun belgilanganligi, shuningdek shu faktni belgilash uchun asos bo'lgan dalillar ko'rsatilishi lozim.

Fuqarolik holatlarini qayd qilish organlarida yozilishi yoki boshqa organlarda rasmiylashtirilishi lozim bo'lgan faktlarni belgilash to'g'risidagi sud chiqargan hal qiluv qarori bu organlar tomonidan beriladigan hujjatlarning o'rnini bosmaydi, balki shunday qayd qilish yoki rasmiylashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi (FPKning 285-moddasining 2-qismi).

3-§. Fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish

Fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish shartlari FKning 33-moddasida nazarda tutilgan. Bu qonunda ko'rsatilishicha, agar fuqarolarning qaerdaligi haqida uning doimiy turar joyiga bir yil mobaynida xabar kelmasa manfaatdor shaxslarning arizasiga muvofiq u sud orqali bedarak yo'qolgan deb topilishi mumkin.

Fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish uchun asoslar FKning 36-moddasida berilgan. Bu qoidaga ko'ra agar fuqaroning qaerda turganligi haqida uning yashash joyida uch yil mobaynida ma'lumot bo'lmasa, basharti u o'lim xavf solib turgan yoki muayyan baxtsiz xodisadan xalok bo'lgan deb taxmin qilish uchun asos bo'ladigan vaziyatlarda bedarak yo'qolgan bo'lib, uning qaerdaligi haqida olti oy mobaynida ma'lumotlar bo'lmasa, manfaatdor shaxslarning arizasiga muvofiq sud uni vafot etgan deb e'lon qilish mumkin. Sudga murojaat qilayotgan manfaatdor shaxslar fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qiluvchi organlarning vafot etganlikni ro'yxatga olishni rad qilganligi haqidagi hujjatni ham taqdim etishlari lozim (yuqoridagi Plenum qarorining 17-bandi).

Sud amaliyotida fuqarolarni bedarak yo'qolganligi vaqti arizachini qiziktirishlarini nazarda tutib, FKning 33-moddasi 2-qismida qoida berilgan. Bu qonunda, agar yo'qolgan shaxs to'g'risida oxirgi ma'lumotlar olingan kuni aniqlash mumkin bo'lmasa, bedarak yo'qolgan deb hisoblash muddati yo'qolgan shaxs oxirgi ma'lumotlar olingan oydan keyingi oyni birinchi kundan bu oyni belgilash ham mumkin bo'lmasa, keyingi yilning birinchi yanvaridan boshlinishi ko'rsatib o'tilgan.

Ushbu harakatlarni munosabati bilan bedarak yo'qolgan harbiy xizmatchi yoki boshqa bir fuqarolar urush harakatlari tamom bo'lgan kundan boshlab kamida ikki yil utgach sud orqali vafot etgan deb e'lon qilinishi mumkin (FKning 36-moddasi).

Bunday ishlar biron-bir huquq to'g'risida nizo bo'lmagan va shu sababli javobgar bo'lmagani tufayli alohida tartibda yuritish qoidalari (FPKning 286-290-moddalari) bo'yicha ko'riladi.

Fuqarolarning bedarak yo'qolgan deb topish to'g'risidagi ariza arizachining yashash joyidagi sudga beriladi. Sud fuqarolarni bedarak yo'qolgan deb topish to'g'risidagi arizani ko'rishga FKning 33-moddasida belgilangan muddat o'tgandan so'ng kirishadi.

Arizaning mazmunida odatda ko'rsatiladigan umumiy ma'lumotlardan tashqari, ariza beruvchiga fuqarolarning bedarak yo'qolgan deb topish yoki uni vafot etgan deb e'lon qilish qanday maqsad uchun zarurligi ko'rsatilishi, shuningdek fuqarolarning bedarak yo'qolganligini tasdiqlaydigan holatlar yoxud bedarak yo'q bo'lgan o'lim xavfi solgan xatarli holatlar yoki uni ma'lum baxtsiz voqeaga uchragan deb extimol tutishga asos bo'ladigan holatlar bayon qilinishi kerak.

Sudya ishni sudda ko'rishga tayyorlash qanday shaxslar qarindosh-uruglar, birga sudlovchilar va shu kabilar) bedarak yo'qolgan odam to'g'risida ma'lumot bera olishlarini aniqlaydi, shuningdek bedarak yo'qolgan odamning keyingi ma'lum bo'lgan yashash joyi va ishlash joyiga tegishli tashkilotlardan fuqarolardan o'zini-o'zi boshqaruvchi idoralardan ichki ishlar idoralari bedarak yo'qolgan shaxs to'g'risidagi bor ma'lumotlarni so'rab oladi.

Shu bilan bir vaqtda sudya arizani qabul qilgach, vasiylik va xomiylik organiga bedarak yo'qolganning mulkini saqlash va shuningdek, boshqarish uchun xomiy tayinlashni taklif qila oladi. Fuqarolarni bedarak yo'qolgan deb topish yoki fuqarolarni vafot etgan deb e'lon qilish to'g'risidagi ishlar prokurorning ishtirokida ko'riladi.

Sudning fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish haqidagi hal qiluv qarori bedarak yo'qolgan shaxsning mulki turgan joydagi vasiylik va xomiylik organining shu mulk ustidan xomiy tayinlash uchun asos bo'ladi.

Sudning fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish haqidagi hal qiluv qarori fuqarolik holati aktlarini qayd qiluvchi organga fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish daftariga mazkur fuqarolarni vafot etgan deb yozib qo'yish uchun asos bo'ladi.

Bedarak yo'qolgan deb topilgan yoki vafot etgan deb e'lon qilingan fuqarolarni kelib qolgan yoki uning turish joyi noma'lum bo'lib qolgan taqdirda, sud yangi hal qiluv qarorini bekor qiladi, yangi hal qiluv qarori mulkka nisbatan belgilangan boshqaruvchini olib tashlash uchun yoki fuqarolik holatlari dalolatnomalarini qayd qilish daftarida fuqarolarning vafoti haqida yozilgan yozuvni bekor qilish uchun asos bo'ladi.

4-§. Fuqarolarni muomalaga layoqati cheklangan yoki muomalaga ayokatsiz deb topish

Qonunda nazarda tutilgan hollar va tartibdan tashqari hech kimning huquq layoqati yoki muomala layoqati cheklanishi mumkin emas (FKning 23-moddasi).

Fuqarolarning muomalaga layoqatini sud tartibida cheklash yoki muomalaga layoqatsiz deb topish alohida hollardagina va faqat kimlar to'g'risida ish qo'zg'atilgan bo'lsa, shu shaxslarning va oila a'zolarining huquq va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadlaridagina belgilanadi. Muomalaga layoqatini cheklash muomalaga layoqatsiz deb topish hollari FKning 30-31-moddalarida ko'rsatilgan.¹

Spirтли ichimliklar, giyoxvand moddalari va psixotrop moddalar suiste`mol qilish natijasida fuqaroni muomalaga layoqati cheklangan deb topish to'g'risidagi yoki fuqaroni ruhiy holati buzilganligi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) tufayli muomalaga layoqatsiz deb topish haqidagi ish uning oila a'zolari, vasiylik va xomiylik organlari, prokuror, davolash muassasalari va boshqa davlat organlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari hamda jamoat birlashmalari bergan ariza bo'yicha qo'zg'atilishi mumkinligi FPKning 291-moddasida ko'rsatilgan. Muomalaga layoqati cheklangan deganda-fuqaro spirтли ichimliklar ichishi, giyoxvand moddalarni belgilangan me`yordan ortiq miqdorda suiiste`mol qilish tushuniladi. Agar fuqaro spirтли, giyoxvand va boshqa dorivorlarni suiiste`mol qilish tufayli yoki boshqa dorivorlarni suiiste`mol qilish tufayli yoki boshqa sabablarga ko'ra ruhiy holati buzilganligini, shuning oqibatida u o'z xatti-harakatini anglay olmasligidan yoki boshqara olmasligidan dalolat beruvchi harakatlar sodir etsa, uni sud muomalaga layoqatsiz deb topish uchun asos bo'ladi.

Fuqaroni muomalaga layoqatini cheklangan deb topish uchun asos bo'ladigan holatlardan yana biri, u ham bo'lsa, shaxs o'z oilasini moddiy jihatdan og'ir ahvolga qo'yadigan holatlar ham mavjud bo'lishi kerak.

Ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi sababli o'z harakatlarini ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni idora qila olmaydigan fuqarolar sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilganda unga nisbatan vasiy belgilanadi. Fuqarolarni muomalaga layoqati cheklangan va muomalaga layoqatsiz deb topish to'g'risidagi ishlar sudlarda FPKning 291-295-moddalarida belgilangan tartibda ko'riladi.

Spirтли ichimliklarni, giyoxvandlik moddalarni suiiste`mol qilish natijasida fuqarolarni muomala layoqati cheklangan deb tanish to'g'risidagi yoki fuqarolarni muomalaga layoqatsiz deb topish haqidagi ish yuqorida aytganimizdek uning oila a'zolarining, vasiylik va xomiylik idoralarining, prokurorning, shifoxona va boshqa davlat muassasalarining hamda jamoat birlashmalarining bergan arizalari bo'yicha qo'zg'atilishi mumkin.

Alternativ sudlovlikka asosan fuqarolarning muomalaga layoqati cheklangan deb topish to'g'risidagi ariza mazkur fuqarolarning yashab turgan joydagi sudga beriladi, agar bu shaxs shifoxonada bo'lsa, shifoxona joylashgan joydagi sudga beriladi.

Fuqarolarni muomalaga layoqati cheklangan deb topish haqidagi arizada spirтли ichimliklarni yoki narkotik moddani suiiste`mol qiluvchi shaxs o'z

oilasini moddiy jihatdan og'ir ahvolga solib qo'yayotganligini isbotlovchi holatlar ko'rsatilishi kerak.

Fuqarolarni muomalaga layoqatsiz deb topish haqidagi arizada shaxsning o'z harakati ustidan hisob bermasligi yoki o'zini idora eta olmasligiga sabab bulayotgan aqliy buzilishini isbotlovchi holatlar bayon qilinishi lozim.

Sudya arizani olgach, ishni sudda ko'rishga tayyorlash tartibida, fuqarolarning ruhiy kasalligini yoki aqli zaifligi to'g'risidagi manfaatdor shaxslar tomonidan to'plangan va sudga taqdim etilgan xajjatlarni etarli bo'lganida, uning ruhiy ahvolini aniqlash uchun sud-ruhiy ekspertizasini tayinlaydi.

Fuqarolarni muomala layoqati cheklangan deb topish to'g'risidagi ishni sud albatta shu shaxsning o'zining, prokurorning hamda vasiylik va xomiyli organlari vakilining ishtirokida ko'radi.

Fuqarolarni muomalaga layoqatsiz deb topish to'g'risidagi ishni sud prokurorning vasiylik va xomiylik organlari vakilining ishtiroki bilan ko'radi. Ishni ko'rilayotgan fuqarolarning sog'lig'i imkon bersa, u sudga chaqiriladi.

Sudning fuqarolarni muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topish to'g'risidagi hal qiluv qarori vasiylik va xomiylik organiga muomala layoqati cheklangan shaxsga nisbatan xomiy tayinlash uchun, muomalaga layoqatsiz shaxsga esa-vasiy tayinlash uchun asos bo'ladi.

Homiy muomala layoqati cheklangan, vasiy muomalaga layoqatsiz shaxslarga nisbatan tayinlashini ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishini nazarda tutiladi. Homiylik va vasiylik o'z himoyalariidagi shaxslarning huquq va manfaatlarini har qanday shaxslar bilan munosabatlarda, shu jumladan, sudlarda ham maxsus vakolatnomasini himoya qilishlari mumkin.¹

Agar fuqarolar spirtli yoki narkotik moddalarni suiiste`mol qilishni tashlasa, sud uning layoqatligini bekor qilish to'g'risida hal qiluv qarori chiqaradi. Sud qaroriga asosan unga xomiy tayinlash ham bekor qilinadi (FPKning 296-moddasi). ruhiy kasalligi sababli muomalaga layoqatsiz deb tanilgan fuqarolar tuzalgani holda sud FPKning 291-moddasida ko'rsatilgan tashkilotlar va shaxslar bergan arizaga binoan sud ruhiy ekspertizaning xulosasiga asoslanib, muomalaga layoqatli deb topishi hamda uning ustidan belgilangan vasiylikni bekor qilish haqida hal qiluv qarorini chiqarishi lozim (FPKning 296-moddani ikkinchi qismi). Bu turkumdagi ishlar ishni alohida tartibda yuritish talablariga asosan ko'riladi. Sudga fuqarolarning o'zini, uning xomiyini, shuningdek FPKning 291-moddasida ko'rsatilgan davlat organlari tashkilotlar jalb qilinadi.

FKning 30-moddasi uchinchi qismida ko'rsatilgan hollarda fuqaroni muomalaga layoqatli deb topish uchun sud vasiyning, shuningdek, FPKning 291-moddasida ko'rsatilgan davlat organlari tashkilotlar va shaxslarning, sud-psixiatriya ekspertizasining ekspertini ishtirokida ishni mazmunan ko'radi.

Fuqarolarni muomalaga layoqatli deb yoki muomalaga layoqatsiz deb topish to'g'risidagi ishlarni yuritish bo'yicha sud xarajatlari ariza beruvchidan undirilmaydi.

Agar, sud arizani fuqaroning muomala layoqatini asossiz cheklashga yoki uni muomala layoqatidan mahrum etish maqsadida berilgan deb topsa, ish

yuritish xarajatlarini ariza bergan oila a`zolari hisobiga o`tkazadi (FPKning 297-moddasi).

5-§. Mol-mulkni egasiz deb topish

Umumiy qoida bo'yicha egasi bo'lmagan yoki egasi nomalum bo'lgan mulk (egasiz ashyo) hisoblanadi. FKning 191-moddasi egasiz ko'chmas ashyolar tegishli davlat organining yoki fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organining arizasiga muvofiq ko'chmas mol-mulkni davlat ixtiyoriga oluvchi organ tomonidan hisobga olinadi. egasiz ko'chmas ashyo, hisobga olingandan keyin uch yil muddat utgach, davlat mol-mulkini bokarishga vakotli bo'lgan organ yoki fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organi bu ashyoni davlat mulkiga yoki fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organi mulkiga kirgan deb hisoblash to'g'risidagi talab bilan sudga murojaat etishligi belgilangan. Mol-mulkni (ashyoni) egasiz deb topish to'g'risidagi ariza moliya organi yoki FKda ko'rsatilgan boshqa vakolatli organ tomonidan mol-mulk (ashyo) turgan joydagi sudga beriladi. Sud bunday turkumdagi ishlarni ko'rishda arizada ko'rilgan talablarga deb topishni va shu mulkni egasini aniqlashga qaratilgan harakatlar, to'plangan dalillar, isbotlash vositalariga ahamiyat berishi lozim.

Ariza mulk hisobga olingan kundan e'tiboran uch yil o'tgandan so'ng beriladi (Fuqarolik kodeksining 191-moddasi).

Egasiz mulkni aniqlash va hisobga olish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

6-§. Taqdim etuvchiga deb berilgan hujjatlar yo'qotilgan taqdirda arga bo'lgan huquqlarni tiklash

Taqdim etuvchiga deb berilgan hujjatlar yo'qotilganida yo'qotilgan hujjatlar yuzasidan bo'lgan huquqlarni tiklashning (chaqirib ish yuritishning) sud tartibi belgilangan. Bunday tartib hujjat egalari shaxsiy va mulkiy manfaatlarini himoya qilish maqsadlarida o'rnatilgan. qanday hujjatlar bo'yicha huquqlarning tiklanishi mumkinligi FPKning 301-moddasida belgilangan. Bu qonunga ko'ra shaxs pul mablag'lari qo'yilganligi haqida yoki qimmatli narsalar yoxud davlat zayomi obligatsiyalari saqlash uchun topshirilganligi to'g'risidagi bank tomonidan taqdim etuvchiga berilgan qiymatli hujjatni yo'qotgan taqdirda, shuningdek qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda suddan yo'qolgan hujjatni haqiqiy deb topish va yo'qolgan hujjat bo'yicha huquqlarni tiklash to'g'risidagi iltimos qilishi mumkin. Taqdim etuvchiga deb berilgan hujjat yo'qolgan taqdirda uni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi ariza hujjatni bergan muassasa joylashgan sudga beriladi. Hujjatlarni yo'qotilganligi to'g'risidagi arizada arz qiluvchi shaxs hujjat qanday vaziyatda yo'qotilganligi, taqdim etuvchiga deb hujjat bergan muassasaning, hujjatning nomi, uning alohida belgilari va yo'qotilgan hujjatning haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi fikrlari ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Sudya arizani olgandan keyin qator protsessual xarkatlarni amalga oshiradi, jumladan mahalliy gazetada e`lon qiladi; hujjat bergan muassasaga yo'qotilgan hujjat bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishni va pul berishni ish sudda mazmunan hal bo'lgunga qadar ta'qiqlash va hokazo. Bulardan tashqari qonunda taqdim etuvchi deb berilgan hujjatni topib olgan, xullas hujjatni saqlovchi ham o'z

navbatida shu hujjatga bo'lgan huquqi to'g'risida ko'rsatilgan muddatga sudga ariza berishi va bunda o'zining fikr-mulohazalarini bayon qilish mumkinligi ko'rsatilgan.¹

Taqdim etuvchiga deb berilgan hujjat yo'qotilgan taqdirda ularga bo'lgan huquqni tiklash to'g'risidagi ishlari FPKning 148-149-moddasidagi umumiy talablar, 301-moddasida ko'rsatilgan holatlar ko'rsatiladi. Ariza bo'yicha davlat boji eng kam ish haqining 10% miqdorida undiriladi. Alohida tartibda ko'riladigan ishlar turkumiga kirgan taqdim etuvchiga deb berilgan hujjatlar yo'qolganligi to'g'risida ayrim hollarda da'vo yuritish ishlariga ham aylanishi mumkin. Agar hujjatni saqlovchiga nisbatan arz qiluvchi qarshi da'vo qo'zg'atgan hollarda bo'lishi nazarda tutiladi. Umuman ishni ko'rish va hal qilishga oid qoidalar FPKning 301-309-moddasida ko'rsatilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi 1992 yil 13 noyabrdagi qaroriga 1997 yil 2 mayda kiritilgan o'zgartirishlar bilan chiqargan «Taqdim etuvchiga deb berilgan hujjatlar yo'qolgan taqdirda ularga bo'lgan huquqlarni tiklash haqidagi arizalarning sudlar tomonidan ko'rilishi to'g'risida»gi qarorida taqdim etuvchiga deb berilgan hujjatlar e'tiborsizlik bilan saqlanishi natijasida to'lov belgilarini yo'qotganida, masalan, omonat daftarchasi yoki varaqasiga hisob rakami saqlanmaganida shu kabi boshqa hollarda ham chaqirib ish yuritish tadbiriq etilishi mumkinligi tushuniladi.

O'zlashtirish savollari

1. Alohida tartibda ish yuritish tushunchasi va mohiyati.
2. Alohida tartibda yuritiladigan ishlarni da'vo tartibida, shuningdek davlat organlari va boshqa organlar, mansabdor shaxslarning xatti-harakat (qaror)lari ustidan berilgan shikoyat va arizalar bo'yicha ish yuritishdan farqi.
3. Alohida tartibda yuritiladigan itilar va ularni ko'rish tartibi. Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni belgilash to'g'risidagi ishlar.
4. Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan ishlarni sudga taalluqliligi. Bunday ishlarni sudda ko'rishda ishtirok etuvchi shaxslar.
5. Fuqarolarni qonunda belgilab qo'yilgan tartibda bedarak yo'qolgan deb topish va o'lgan deb e'lon qilish.
6. Arizaning mazmuni, ishlarning sudlovligi. Arizani qabul qilgandan keyin sudyaning harakatlari.
7. Fuqaroi bedarak yo'qolgan deb topish va o'lgan deb e'lon qilgan ishlar bo'yicha ularning kelib qolishi yoki turar joyini aniqlash oqibatlar, fuqaroning muomala layoqati cheklangan yoki uning muomalaga layoqatsiz deb topilishi.
8. Fuqaroni muomalaga layoqatli deb topilishi uchun asoslar. Mulkni egasiz deb hisoblash. Bunday ishlarda ishtirok etuvchi shaxslar. Ishning sudlovligi. Arizaning mazmuni.
9. Ishni sudda ko'rishga tayyorlash va ko'rish. Sudning hal qiluv qarori va uning ahamiyati.
10. Taqdim etuvchiga dsb berilgan hujjatlar yo'qotilgan taqdirda ularga bo'lgan huquqlarni tiklash (chaqirib ish yuritish), arizani berish tartibi.

24-Mavzu. BIRINCHI INSTANTSIYA SUDINING HAL QILUV QARORLARI VA AJRIMLARI USTIDAN APELLYATSIYA SHIKOYATI BERISH (PROTEST KELTIRISH)

Tayanch iboralar: qonuniy kuchga kirmagan sudning hal qiluv qarorlari ustidan shikoyat va protest keltirish va ularni tekshirish institutining mohiyati va ahamiyati, apellyatsiya instantsiyasining tashkil topishi va rivojlanishi, apellyatsiya tartibida shikoyat va protest keltirish huquqi, shikoyat qilish sub`ektlari, apellyatsiya shikoyatining va protestining mazmuni, sudning shikoyat va protestni olgandan keyingi harakatlari, sudning ajrimi, birinchi instantsiya sudining ajrimlari ustidan shikoyat berish va protest keltirish, xususiy shikoyat ob`ekti, shikoyat qilish tartibi, xususiy shikoyatni ko`rish bilan bogliq ikkinchi instantsiya sudining vakolati.

Dars o`tish vositalari: mavzu nazariy ahamiyat kasb etishi bilan uni asosan ma`ruza tarzida O`zbekiston Respublikasining protsessual qonunchiligi haqida, Prezident asarlarida sud -huquq sohasini isloh qilishga qaratilgan vazifalarni hamda Oliy sudning Plenum qarorlarining - normalarini sharhlash orqali yoritiladi hamda zaruratga qarab savol-javoblar uyushtiriladi.

Dars o`tish usullari: darsning mohiyatini ijtimoiy-gumanitar fanlar yutuqlaridan foydalangan holda yorqin tahlil qilish va seminarda har bir talabanning fikrini eshitish bilan yakunlanadi.

Fuqarolik sud ishlarida ishtirok etuvchilarning huquqlari faqat birinchi instantsiya sudidagina emas, balki ishlarning ikkinchi (kassatsiya) instantsiyasiga ko`rilishida ham himoya qilinadi. Binobarin, agar ishning dastlabki sudda ko`rilishida qonun talablariga rioya qilinmagan, ish holatlarining murakkabligi yoki boshqa sabablarga ko`ra holatlarga yo`l qo`yilgan bo`lsa bunday holatlar kassatsiya tartibda ko`rib, aniqlanishi va tuzatilishi mumkin.

Ma`lumki, sudda qabul qilingan qarorlar taraflarning sub`ektiv huquq va manfaatlariga ta`sir qiladi. Shu sababli ishning ko`rilishi natijasida norozi bo`lgan shaxslar yuqori sudga shikoyat yoki potest bilan murojaat qilib, ishning tekshirilishini iltimos qilishlari mumkin. YUqori sudlar o`z navbatida birinchi intantsiya tariqasida ish ko`rgan sudlarning qabul qilgan qarorlari qanchalik to`g`ri va asosli bo`lganligini tekshirishga majburlar.

Sudning qarori qonuniy, asosli va adolatli ekanligi yuzasidan tekshiruv:

1) qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori yuzasidan kassatsiya shikoyati va kassatsiya protesti bo`yicha;

2) birinchi instantsiya sudining qonuniy kuchga kirmagan ajrimi ustidan berilgan xususiy shikoyat yoki xususiy protest bo`yicha;

3) qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori, ajrim va qarorga nisbatan nazorat tartibida protest keltirish haqida berilgan ariza bo`yicha;

4) qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori, ajrim va qarorni yangidan ochilgan holatlar bo`yicha qayta ko`rish haqidagi ariza bo`yicha qo`zg`atiladi.

Sud qarorlarini tekshirishning yuqorida ko'rsatilgan usullarining har qaysisi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Sud qarorlari ko'pincha kassatsiya tartibda tekshiriladi. FPKning 320-moddasida ko'rsatilganidek, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining hal qiluv qarorlari, shuningdek, rayon (shahar) sudlarining saylovchilar ro'yxatidagi noto'g'riliklar haqida berilgan shikoyat yuzasidan chiqargan hal qiluv qarorlari va ma'muriy tartibda O'zbekiston Respublikasidagi hamma sudlarning hal qiluv qarorlari ustidan FPKning 320-moddasida belgilangan muddatda taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning kassatsion tartibda shikoyat berishlari, prokuror protest keltirishi mumkin.

Rayon (shahar) sudlari tomonidan ko'riladigan ko'pchilik fuqarolik ishlari yuzasidan chiqarilgan hal qiluv qarorlari, ajrimlari yoki qarorlari ustidan qonunda ko'rsatilgan hollarda shikoyat (protest)lar berilganida, ular albatta tekshiriladi. Ko'rilgan ayrim fuqarolik ishlari bo'yicha kassatsion tartibda shikoyat berilmasa va u qonuniy kuchga kirsa, ular qonunda ko'rsatilgan hollarda nazorat tartibida tekshirishi va qayta ko'rilishiga qonun yo'l qo'yadi.

Yuqori sudlar kassatsiya shikoyat va protestlarni ko'rish bilan birinchi instantsiya sudlarining xatolarini tuzatadi va shu bilan odil sudlovning to'g'ri amalga oshirilishiga, fuqarolik huquqiy munosabatlarda qatnashuvchilarining huquqlarini himoya qilishga yordam beradi, quyi sudlarning qarorlarini tekshirish bilan ularni to'g'ri va qonuniy hal qiluv qarorlari chiqarish uchun yo'llaydi, ulardan qonunlarni to'g'ri tadbiiq etishni talab etadi va ular ustidan nazolat olib boradi.

Birinchi instantsiya sudi ishni ko'rib, mazmunan hal etganidan keyingi protsesual harakat, ya'ni fuqarolik jarayoni davom ettirishettirmaslik yuqori bosqichda shu ishning ko'rilish-ko'rilmassligi ish yuzasidan manfaatdor shaxslarning kassatsiya shikoyati yoki protest keltirish-keltirmasliklariga bog'liqlir.

Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Fuqarolik ishlarining» sudlar tomonidan kassatsiya tartibda ko'rilishi amaliyot to'g'risida»gi qarorlari, kassatsiya tartibda ishning ko'rilishida birinchi instantsiya sudining ishga oid bo'lgan barcha holatlarni to'la tekshirishligi; sudning qarorida ifodalangan xulosalari ish holatlariga muvofiq bo'lishligi; moddiy protsessual huquq normalarining tadbiiq etilishligi ko'rsatilgan.¹

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1976 yil 28 dekabrda va unga 12 dekabrda Plenum qarori bilan kiritilgan o'zgarishlar va qo'shimchalar to'g'risidagi qarori ishlarining kassatsiya tartibda ko'rilishi birinchi instantsiya sudining chiqargan hal qiluv qarorlarining qonuniy va asoslantirilgan bo'lishligini tekshirish lozimligi ko'rsatilgan.¹

Binobarin, sud qarorlarining qonuniy va asosli bo'lishini tekshirish uchun ishda ishtirok etuvchi shaxslar yoki prokuror tomonidan ikkinchi instantsiya sudi faoliyatining qo'zg'atilishini va bunday tekshirishning

amalga oshirilishini tartibga soladigan protsessual normalar yig'indisiga fuqarolik protsessida shikoyat qilish instituti deb aytiladi.

Bu institutning mohiyati va ahamiyati shundan iboratki, u sud qarorlarining qonuniy, asoslantirilgan va adolatli bo'lishligini, qonunlarning bir xilda tadbiiq etilishini va sharxlanishini ta'minlaydi, taraflarning sud himoyasiga bo'lgan huquqlarining amalga oshirilishini kafolatlaydi va quyidagi sudlarning faoliyatiga yuqori sudlar tomonidan rahbarlik qilishning bir shakli bo'lib ko'riladi.

Shikoyat qilish instituti o'zining shakli va mazmuni jihatidan xorijiy davlatlarning kassatsiyasidan tubdan farq qiladi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan ilgari ham, hozirda ham xorijiy davlatlarida hozirda tadbiiq etilayotgan shikoyat qilish tizimining bizning Respublikamizda protsessual huquqi qabul qilmadi, chunki bu ko'p bosqichlik printsinga, ya'ni ishning dastlabki sudda, apellyatsiya (lotincha-murojaat) sudida, kassatsion (frantsuzcha-buzish) sudda kurlishiga asoslangan tizimi manfaatdor shaxslarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgandir. Ayrim uzoq xorijiy mamlakatlarda fuqarolik ishini quyidagi tartibda shikoyat qilishi ko'rsatilgan. Birinchi instantsiya sudining qarori yuqori sudga apellyatsiya berish bilan shikoyat qilinadi. Appelatsiya sudi dalillar talab qiladi, guvohlarni so'roq qiladi, ekspertiza tayinlaydi, ancha ko'p xarajatlar bilan bog'liq harakatlarni qildiradi, xullas, ishni qaytadan yuritadi va mazmunan ko'ra boshlaydi. Ish shikoyat qilingan qismi yuzasidan, agar shikoyat butun ish bo'yicha bo'lsa-unda hamma qismi yuzasidan ko'riladi.

Appelatsiya sudining qarori ustidan yuqori sudga ishning bekor qilinishini talab etib, kassatsiya tartibda shikoyat qilinishi mumkin. Kassatsiya sudi ishning qaytadan mazmanan ko'rmasdan faqat shikoyat berilgan qismi bo'yicha, moddiy va protsessual normalarning to'g'ri tadbiiq etilganligini tekshiradi. Tekshirish yakunlariga ko'ra kassatsiya instantsiyasi appelatsiya sudining qarorini yo tasdiqlaydi yoki bekor qiladi yoxud ishni yana qaytadan ko'rishlik uchun qaytaradi.

Umuman ayganda, bu davlatlarda fuqarolik ishlarining bunday instantsiyalarda: birinchi bosqich sudida, appelatsiya va kassatsiya sudlarda ko'rilishi-ish yuritishni kechiktiradi.

Fuqarolik jarayonida shikoyat qilish instituti o'zining tubandagicha belgilari bilan ulardan, fuqarolik protsessida sud qarorlarini shikoyat qilishdan farq qiladi.

1-dan, agar xorijiy fuqarolik protsessida bir ishning mazmunan qayta-qayta, takror ko'rilishi mumkin bo'lsa, bizning protsessda bunday appelatsion formada shikoyat qilinishi va ko'rilishi belgilanmagan;

2-dan, bizda fuqarolik ishlarini sudda ko'rishda sud xarajatlarini ko'p miqdorda belgilanmagan va ishda, barcha hollarda, mehnat ishlarida alimentlar, nafaqa undirish ishlarida advokatlar shikoyatchilardan xizmat haqi olmasdan ishtirok etadilar. O'zbekiston Respublikasi qonunlarda ko'zda tutilgan hollarda fuqarolarga yuridik yurdam tekin beriladi. Xorijiy

mamlakatlarda mehnatkashlarning advokatlar orqali huquqlarini himoya qildirish uchun ularga juda ko'p goronar (xizmat haqi) to'lash belgilangan;

3-dan, fuqarolik jarayonida, ishning kassatsion instantsiyada ko'rilishida berilgan shikoyat yoki keltirilgan protestning mazmunidan qat'iy nazar, ish butunlay tekshirilishi majburiy hisoblanadi. Xorijiy mamlakatlarda kassatsion instantsiyasida esa-ish faqat berilgan doirasidagina ko'riladi;

4-dan, xorijiy mamlakatlarda fuqarolik ishining sud instantsiyalarida yuritilishi ko'p xarajatlar bilan bo'lganligi tufayli manfaatdor shaxslar buzilgan huquqlarini lozim darajada qo'riqlay olmasalar, bizda fuqarolik jarayonida shikoyat qilishning demokratik shakli o'rnatilgan bo'lib, ishda ishtirok etuvchi har bir shaxsga sud himoyasidan to'la foydalanish huquqi ta'minlanganligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida va boshqa qonunlarda asoslab berilgan.

Birinchi instantsiya sudining hal qiluv qaroriga norozi bo'lib, bu qarorni shikoyat qilish huquqidan muayyan sub`ektlar foydalanadilar. Bunday sub`ektlar jumlasiga ishda ishtirok etuvchi taraflar va boshqa shaxslar kiradi (FPKning 310-moddasi).

Prokuror ish protsessida ishtirok etgan-etmaganligidan qat'iy nazar, kassatsion protest keltirishi mumkin. Bunday protestlarni fuqarolik ishlarining sudda ko'rilishida ishtirok etgan prokuror yordamchilari, tegishli prokuraturalarning bo'lim prokurorlari ham keltirishlari mumkin.

Boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qilib sudda ishtirok etgan davlat boshqaruvi organlari, kasaba uyushmalari muassasalar, korxonalar, jamoat tashkilotlari, shuningdek ayrim fuqarolar ham shikoyat qilish huquqiga egadirlar.

Shikoyat qilish huquqi sudning hal qiluv qarori chiqarilganidan keyin paydo bo'ladi. Bu huquq kassatsion shikoyat berilishi bilan amalga oshiriladi. Kassatsion shikoyat yuqori sud intantsiyasiga yozilib, fuqarolik ishiga qo'shilgan holda, qaror chiqargan sud orqali yuboriladi. Qonuniy kuchga kirmagan sudning hal qiluv qarorlari va ajrimlari shikoyat qilish huquqining ob`ektlari bo'ladi. Kassatsion shikoyat yoki protest sud tomonidan hal qiluv qarori chiqarilgan kundan boshlab yigirma kun ichida berilishi mumkin. Ko'rsatilgan muddat o'tgandan so'ng berilgan shikoyat yoki protest ko'rilmagan qoldiriladi va shikoyat yoki protest bergan shaxsga qaytaradi. qonun bilan belgilangan bu muddat o'zgartirilmaydi. Agar bu muddatning o'tkazilishini sud uzrli deb topsa, uni tiklash to'g'risidagi masalani ko'rib, hal etadi. qonunda kassatsion muddatni belgilashdan maqsad: ishning ikkinchi instansiya sudida tezda ko'rilishini ta'minlaydi va ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ko'rilgan ish materiallari bilan tanishish hamda ish yuzasidan chiqarilgan qarorga rozi bo'lmaganida, kassatsiya shikoyat yoki protest bildirishga imkoniyat berishdan iborat. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar shikoyat qilish huquqidan erkin foydalanishlari, jumladan, bergan shikoyatlardan voz kechishlari ham mumkin. Ammo uni qabul qilish-kilmaslik sudga bog'liqdir.

Kassatsiya shikoyati yoki protestning mazmuni va uni berish tartibi FPKning 322-323-moddalarida belgilangan. Bu qonunlarda ko'rsatilishicha,

kassatsiya shikoyat yoki protestning mazmunida shikoyat yoki protest beruvchi shaxsning nomi; shikoyat qilinayotgan yoki protest keltirilayotgan hal qiluv qarori va bu hal qarorini chiqargan sud; hal qiluv qarorini noto'g'riligini nimadan iborat ekanligi; shikoyat yoki protest beruvchi shaxsning iltimosi; shikoyat yoki protestga ilova qilingan yozma materiallarning ro'yxati ko'rsatiladi.

Kassatsion shikoyatlarga shikoyat beruvchi shaxs yoki uning vakili kul qo'yadi, protest esa-prokuror tomonidan imzolanadi. Vakil tomonidan beilgan kassatsion shikoyat vakolanoma yoki shu vakilning huquqini guvohlantiradigan boshqa hujjat ilova qilinishi lozim.

Kassatsion shikoyat yoki protest sud protsessida ishtirok etuvchi shaxslarning soniga qarab nusxalar bilan qo'shib beriladi.

Sudya, zarur hollarda, kassatsion shikoyat bergan shaxsga yoki protest keltirishgan prokurorga kassatsion shikoyatga yoki protestga ilova qilingan yozma materiallarning ishda ishtirok etuvchi shaxslar soniga qarab nusxalar bilan topshirish majburiyatini yuklay oladi.

Ishdan g'ayriqonuniy bo'shatilgan yoki boshqa ishga noto'g'ri o'tkazilgan xodimni ishga tiklash yoki avvalgi vazifasiga qo'yish to'g'risida sud chiqargan hal qiluv qarori ustidan kassatsion shikoyat, shu shikoyatga mazkur qarorni ijro etish to'g'risidagi hujjat ilova qilingan taqdirdagina qabul qilinadi.

Asoslantirilmagan shikoyat yoki protestning berilishi qarorning tekshirilishini qiyinlashtiradi, biroq shunday bo'lsada ishda ishtirok etuvchilarni shikoyat yoki protestga e'tirozlar bildirish imkoniyatidan mahrum qilmaydi.

Sudning hal qiluv qaroriga keltiriladigan kassatsion shikoyatdan nizoli summa bo'yicha da'vo arizalari uchun belgilangan stavkaning 50 foizi miqdorida boji olinadi. Agar kassatsion shikoyat yoki protest berishda FPKning 322 va 323-moddalarining talablari buzilgan bo'lsa yoki davlat boji to'lashdan ozod qilinmagan shaxs boji to'lamagan bo'lsa, kassatsion shikoyat yoki protest harakatsiz qoldiriladi. Kassatsion shikoyat yoki protestni harakatsiz qoldirish to'g'risida sudya shu shikoyatning yoki protestni harakatsiz qoldirishga asos bo'lgan kamchiliklarni va ularni tuzatish uchun berilgan muddatni ko'rsatib, ajrim chiqaradi. Shikoyat yoki protest bergan shaxs belgilangan muddatda ajrimda ko'rsatilgan kamchiliklarni tuzatsa, shikoyat yoki protest dastlab sudga taqdim etilgan kunda berilgan deb hisoblanadi. Aks holda, shikoyat yoki protest berilmagan hisoblanib, shikoyat yoki protest bergan shaxsga qaytariladi.

Qonun (FPKning 325-moddasi)da sudya kassatsion shikoyat yoki protest olinganidan so'ng ishning instantsiyada har tomonlama, ob'ektiv ravishda va tezlik bilan ko'rilishini ta'minlashga ko'ratilgan ba'zi harakatlarni qilishga majbur ekanligini ko'rsatadi. Sudya yoki sud raisi ishda ishtirok etuvchi shaxslarga shikoyat yoki protestning nusxalarini yuboradi, ularni ishning ko'rilish vaqti va joyi to'g'risida xabardor qiladi, hal qiluv qarori ustidan shikoyat berish yoki protest keltirish uchun belgilanmagan muddat o'tgan vaqtdan boshlab o'n kun ichida ishni shikoyat yoki protest bilan birga kassatsion instantsiya sudiga yuboradi.

Hal qiluv qarori ustidan shikoyat berish, protest keltirish uchun belgilangan muddat ichida ishni suddan hech kimning talab qilib olishi mumkin emas. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar va prokuror ish mareriallari va tushgan shikoyatlar yoki protest bilan tanishishga xiklidirlar.

Protsessda kassatsion shikoyat bargan tomonda qatnashuvchi qo'shimcha ishtirokchilar va uchinchi shaxslar berilgan shikoyatga qo'shila oladilar. Bunday shikoyat ish kassatsion instantsiyada ko'rib, ish yuzasidan ajrim chiqarilganiga qadar berilishi mumkin.

Kassatsion shikoyatga qo'shilish uchun shikoyatchilarning talablari bir turda bo'lishi kerak. Agar shikoyatga qo'shilishda boshqacha talab qo'yilsa, Jumladan, asosiy shikoyat arizasida sud qarorining faqat o'zgartirilishigina talab qilingan bo'lsa-shikoyatga qo'shilishda ishning butunlay bekor qilinishi talab qilib bo'lmaydi. Aks holda bu shikoyatga qo'shilish bo'lib ko'rilmadan, balki mustaqil ravishda beriladigan kassatsion shikoyat bo'lib ko'riladi. Shikoyatga qo'shilish to'g'risidagi ariza sud qaroriga alohida shikoyat qilish bo'lmagani uchun kndan davlat boji olinmaydi.

Hal qiluv qarorining ikkinchi instantsiya sudida mumkin qadar to'la tekshirilishini ko'zlab qonun (FPKning 327-moddasi) ishda ishtirok etuvchi shaxslar shikoyat yoki protest yuzasidan sudga izoh tushuntirish berishga (e'tiroz bildirishga) va bu e'tirozni tasdiqlaydigan hujjatlarni unga ilova qilib topshirishga haqli bo'lishlari ko'rsatiladi. Tushuntirish (e'tiroz) nusxalari ishda ishtirok etuvchi shaxslarning soniga qarab beriladi.

Shikoyat yuzasidan e'tiroz bildirish majburiy emas. Ammo ishning kassatsion instantsiyada ko'rilishida shaxsan ishtirok etish mumkin bo'lmagan hollarda bunday e'tirozning berilishini muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Fuqarolik protsessida erkin huquq tamoyili, ya'ni moddiy va protsessual huquqlarni amalga oshirish-oshirmaslik ishda ishtirok etuvchining o'z ixtiyorida bo'lish tufayli kassatsion shikoyatbergan shaxs undan voz kechishga haqlidir. Lekin bunday voz kechish, agar u qonunga zid bo'lmasa yoki bironing huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzilmasagina sud tomonilan qabul qilinishi mumkin.

Kassatsion protest keltirgan prokuror, shuningdek undan yuqori turuvchi prokuror sud majlisi boshlangunga qadar protestni qaytarib olishga haqlidir.

Shikoyatdan voz kechish qabul qilinganda va protest qaytarib olinganda, agar hal qiluv qarori ustidan boshqa shaxslar shikoyat qilmagan bo'lsa, sud ajrim chiqarib kassatsion tartibda ish yuritishni tugatadi (FPKning 329-moddasi).

Kassatsion instantsiya sudiga shikoyat (protest) berish muddatlari qonunda (FPKning 320-moddasida) belgilangan. Ko'rsatilgan muddat o'tgandan keyin berilgan shikoyat (protest) ko'rsatilmasdan qoldiriladi. o'tkazib yuborilgan muddatni tiklash masalasi qonun (FPKning 128-moddasi) asosida hal etiladi. Shikoyat yoki protest berish uchun belgilangan kunda raislik qiluvchi sud majlisini ochadi va kimning shikoyati yoki protest bo'yicha hamda qaysi sudning hal qiluv qarori yuzasidan qanday ish ko'rilishi e'lon qiladi, ishda ishtirok etuchi shaxslarning birlari kelganligini, agar kelmagan

bo'lsa, uning sabablarini aniqlaydi, shuningdek mansabdor shaxslar va vakillarning vakolatini tekshiradi.

So'ngra raislik qiluvchi sud hay'atini e'lon qiladi, prokuror va tarjimon sifatida kimning qatnashganligini ma'lum qiladi va ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ularning chetlatish haqida arz qilish huquqini, ularning protsessual huquq va burchlarini tushuntiradi. Agar ishda ishtirok etuvchi shaxslardan yoki vakillardan birortasi sud majlisiga kelmagan taqdirda, ishni ko'rish vaqti va joyi to'g'risida ular xabardor qilinganligi haqida ma'lumotlar bo'lmasa, sud ishni ko'rishni keyinga qoldiradi.

Ishning kassatsion sudda ko'rilishi vaqti to'g'risida xabardor qilingan shaxslarning kelmaganligi ishni ko'rishga to'sqinlik qilmaydi. Lekin sud bunday hollarda ham kelmaslik sabablarini uzrli deb topsa, ishni keyinga qoldirishga haqlidir. Prokuror yoki advokat uzrsiz sabab bilan kelmasa, sud xususiy ajrim chiqaradi va bu holda tegishli yuqori turuvchi prokurorga yoki advokatlar malaka komissiyasiga ma'lum qilinadi.

Ishning kassatsion sudda ko'rilishiga qadar va ko'rilishi davomida ham kassatsion shikoyatdan voz kechish va kassatsion protestni qaytarib olish mumkin bo'lganidek, qonun da'vogarning da'vodan voz kechishga va taraflarning kelishuv bitimi tuzishlariga yo'l qo'yadi. Sudda rais taraflarning bunday huquqlari borligini tushuntiradi. Kassatsion shikoyat yoki protest berilgandan so'ng davogarning da'vodan voz kechishi va taraflarning kelishuv bitimi tuzishi kassatsion instantsiya sudiga yozma shaklda bildirilishi lozim. Da'vodan voz kechanlikni qabul qilishdan yoki kelishuv bitimini tasdiqlashdan oldin sud da'vogarga yoki taraflarga ularning bunday protsessual harakatlarning oqibatlarini tushuntiradi.

Da'vogarning da'vodan voz kechganligini qabul qilganida yoki taraflarning kelishuv bitimi tasdiqlanganida, kassatsion instantsiya chiqarilgan hal qiluv qarori bekor qiladi va ishning yurgizishini tugatadi. Agar da'vogarning da'vodan voz kechganligi yoki taraflarning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga xilof bo'lsa, u holda sud bu voz kechishlikni yoki kelishuv bitimini rad qilib, ishni kassatsion tartibda ko'rilaveradi.

Ishda ish ishtirok etuvchi shaxslarning kassatsion instantsiyaga bergan iltimos va arizalari, Jumladan, sudya yoki sud tarkibini chetlatish (otvod) berish, ishning ko'rilishini boshqa vaqtga qoldirish, ishga qo'shimcha materiallarni qabul qilish to'g'risidagi iltimoslar, bu to'g'risida ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning fikrlari va prokurorning xulosasi eshitilgach, sud tomonidan bunday iltimos va arizalarning xarakteri va murakkabligiga qarab yo maslaxatxonada yoki sud majlisi zalida hal qilinadi. Agar iltimos yoki arz alohida xona (maslaxatxona)da muhokama qilinsa-bu to'g'rida ajrim chiqariladi va bu ajrim davhol sud zalida eshittiriladi.

Kassatsion instantsiya sudida ishni ko'rish raislik qiluvchining yoki sudyalardan birining ma'ruzasi bilan boshlanadi. Ko'riladigan ish materiallari bilan puxta, chukur tanishgan ma'uzachi ishning holatlarini, birinchi instantsiya sudining hal qiluv qarorining mazmunini, kassatsion shikoyat yoki protest bildirilgan mulohazalari va ular yuzasidan berilgan tushuntirishlarni,

sudga keltirilgan yangi yozma materiallarning mazmunini, shuningdek sudning ko'rish zarur bo'lgan hamma ma'lumotlarni holisona ravishda bayon qilib beradi.

Ma'ruzadan so'ng sud majlisida ishtirok etuvchi shaxslar va vakillarning bayonotlari eshitiladi. Ular kassatsion shikoyatda yoki protestda ko'rsatilmagan dalillarni va qo'shimcha materiallarni ham keltirishga haqlidirlar. Ularga ish bayonotlari aytishga, vajlarni keltirishga to'la imkoniyat berilishi lozim.

Dastavval kassatsion shikoyat bergan shaxs va uning vakili agar ish protest bo'yicha ko'rilayotgan bo'lsa-prokuror, hal qiluv qarori ustidan har ikki tomon qilgan bo'lsa-sudga murojaat etgan manfaatdor shaxs so'zga chiqadi.

FPKning 5 va 48-moddalari tartibda ishda ishtirok etayotgan shaxslar agar ular hal qiluv qarorlari ustidan shikoyat bermagan bo'lsalar, kassatsion instantsiya sudida taraflar va uchinchi shaxslardan so'ng so'zga chiqaradilar.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar bayonot berganlaridan so'ng prokuror hal qiluv, qarori naqadar qonuniy, asosli va adolatli ekanligi to'g'risida o'z xulosasini beradi. Uning bu xulosasi yozma shaklda bo'lishi shart emas. Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning bayonotlarini etishgandan so'ng kassatsion instantsiya sudi ajrim chiqarish uchun maslaxatxonaga kiradi. Kassatsiya sudining ajrimi ish ko'rilgandan so'ng darhol FPKning 203, 205-moddalarida ko'rsatilgan tartibda chiqariladi va eshittiriladi.

Ikkinchi instantsiya sudi ishni kassatsion tartibda ko'rish vaqtida ishga oid va taraflar hamda ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar tomonidan qo'shimcha ravishda keltirilgan materiallar bo'yicha birinchi instantsiya sudining hal qiluv qarorining shikoyat qilingan qismi ham, shikoyat qilinmagan qismi ham, shuningdek shikoyat bermagan shaxslarga nibatan qanchalik qonuniy va asosli ekanligini tekshiradi.

Sud kassatsion shikoyatdagi yoki protest dalillar bilan cheklanmasdan, ishni to'liq hajmda tekshirishda majbur (FPKning 332-moddasi).

Sud asoslantirilgan hal qiluv qaror chiqarishi uchun ko'riladigan ishni, to'la va har tomonlama tekshirishi lozim. Sudlarimiz deyarli barcha hollarda to'g'ri qarorlar chiqaradilar. Ammo ayrim hollarda ishdagi materiallar bilan yaxshi tanishmaslik, ularni chukur tekshirmaslik, qonunni tushunmaslik va to'g'ri tadbiiq etmaslik tufayli va boshqa ba'zi sabablarga ko'ra asoslantirilmagan va qonunga xilof hal qiluv qarorining chiqarilishi hollari ham ro'y beradi. Sudning hal qiluv qarori asoslantirilmagan g'ayriqonuniy bo'lishligi fuqarolik ishini kassatsion tartibda ko'rish, tekshirish va bekor qilish uchun birinchi instantsiya sudigi yuborishga asos bo'ladi.

Sudning hal qiluv qarori asoslantirilmagan deganimizda ish uchun ahamiyatli holatlarning to'la aniqlanmaganligi va isbotlanmaganligini, sudning hal qiluv qarorida bayon qilingan xulosalarning ish holatlariga muvofiq kelmasligini tushunamiz.

Sud hal qiluv qarorining g'ayriqonuniyligi-uning qonunga, ya'ni ishning ko'rilishi va hal etilishida tadbiiq etilishi lozim bo'lgan moddiy va protsessual huquqiy me'yorlariga muvofiq bo'lmasligidir. Moddiy huquq normalari yoki

protsessual huquq normalarining buzilganligi yoki noto'g'ri tadbiiq qilinganligi hal qiluv qarorini bekor qilish va ishni yangidan ko'rish uchun birinchi instantsiya sudiga yuborishga asos bo'ladi. FPKning 313-moddasida aytilishicha, agar sud tadbiiq qilinishi lozim bo'lgan qonunni tadbiiq qilinmagan bo'lsa, ikkinchi agar sud tadbiiq qilinishi lozim bo'lmagan qonunni tadbiiq qilgan bo'lsa va uchinchi, agar sud qonunni noto'g'ri sharxlagan bo'lsa-huquq normalari buzilgan yoki noto'g'ri tadbiiq qilingan bo'lib hisoblanadi.

Moddiy huquq normalarining buzilishi yoki noto'g'ri tadbiiq etilishi-asossiz hal qiluv qarori chiqarilishi hollardagina, jumladan, sudning xulosalari ish holatlariga to'g'ri kelmaganidagina hal qiluv qarorini bekor qilish yoki o'zgartish uchun asos bo'ladi. Agar birinchi instantsiya sudi ish holatlarini to'la va to'g'ri aniqlagan bo'lsa-yu, ammo moddiy huquq normalari tadbiiq etishda xatoga yo'l kuygan bo'lsa, bunday kamchilik ikkinchi instantsiya sudi tomonidan tuzatilishi mumkin (FPKning 316-moddasi).

Protsessual huquq normalarini buzish yoki noto'g'ri tadbiiq qilish ishni noto'g'ri hal etishga sabab bo'lgan yoki sabab bo'lishi mumkin bo'lgan taqdirdagina hal qiluv qarorini bekor qilishga asos bo'la oladi. Ammo FPKning 314-moddasida ko'rsatilganidek, quyidagi hollarda: 1) ish sudning g'ayrikonuiy tarkibida ko'rilsa, 2) ish sud muhokamasida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan, ammo sud majlisining vaqti va joyi to'g'risidagi xabar berilmasdan, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning birortasining yo'qligida ish ko'rilsa, 3) ish ko'rilayotganda til haqidagi qoidalar buzilsa, 4) sud ishda qatnashishga jalb qilinmagan shaxslarning huquq va burchlari haqidagi masalani hal qilgan bo'lsa, 5) hal qiluv qarori, ajrim, qaror chiqarishda sudlar maslaxatining sir saqlanishi haqidagi qoidalar buzilsa, 6) hal qiluv qarori, ajrim, qaror sudyalardan birortasi (sudya) tomonidan imzolangan yoki hal qiluv qarori ko'rsatilmagan sudyalar tomonidan imzolangan bo'lsa, 7) hal qiluv qarori, ajrim, qaror ishni ko'rgan sud tarkibiga kirmagan sudyalar tomonidan chiqarilgan bo'lsa, 8) ishda sud majlisi bayonnomasi bo'lmasa yoki u imzolanmagan bo'lsa, hal qiluv qarori, ajrim, qaror albatta bekor bo'ladi.

O'zlashtirish savollari

1.Qonuniy kuchga kirmagan sudning hal qiluv qarorlari ustidan shikoyat va protest keltirish va ularni tekshirish institutining mohiyati va ahamiyati.

2.Apellyatsiya instantsiyasining tashkil topishi va rivojlanishi. Apellyatsiya tartibida shikoyat va protest keltirish huquqi. SHikoyat qilish sub`ektlari.

3.Apellyatsiya shikoyatining va protestining mazmuni.

4.Sudning shikoyat va protestni olgandan keyingi harakatlari. Sudning ajrimi.

5.Birinchi instantsiya sudining ajrimlari ustidan shikoyat berish va protest keltirish.

6.Xususiy shikoyat ob`ekti, shikoyat qilish tartibi, xususiy shikoyatni ko'rish bilan bogliq ikkinchi instantsiya sudining vakolati.

25-Mavzu. BIRINCHI INSTANTSIYA SUDINING HAL QILUV QARORLARI VA AJRIMLARI USTIDAN KASSATSIYA SHIKOYATI BSRISH (PROTEST KELITIRISH)

Tayanch iboralar: kassatsiya instantsiyasining tashkil topishi va rivojlanishi, kassatsiya tartibida shikoyat va protest keltirish huquqi, shikoyat qilish va protest keltirish ob`ekti va sub`ektlari, kassatsiya shikoyatining va kassatsiya protestining mazmuni, shikoyat va protestni ko`radigan sudlar, kassatsiya tartibida keltirilgan shikoyat va protestlarning ko`rilishi va uning protsessual tartibi, shikoyat, protest yuzasidan kassatsiya instantsiya sudining vakolatlari (hal qiluv qarorini o`zgartirish, bekor qilish yoki yangi hal qiluv qarorini chiqarish uchun asoslar), birinchi instantsiya sudining ajrimlari ustidan shikoyat berish va protest keltirish.

Dars o`tish vositalari: mavzu nazariy ahamiyat kasb etishi bilan uni asosan ma`ruza tarzida O`zbekiston Respublikasining protsessual qonunchiligi haqida, Prezident asarlarida sud -huquq sohasini isloh qilishga qaratilgan vazifalarni hamda Oliy sudning Plenum qarorlarining - normalarini sharhlash orqali yoritiladi hamda zaruratga qarab savol-javoblar uyushtiriladi.

Dars o`tish usullari: darsning mohiyatini ijtimoiy-gumanitar fanlar yutuqlaridan foydalangan holda yorqin tahlil qilish va seminarda har bir talabning fikrini eshitish bilan yakunlanadi.

Fuqarolik ishi sudda ko`rib hal etilgan manfaador shaxs, uning yakunidan hamisha qanoatlanavermaydi. Shu boisdan ishni ko`rilishidan va uning yakunidan norozi bo`lgan shaxslar, o`zlarining qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishni davom ettirish maqsadida yuqori sudga shikoyat, boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qiluvchi prokuror esa, protest keltirish huquqidan foydalanadilar. Demak, sudning tegishli masala bo`yicha chiqargan qarori ularning sub`ektiv huquqiga ta`sir ko`rsatganligidan dalolat beradi. Shu tufayli, undan keyin protsessni davomiyligi ishda ishtirok etuvchi shaxslarning, prokurorni ham birinchi instantsiya sudining chiqargan aktiga nisbatan bo`ladigan munosabatiga bog`liq bo`ladi. Agar manfaador shaxslar sudning chiqargan hal qiluv qarori, ajrimlaridan qanoat hosil qilmasalar yuqorida bayon etilganidek, ish qayta ko`rilishi mumkin.

Fuqarolik ishlarini qayta ko`rish institutlaridan biri bo`lib, kassatsiya tartibida ish ko`rish hisoblanadi. Yuqorida ta`kidlab o`tilganidek, ishlarni qayta ko`ruvchi sudlarning har biri qonunda belgilangan huquqlardan foydalanishi, bundan oldingi appelyatsiya bosqichida ish ko`rish bobida aytib o`tilgan edi.

O`zbekiston Respublikasi fuqarolik protsessual qonunchiligi kassatsiya tartibida ish ko`rish institutidan 2000 yil dekabrda qadar¹ fuqarolik ishlarini sudda qayta ko`rishda ikkinchi instantsiya sudi sifatida foydalanib kelingan va shu asosida qonuniy kuchga kirmagan birinchi instantsiya sudining hal qiluv qarorlari va ajrimlariga shikoyat berish, prokuror esa, protest keltirish

huquqidan foydalanilgan edi. Ayni vaqtda kassatsiya instantsiya sudida apellyatsiya sudining ayrim elementlari bo'lib, u har ikki bosqich sudlarining vakolatlarini bajargan deyishlikka tegishli asoslar mavjud bo'lgan deb ta'kidlansa, xatolikka yo'l qo'yilmagan bo'ladi, degan fikr tug'iladi.

Kassatsiya-frantsuzcha-buzish ma'nosini anglatib, ko'rilgan fuqarolik ishlarini qayta ko'rish tushuniladi.

Fuqarolik protsessual qonunchiligiga kiritilgan kassatsiya tartibida ish yuritish institutining maqsadi ishni qaytadan to'lig'icha, mazmunan ko'rmasdan faqat ishning shikoyat qilingan qismi bo'yicha moddiy va protsessual huquqiy me'yorlarining to'g'ri tadbiiq etilganligini tekshiradi.

FPKga yangi kiritilgan va 2000 yil dekabridan amalda tadbiiq etilayotgan kassatsiya instantsiyasida ish ko'rish qator jihatlari bilan oldingi kassatsiya institutidan farqlanadi, jumladan kassatsiya shikoyatini berish, protest keltirish huquqiga ega bo'lgan shaxslar va qaysi muddatda berilishi FPKning 348-moddasida ifodalangan. Unda ko'rsatilishicha, O'zbekiston Respublikasi barcha sudlarining qonuniy kuchga kirgan, apellyatsiya tartibida ko'rilmagan hal qiluv qarorlari, ajrimlari ustidan sudning hal qiluv qarori, ajrimi chiqqan kundan e'tiboran bir yil ichida taraflar va ishda ishtirok etishga jalb qilingan shaxslar tomonidan kassatsiya shikoyati berilishi va prokuror tomonidan protest keltirilishi mumkin.

Demak, kassatsiya sudida birinchi instantsiya sudi tomonidan ko'rib hal etilgan va apellyatsiya sudiga shikoyat (protest) berilmagan, qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qaror va ajrimlar ko'rsatilishi nazarda tutiladi.

Kassatsiya tartibida ishlarni ko'rish fuqarolik ishlari bo'yicha qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudida, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlarida uch nafar sudyadan iborat tarkibda ko'riladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, shikoyat berish huquqiga apellyatsiya tartibidagidek taraflar (da'vogar, javobgar), uchinchi shaxslar, ularning vakillari protsessda boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etgan prokuror sudning hal qiluv qarori, ajrimi, qarori ustidan kassatsiya instantsiyasiga huddi apellyatsiya tartibidagidek, faqat o'zining ishtirokida ko'rilgan ishlar bo'yicha protest keltirish huquqiga egadir (FPKning 310-moddasi).

Kassatsiya sudiga shikoyat berish (protest) keltirish huquqi manfaatdor shaxslarda hal qiluv qaror, ajrim qonuniy kuchga kirgandan keyin paydo bo'ladi va bu aktlar shikoyat (protest) keltirish ob'ekti bo'ladi.

Kassatsiya shikoyatlari va protestlari kassatsiya instantsiya sudi nomiga yoziladi, lekin hal qiluv qarori chiqargan sudga beriladi.

Fuqarolik protsessual qonunchiligida kassatsiya tartibida shikoyat qilish (FPKning 348¹-moddasi) uchun bir yillik muddat belgilanishi ish ko'rishni asossiz cho'zmaslik, ko'p vaqt o'tishi bilan uning mohiyatini yo'qotishning oldini olish va shu bilan manfaatlar shaxslarning qonuniy huquqlarini himoya qilishga qaratilgan muddat bo'lib xizmat qiladi.

Amaldagi Fuqarolik protsessual kodeksiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar (FPKning 248-moddasi)ga ko'ra, kassatsiya shikoyatlari (protestlari)ni quyidagi sudlarning sudloviga tegishli ekanligi belgilangan:

1) Fuqarolik ishlari bo'yicha qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari-tegishli fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo sudlarning hal qiluv qarorlari ustidan, Fuqarolik ishlari bo'yicha qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudining, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining hal qiluv qarorlari ustidan berilgan kassatsiya shikoyatlarini (protestlarini);

2) O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi-okrug va hududiy harbiy sudlarning hamda O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining hal qiluv qarorlari ustidan berilgan shikoyatlarini (protestlarini);

3) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati-O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining hal qiluv qarorlari ustidan berilgan kassatsiya shikoyatlarini (protestlarini);

4) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Harbiy hay'ati-O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Harbiy hay'atining hal qiluv qarorlari ustidan berilgan kassatsiya shikoyatlarini (protestlarini) ko'radi.

Kassatsiya shikoyatlari va protestlarni kassatsiya instantsiya sudi nomiga yoziladi, lekin hal qiluv qarori chiqargan tumanlararo sudlari orqali yuboriladi.

Agar ish ko'rishda vakil qatnashgan bo'lsa, vakil tomonidan berilgan kassatsiya shikoyatiga ishonchnoma yoki vakilning vakolatini tasdiqlaydigan boshqa hujjatlar ilova qilinadi. Kassatsiya shikoyati berish (protest keltirish) tartibi FPKning 348³-moddasida o'z ifodasini topgan.

Kassatsiya shikoyati berish (protest keltirish) uchun uning sabablarini puxta tahlil etgan holda FPKning 348⁴-moddasi talablari asosida berish talab etiladi. Bu huquqiy me'yorda ko'rsatilishicha:

1) shikoyat berilayotgan yoki protest keltirilayotgan sudning nomi;

2) shikoyat berayotgan yoki protest keltirayotgan shaxsning nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi);

3) shikoyat berayotgan yoki protest keltirilayotgan hal qiluv qarori va uni chiqargan sud;

4) hal qiluv qarorining noto'g'riligi nimadan iborat ekanligi;

5) shikoyat berayotgan yoki protest keltirayotgan shaxsning iltimosi;

6) shikoyat yoki protestga ilova qilingan yozma materiallarning ro'yxati.

Kassatsiya shikoyati beratgan shaxs birinchi instantsiya sudiga taqdim etilmagan yangi dalillarni keltirishga, ularni birinchi instantsiya sudiga taqdim etishning imkoni bo'lmaganligi asoslab berilgan hollardagina yo'l qo'yiladi.

Kassatsiya shikoyatini shikoyat berayotgan shaxs yoki uning vakili imzolaydi. Kassatsiya protesti prokuror yoki uning o'rinbosari tomonidan keltiriladi va imzolanadi.

Kassatsiya shikoyati (protesti) sudda ishtirok etuvchi shaxslarning soniga qarab nusxalar bilan qo'shib beriladi.

Sudya zarur hollarda, kassatsiya shikoyati bergan shaxsga yoki protest keltirgan prokurorga, shikoyat (protest)ga ilova qilingan yozma materiallarning ishda ishtirok etuvchi shaxslar soniga qarab, nusxalar bilan topshirish majburiyatini yuklay olishi mumkin.

Kassatsiya shikoyatini beruvchi shaxs belgilangan miqdordagi (da`vo talablarini 50% miqdoridagi) davlat bojini to`lashi lozim.

Agar kassatsiya shikoyati berish yoki protest keltirish paytida FPKning 348³ va 348⁴-moddalari talablari buzilishiga yo`l qo`yilgan bo`lsa yoki davlat boji to`lashdan ozod qilinmagan shaxs shikoyat berganlik uchun boj to`lamagan bo`lsa, kassatsiya shikoyati yoki protesti harakatsiz qoldiriladi.

Kassatsiya shikoyati yoki protestini harakatsiz qoldirish to`g`risida sudya bu shikoyat yoki protestni harakatsiz qoldirilishiga asos bo`lgan kamchiliklarni va ularni tuzatish uchun berilgan muddatni ko`rsatib ajrim chiqaradi.

Agar shikoyat bergan yoki protest keltirgan shaxs ajrimda ko`rsatilgan kamchiliklarni belgilangan muddatda tuzatsa, shikoyat yoki protest dastlab sudga taqdim etilgan kunda berilgan hisoblanadi. Aks holda, shikoyat yoki protest berilmagan hisoblanib, shikoyat bergan yoki protest keltirgan shaxsga qaytariladi va bu haqda ajrim chiqariladi.

Birinchi instantsiya sudiga kassatsiya shikoyati (protesti) kelib tushgandan so`ng sudya ishni belgilangan protsessual muddatlarda ko`rishga qaratilgan bir qator protsessual harakatlarni amalga oshiradi, jumladan:

1) ishda ishtirok etuvchi shaxslarga shikoyat yoki protestning nusxalarini yuborish;

2) ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ishni kassatsiya instantsiyasida ko`rish vaqti va joyi to`g`risida ma`lum qilishi;

3) sud qarori ijrosini (agar u ijro etilmagan bo`lsa) ish kassatsiya tartibida ko`rilguniga qadar to`xtatib qo`yishi va bu xususda manfaatdor shaxslar, tashkilotlarni xabardor etishi;

4) kassatsiya shikoyati yoki protesti kelib tushgan kundan e`tiboran yigirma kunlik muddat ichida ishni tushgan shikoyat va protest bilan birga kassatsiya instantsiyasi sudiga yuborishi shart.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudga ish materiallari va tushgan shikoyatlar yoki protest bilan tanishishga haqli.

Bu harakatlar kassatsiya instantsiya sudida ishlarni har tomonlama ob`ektiv ravishda va tezda ko`rishlikni ta`minlashga qaratilgandir.

Kassatsiya instantsiya sudi nomiga shikoyat (protest) berilganda birinchi instantsiya sudidan ishni biron bir mansabdor, vakolatli shaxs belgilangan shikoyat (protest) berish muddati ichida talab qilishga haqli emaslar.

Taraflar va ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan berilgan kassatsiya shikoyatiga shu shaxslar tarafida ishtirok etuvchi sherik ishtirokchilari lozim hollarda shikoyatga qo`shilishlari mumkin.

Birinchi instantsiya sudlari manfaatdor taraflar tomonidan berilgan kassatsiya shikoyatining qanchalik asoslantirilganligi haqida o`z fikrlarini (e`tirozlarini) bildirishlari mumkin, buning uchun, tegishli hujjatlarni e`tiroznomaga qo`shib berishligi lozim bo`ladi. Shikoyat yuzasidan e`tiroz bildirish majburiy bo`lmay, ularning huquqidir.

Kassatsiya instantsiya sudi ishni shikoyat (protest) bilan birga olgandan so'ng, FPKning 348⁹-moddasida ko'rsatilgan protsessual harakatlarni bajaradi.

Apellyatsiya bosqichidagi kabi kassatsiya sudida ham shikoyat bergan manfaatdor shaxs uni to'ldirishi, o'zgartirishi yoki undan voz kechishi mumkin.

Kassatsiya protesti bildirgan prokuror, shuningdek yuqori turuvchi prokuror sud majlisi boshlanguniga qadar protestni to'ldirish, o'zgartirish yoki qaytarib olishga haqli.

Agar hal qiluv qarori ustidan boshqa shaxslar shikoyat bermagan bo'lsa, shikoyatdan voz kechish qabul qilinganligi to'g'risida va protest qaytarib olingan taqdirda, kassatsiya instantsiya sudi ajrim chiqarib, kassatsiya tartibida ish yuritishni tugatadi.

Shikoyat va protest keltirish huquqidan foydalanish ishda ishtirok etuvchi shaxslarning erkin huquq tamoyiliga asoslangan bo'lib, qonunda ko'rsatilgan moddiy va protsessual huquqlarini amalga oshirish ularning majburiyati bo'lmasdan balki huquqidir.

Demak, ana shunday huquqdan foydalanish manfaatdor shaxslarga nisbatan hach qanday tashqaridan ta'sir etuvchi tazyiq bo'lmagan taqdirdagina amalga oshirilishi lozim. Aks holda sud bunday shikoyatdan voz kechishni g'ayriqonuniy deb topishi va uni qanoatlantirmasligi mumkin.

Yuqorida ko'rsatilganidek, prokuror kassatsiya shikoyatini sud majlisi boshlanguniga qadar qaytarib olishi, to'ldirishi, o'zgartirishga haqli, chunki kassatsiya sudida ish ko'rilishi boshlangandan so'ng protestda ko'rsatilgan holatlar tasdiqlanmasligi mumkin. SHuning uchun, bunday tartib prokurorni protest keltirishdan avval chuqur mulohaza etish ishni qonuniy hal etishga qaratilgan holatlarni tahlil etgan holda munosabatda bo'lish nazarda tutilgandir.

Kassatsiya instantsiya sudi birinchi instantsiya tartibida ko'rilgan ish bo'yicha berilgan shikoyat keltirilgan protest tayinlangan vaqtida taraflar va ishda ishtirok etuvchi shaxslarning ishtirokida ko'radi. Kassatsiya instantsiyasida ish ko'rish FPKning 333-342-moddalarida nazarda tutilgan tartibda o'tkaziladi.

Da'vogar qo'zg'atilgan da'vo talablaridan nafaqat birinchi instantsiya sudida, yuqori sudlarda ham voz kechishga haqli. Javobgarning esa, da'vo talablarini tan olishi sud protsessini hal etilishini bir muncha tezlashtirishga imkoniyat beradi. Bulardan tashqari, taraflar fuqarolik ishlarini ish ko'rishning har qanday bosqichida kelishuv bitimi bilan yakunlashlari ham mumkin. Bular haqida FPKning 348¹¹-moddasida quyidagilar belgilangan.

Kassatsiya shikoyat berilgan yoki protest keltirilgandan keyin da'vogarning arz qilgan talablardan voz kechishi, javobgarning da'vogar talablarini tan olishi va taraflarning kelishuv bitimi tuzishi yozma shaklda bayon etilib, kassatsiya instantsiyasi sudiga topshirilishi lozim. Agar ish ko'rish vaqtida da'vogar arz qilgan talablaridan voz kechsa, javobgar arz qilingan talablarni tan olsa yoki taraflar kelishuv bitimi tuzsalar, bu haqda sud majlisining bayonnomasiga yozib qo'yiladi va bayonnomani tegishincha da'vogar, javobgar yoki har ikki taraf imzolaydi.

Sud da'vodan voz kechishni qabul qilishdan yoki kelishuv bitimini tasdiqlashdan oldin da'vogarga yoki taraflarga bunday protsessual harakatlarning oqibatlarini tushuntiradi.

Da`vogarning arz qilgan talablaridan voz kechishi qabul qilingan yoki taraflarning kelishuv bitimi tasdiqlangan taqdirda kassatsiya instantsiyasi sudi chiqarilgan hal qiluv qarorini bekor qiladi va ish yuritishni tugatadi.

Agar da`vogarning arz qilgan talablaridan voz kechishi yoki taraflarning kelishuv bitimi qonunga zid bo'lsa yoxud bironing huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzadigan bo'lsa, sud voz kechishni rad qiladi yoki tuzilgan kelishuv bitimini tasdiqlamaydi hamda ishni kassatsiya tartibida ko'radi.

Fuqarolik ishlarini sudda ko'rishda taraflarning o'z talablaridan voz kechishligi yoki ular o'rtasida tuzilgan kelishuv bitimlari qonunda zid deganda quyidagi holatlarga sud e'tibor berishi maqsadga muvofiqdir, jumladan:

-yanglishish ta'sirida tuzilgan; aldash, zo'rlik, qo'rqitish, bir taraf vakilining ikkinchi taraf bilan yomon niyatda kelishishi yoki og'ir holatlar yuz berishi ta'sirida tuzilgan; qalbaki va ko'zbo'yamachilik uchun tuzilgan va boshqalar. FKning 113-128-moddalarida bitimlarni haqiqiy emasligi haqidagi qoidalar o'z ifodasini topgan.

Fuqarolik ishida ishtirok etuvchi mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar, da`vogar kabi qonunda belgilangan protsessual huquqlardan foydalanishlari munosabati bilan ular ham o'z talablaridan voz kechishlari va kelishuv bitimi tuzishga haqlidir.

Ishda ishtirok etuvchi taraflar va boshqa shaxslarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida belgilangan muddatlarga rioya etish kassatsiya instantsiya sudiga ham tegishlidir. Shu tufayli FPKning 348¹²-moddasida ishni kassatsiya instantsiyasida ko'rish muddatlari ko'rsatilgan. Bu qoidada fuqarolik ishlari bo'yicha qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi kassatsiya shikoyati yoki protesti bo'yicha tushgan ishni u kelib tushgan kundan e'tiboran bir oydan kechiktirmay ko'rib chiqishi lozim. Ish o'ta murakkab bo'lgan yoki boshqa favqulodda hollarda tegishli sudning raisi bu muddatni ko'pi bilan o'n kunga uzaytirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi kassatsiya shikoyati yoki protesti bo'yicha tushgan ishni u kelib tushgan kundan e'tiboran bir oydan kechiktirmay ko'rib chiqishi lozim. Alohida hollarda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi yoki uning o'rinbosari bu muddatni ko'pi bilan yana bir oyga uzaytirishi mumkin.

Yuqorida apellyatsiya sudining ish ko'rish doirasi haqidagi qoidada (FPKning 332-moddasi)da ko'rsatilganidek, kassatsiya instantsiya sudining ishni ko'rish doirasida ko'radigan masalalar asosiylaridan bo'lib hisoblanadi, jumladan, birinchi instantsiya sudi hal qiluv qarorining qonuniy, asosli va adolatli ekanligini tekshiradi. Bulardan tashqari, kassatsiya sudi yangi dalillarni o'rganib chiqishi, agar yangi faktlar birinchi instantsiya sudiga taqdim qilinmagan va shu vaqtlarda taqdim qilinishi mumkin bo'lmagan hollarda ularni sud o'rganishi va tahlil qilgan holda ishni holisona to'g'ri hal etishda foydalanishi mumkinligi muhim masalalardandir.

Kassatsiya sudi ham apellyatsiya sudiga berilgan vakolat kabi birinchi instantsiya sudining hal qiluv qarorlarini to'la hajmda tekshirishi FPKning 348¹³-moddasida ko'rsatilgan.

Agar birinchi instantsiya sudining chiqargan qarori ishdagi dalillarga noto'g'ri baho berilganligi sababli bekor qilingan bo'lsa va ish shu sudda qaytadan ko'rilishida odilona hal qiluv qarori chiqarilishi to'g'risida gumon bo'lsa, kassatsiya sudi ishni boshqa tarkibda ko'rishlikka topshiradi.

Fuqarolik ishi kassatsiya sudida protsessual qoidalar asosida ko'rib chiqilgandan so'ng, sud o'ziga berilgan vakolat doirasida FPKning 348¹⁵-moddasida belgilangan harakatlarni bajarish qabul qiladigan ajrimda:

1) hal qiluv qarorini o'zgarishsiz qoldirishga yoki protestni qanoatlantirmaslikka;

2) hal qiluv qarorini o'zgarish yoxud butunlay yoki qisman bekor qilishga va yangi hal qiluv qarori chiqarishga;

3) hal qiluv qarorini butunlay yoki qisman bekor qilishga hamda FPKning 97, 100-moddalarida ko'rsatilgan asoslarga ko'ra, ish yuritishni tugatishga yoxud arizani ko'rmasdan qoldirishga;

4) FPKning 314-moddasining 2-qismida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda hal qiluv qarorini butunlay yoki qisman bekor qilishga hamda ishni sudda yangidan ko'rib chiqish uchun yuborishga haqli.

Kassatsiya sudining vakolati bilan apellyatsiya instantsiya sudining FPKning 343-moddasida berilgan vakolatida farq yo'qligi ko'rinadi. Bunga sabab apellyatsiya sudida ko'rilmagan fuqarolik ishlari qonuniy kuchga kirgan bo'lsa ham yuqori sudlar tomonidan ko'rib manfaaddor shaxslarning qonuniy huquqlarini himoya qilish kabi muhim protsessual huquqdan foydalanish nazarda tutilgan.

Kassatsiya sudi fuqarolik ishini sud protsessida ko'rib tamomlagandan so'ng ajrim chiqarish uchun maslaxatxonaga kiradi. Kassatsiya instantsiya sudining ajrimi darhol chiqariladi va e'lon qilinadi, bu bosqichdagi sudda apellyatsiya sudi kabi ajrimi chiqarishni kechiktirishga yo'l qo'yilmaydi.

Sudyalarning maslaxati ajrim chiqarish va uni e'lon qilish FPKning 14-moddasida belgilangan tartibda o'tkaziladi.

Ishni kassatsiya tartibida ko'rgan sud birinchi instantsiya sudining hal qiluv qarorida belgilanmagan yoki unda rad etilgan holatlarni belgilashga yoki isbotlangan deb hisoblashga, biror dalilning ishonchli yoki ishonchsizligi to'g'risidagi, bir xil dalilning boshqa xil dalillardan ustunligi to'g'risidagi, shuningdek moddiy huquqning qanday huquqiy me'yor tadbiiq qilinishi va ishni yangidan ko'rganda qanday hal qiluv qarori chiqarilishi kerakligi to'g'risidagi masalalarni oldindan belgilab qo'yishga haqli emas. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorida ko'rsatib o'tilgan.¹

Fuqarolik ishi kassatsiya shikoyati yoki protesti bo'yicha qayta ko'rilishi natijasida kassatsiya sudining qabul qiladigan qarori ajrim shaklida bo'ladi.

Kassatsiya sudining ajrimi ham birinchi instantsiya sudining hal qiluv qarori, apellyatsiya sudining ajrimi singari to'rt qismdan iborat tartibda tuziladi (FPKning 206, 315-moddalari). Kassatsiya instantsiyasi sudining ajrimi chiqarilishi bilanoq qonuniy kuchga kiradi, uning ajrimi ustidan faqat vakolatli mansabdor shaxslargina nazorat tartibida protest keltirishga haqli bo'ladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, apellyatsiya sudiga birinchi instantsiya sudining chiqargan ajrimlari ustidan shikoyat berish prokurorni protest keltirishiga o'xshash kassatsiya sudiga ham birinchi instantsiya sudining ajrimlariga nisbatan shikoyat (protest) berish huquqidan ishda ishtirok etuvchi shaxslar foydalanishi mumkin.

Birinchi instantsiya sudining chiqargan ajrimi ustidan manfaatdor shaxsning beradigan shikoyatiga xususiy shikoyat deb, prokurorning keltirgan protestiga xususiy protest deb ataladi.

Kassatsiya tartibida ham birinchi instantsiya sudining hamma ajrimlari ustidan protest keltirish, shikoyat berish haqida qonun ko'rsatma bermaydi (Bu haqda birinchi instantsiya sudining ajrimlari ustidan apellyatsiya tartibida shikoyat berish prokurorning protest keltirishi haqidagi mavzuda batafsil berilgan). Shikoyat berishi yoki protest keltirilishi mumkin bo'lgan ajrimlar qonunda ko'rsatilgan bo'ladi.

Agar birinchi instantsiya sudlarining ajrimlari ustidan kassatsiya shikoyat (protest)ni berish haqida qonunda ko'rsatilmagan taqdirda ajrimga qarshi e'tirozlar kassatsiya shikoyatiga (protestiga) kiritilishi mumkin.

Birinchi instantsiya sudining apellyatsiya tartibida ko'rimagan ajrimlari ustidan sudning hal qiluv qaroridan alohida holda kassatsiya instantsiya sudiga sud ajrimi chiqarilgan kundan e'tiboran bir yil ichida taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar tomonidan shikoyat berilishi hamda prokuror tomonidan protest keltirilishi mumkin. Xususiy shikoyatlar berish va xususiy protestlar keltirish ushbu bobda belgilangan tartibda amalga oshiriladi va ko'rib chiqiladi.

Birinchi instantsiya sudining ajrimlari ustidan kassatsiya tartibida berilgan xususiy shikoyat, xususiy protestlar bo'yicha kassatsiya instantsiya sudi ajrimni o'zgarishsiz qoldirishga, shikoyat yoki protestni esa qanoatlantirmaslikka, ajrimni bekor qilishga va ishni mohiyatan ko'rish uchun birinchi instantsiya sudiga yuborishga, ajrimni butunlay yoki qisman o'zgartirishga yoki bekor qilishga hamda masalani mohiyatan hal qilish kabi huquqlarga egadir.

O'zlashtirish savollari

1.Kassatsiya instantsiyasining tashkil topishi va rivojlanishi. Kassatsiya tartibida shikoyat va protest keltirish huquqi.

2.Shikoyat qilish va protest keltirish ob'ekti va sub'ektlari.

3.Kassatsiya shikoyatining va kassatsiya protestining mazmuni.

4.Shikoyat va protestni ko'radigan sudlar.

5.Kassatsiya tartibida keltirilgan shikoyat va protestlarning ko'rilishi va uning protsessual tartibi.

6.Shikoyat, protest yuzasidan kassatsiya instantsiya sudining vakolatlari (hal qiluv qarorini o'zgartirish, bekor qilish yoki yangi hal qiluv qarorini chiqarish uchun asoslar).

7.Birinchi instantsiya sudining ajrimlari ustidan shikoyat berish va protest keltirish.

26-Mavzu. KONUNIY KUCHGA KIRGAN HAL QILUV QARORLARI, AJRIMLAR VA QARORLARNING KONUNIY, ASOSLI VA ADOLATLI EKANLIGINI TEKSHIRISH

(Mustaqil o'zlashtirish uchun mavzu)

Tayanch iboralar: fuqarolik ishlari sudining hal qiluv qarorlari, ajrim va qarorlarini nazorat tartibida qayta ko'rishning mohiyati va ahamiyati, nazorat tartibida sudning hal qiluv qarorlari, ajrim va qarorlari ustidan protest keltirish va uni qayta ko'rish uchun asoslar, protest keltirishga vakolatli bo'lgan mansabdor shaxslarning doirasi, sud nazorati tartibida ishlarni qayta ko'rish vakolatiga ega bo'lgan sudlar, nazorat tartibida keltirilgan protestlarni ko'rib hal qilishning protsessual tartibi, nazorat instantsiya sudining vakolatlari, nazorat tartibida sud hal qiluv qarorlari, ajrim va qarorlarini qayta ko'rishning kassatsiyadan farqi (ob`ekti, sub`ekti, protsessual tartibi va vakolatlari bo'yicha).

Dars o'tish vositalari: mavzu nazariy ahamiyat kasb etishi bilan uni asosan ma`ruza tarzida O'zbekiston Respublikasining protsessual qonunchiligi haqida, Prezident asarlarida sud -huquq sohasini isloh qilishga qaratilgan vazifalarni hamda Oliy sudning Plenum qarorlarining - normalarini sharhlash orqali yoritiladi hamda zaruratga qarab savol-javoblar uyushtiriladi.

Dars o'tish usullari: darsning mohiyatini ijtimoiy-gumanitar fanlar yutuqlaridan foydalangan holda yorqin tahlil qilish va seminarda har bir talabanning fikrini eshitish bilan yakunlanadi.

O'zlashtirish savollari

1. Fuqarolik ishlari sudining hal qiluv qarorlari, ajrim va qarorlarini nazorat tartibida qayta ko'rishning mohiyati va ahamiyati.

2. Nazorat tartibida sudning hal qiluv qarorlari, ajrim va qarorlari ustidan protest keltirish va uni qayta ko'rish uchun asoslar.

3. Protest keltirishga vakolatli bo'lgan mansabdor shaxslarning doirasi.

4. Sud nazorati tartibida ishlarni qayta ko'rish vakolatiga ega bo'lgan sudlar.

5. Nazorat tartibida keltirilgan protestlarni ko'rib hal qilishning protsessual tartibi.

6. Nazorat instantsiya sudining vakolatlari.

7. Nazorat tartibida sud hal qiluv qarorlari, ajrim va qarorlarini qayta ko'rishning kassatsiyadan farqi (ob`ekti, sub`ekti, protsessual tartibi va vakolatlari bo'yicha).

27-Mavzu. QONUNIY KUCHGA KIRGAN HAL QILUV QARORLARI, AJRIMLAR VA QARORLARNI YANGI OCHILGAN HOLATLAR BO'YICHA QAYTA KO'RISH

(Mustaqil o'zlashtirish uchun mavzu)

Tayanch iboralar: yangi ochilgan holatlar bo'yicha sud hal qiluv qarorlari, ajrim va qarorlarni qayta ko'rish uchun asoslar, ishni yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish haqidagi ishlarni ko'zg'atish huquqiga ega bo'lgan shaxslarning doirasi, ishni qayta ko'ruvchi sudlar, yangi ochilgan holatlar bo'yicha ishni qaytadan ko'rish tartibi, sud ajrimi va uning mazmuni, yangi ochilgan holatlar bo'yicha ish ko'rishning nazorat tartibida ish ko'rishdan farqi.

Dars o'tish vositalari: mavzu nazariy ahamiyat kasb etishi bilan uni asosan ma`ruza tarzida O'zbekiston Respublikasining protsessual qonunchiligi haqida, Prezident asarlarida sud -huquq sohasini isloh qilishga qaratilgan vazifalarni hamda Oliy sudning Plenum qarorlarining - normalarini sharhlash orqali yoritiladi hamda zaruratga qarab savol-javoblar uyushtiriladi.

Dars o'tish usullari: darsning mohiyatini ijtimoiy-gumanitar fanlar yutuqlaridan foydalangan holda yorqin tahlil qilish va seminarda har bir talabanning fikrini eshitish bilan yakunlanadi.

O'zlashtirish savollari

1. Yangi ochilgan holatlar bo'yicha sud hal qiluv qarorlari, ajrim va qarorlarni qayta ko'rish uchun asoslar.

2. Ishni yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish haqidagi ishlarni ko'zg'atish huquqiga ega bo'lgan shaxslarning doirasi.

3. Ishni qayta ko'ruvchi sudlar.

4. Yangi ochilgan holatlar bo'yicha ishni qaytadan ko'rish tartibi.

5. Sud ajrimi va uning mazmuni.

6. Yangi ochilgan holatlar bo'yicha ish ko'rishning nazorat tartibida ish ko'rishdan farqi.

28-Mavzu. SUD QARORLARINING IJROSI

Tayanch iboralar: sud qarorlarining ijrosi fuqarolik protsessining muhim va yakuniy bosqichi ekanligi, ijro hujjatlarning turlari va ularning huquqiy ahamiyati, ijro varag'i va uni berish tartibi. Ijro varag'ining nusxasi, majburiy ijro qilishga tegishli hujjat (akt)lar. Ijro hujjatlarini majburiy ijroga berish muddati, ijro ishlarini yuritishda ishtirok etuvchi shaxslar, ularning huquq va majburiyatlari, ijro hujjatlarini undirishga qaratish, ijro ishlarini yuritishni to'xtatish va tugatish, undirishni qarzdorning mulkiga qaratish, qarzdorning mulkini aniqlash va uni xatlash, undirishga qaratilmaydigan mulklar.

Dars o'tish vositalari: mavzu nazariy ahamiyat kasb etishi bilan uni asosan ma'ruza tarzida O'zbekiston Respublikasining protsessual qonunchiligi haqida, Prezident asarlarida sud -huquq sohasini isloh qilishga qaratilgan vazifalarni hamda Oliy sudning Plenum qarorlarining - normalarini sharhlash orqali yoritiladi hamda zaruratga qarab savol-javoblar uyushtiriladi.

Dars o'tish usullari: darsning mohiyatini ijtimoiy-gumanitar fanlar yutuqlaridan foydalangan holda yorqin tahlil qilish va seminarda har bir talabaning fikrini eshitish bilan yakunlanadi.

Odil sudlovlikni amalga oshirish maqsadida fuqarolar va tashkilotlarning huquqlarini qo'riqlash maqsadida chiqarilgan qarorlarni ijro etish fuqarolik protsessining yakunlovchi bosqichidir.

Sudning hal qiluv qarorlariga shikoyat yuqoriga shikoyat (protest) berilmasa yoki qaror sudlarda tasdiqlanganidan so'ng qonuniy kuchga kiradi. Bu qarorlar, shuningdek fuqarolik ishlari to'g'risida boshqa organlarining qarorlari odatda ixtiyoriy ravishda ijro etiladi. Agar bunday qarorlarni ijro etishga (tegishli summani to'lashga, narsalarni topshirishga, muayyan ishlarni bajarishga) majbur bo'lgan shaxs (yoki shaxslar) ixtiyoriy ravishda ijro etmasalar, sud FPKning 370-385-moddalari va sud qarorlarini ijro etish tartibi to'g'risidagi qonunlar bilan belgilangan tartibda ijro etiladi. Amaldagi FPK ijro bilan bog'liq bo'lgan ayrim harakatlar sud faoliyati va ish yuritish bilan bog'liq bo'lmaganligi sababli bu bob birmuncha qisqartirilganligi va shu tufayli qator huquqiy me'yorlar sud ijrochisining faoliyatida o'z aksini topishligi belgilangan.

Bulardan tashqari ijro harakatlari «Sud ijrochilari to'g'risida»gi hamda «Sud hujjatlarini ijro qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining 1999 yildagi qonunlari bilan tartibga solinadi.

Sudning hal qiluv qarorlarini va boshqa aktlarni majburiy tartibda ijro etishni amalga oshiruvchi mansabdor shaxs sud ijrochisi hisoblanadi.

Sud ijrochisi o'z tashabbusi bilan hal qiluv qarorini tez va aniq ijro etish uchun hamma qonuniy choralarni ko'rishga va taraflarga, ularning huquqlari va qonun bilan ko'riklanadigan manfaatlarini himoya qilishda faol yordam berishga majbur.

Ijro etadigan burch-vazifalariga ko'ra sud ijrochilari sud akt hujjatlari va boshqa organlarning akt hujjatlarini ijro etadigan sud ijrochilariga va

sudlarning belgilangan tartibda faoliyat yuritishini ta'minlashda yordam ko'rsatadigan sud ijrochilariga bo'linadi.

Sud ijrochilari to'g'risidagi qonunning mazmunidan aniqlanishicha, sud ijrochilari ijro hujjatlarini bajarilishi bilan shug'ullanuvchi ijrochilarga hamda sud faoliyatini tashkil qilish, odil sudlovni amalga oshirishda har tomonlama ko'maklashuvchi ijrochilar tashkil qilinishi muljallangan.

Amaldagi qonunlarga asosan sud ijrochilari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi organlari tarkibiga kirgan sud ijrochilarining joylarda quyidagi tizimi mavjud:

Adliya vazirligining o'rinbosarlaridan biri bosh sud ijrochisi bo'lib, u Vazirlikda tashkil etilgan sud ijrochilari bosh boshqarmasini boshqaradi, boshqarmaga esa boshqarma boshlig'i rahbarlik qilib, o'z navbatida bosh sud ijrochisining o'rinbosari ham hisoblanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar sud ijrochilari boshqarmasi, bosh sud ijrochisi rahbarligidagi qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar sud ijrochilari boshqarmasi.

Sud ijrochilari tuman, shahar bo'linmalari.

Sud ijrochilarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion Sudidagi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudida va O'zbekiston Respublikasi Oliy Xo'jalik Sudidagi, umumiy, xo'jalik va harbiy sudlardagi faoliyatni yo'lga qo'yish mazkur qonun va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Agar sud ijrochilari 1963 yilgi fuqarolik protsessual kodeksiga asosan tuman (shahar) sudlari qoshida bo'lib ularning nazoratida faoliyat ko'rsatadigan bo'lsalar, hozirda esa O'zbekiston Respublikasining Bosh sud ijrochisi, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi taqdimnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadi va ozod etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh sud ijrochisining o'rinbosari, qoraqalpog'iston Respublikasi Bosh sud ijrochisi, viloyatlar va Toshkent shahar bosh sud ijrochilari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tayinlanadi va ozod etiladi.

Katta va oddiy sud ijrochilari egallab turgan vazifalariga qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar sud ijrochilari boshqarma boshliklari tomonidan tayinlanadi va ozod etiladi.

Sud ijrochilari to'g'risidagi qonunda bosh sud ijrochisidan tortib tuman (shahar) katta sud ijrochilarining vakolatlari 7-10-moddalarida belgilangan. Bu qoidalarda O'zbekiston Respublikasi bosh sud ijrochisi sud ijrochilarining faoliyatiga rahbarlik qiladi, mutaxassis kadrlarni tanlash, ukitish va ularni kasbiy va maxsus tayyorgarlik malakasini oshirishga doir ishlarni tashkil etadi;

-sud ijrochilari xizmatining barcha xodimlari uchun bajarilishi majburiy bo'lgan sud ijrochilarining faoliyatini tashkil etish moddiy va ijtimoiy ta'minot choralarini amalga oshirish tartibiga doir masalalarni tartibni belgilab turuvchi ko'rsatmalar va farmoyishlar chiqaradi;

-ajratilgan shtat xodimlari soni va mehnatga haq to'lash jamg'armasi doirasida sud ijrochilari xizmatining tizimini va xodimlar tarkibi (shtat)ni belgilaydi;

-sud ijrochilari xizmatining moliyaviy va moddiy texnikaviy-ta'minoti amalga oshiradi;

-sud ijrochilarining xatti-harakatlari ustidan tushgan shikoyatlarni bo'ysinuv tartibida ko'rib chiqadi;

-amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgan tartibda sud ijrochilari xizmatining zimmasiga yuklangan vazifalarning bajarilishi uchun javobgar hisoblanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosh sud ijrochilari, shuningdek tuman (shahar) katta sud ijrochilarining vakolatlari ham o'zlariga berilgan huquqiy doirasida faoliyat ko'rsatishligi belgilab qo'yilgan.

Tuman (shahar)larning katta sud ijrochilari yuqoridagilardan tashqari sud raisining, shuningdek sudya yoki sud majlisida raislik qiluvchining ko'rsatma va topshiriqlarining to'g'ri va o'z vaqtida bajarilishi ta'minlashga qaratilgan harakatlarni amalga oshiradi.

Sud ijrochilari ijro etiladigan hujjatlarni bajarishda qator burchga va huquqlarga ega bo'lib, ular amal qilgan holda ish tutishi lozim. Sud ijrochilarining burchlari quyidagilardan iborat:

-sud akt hujjatlari va boshqa organlar akt hujjatlarining ijro etilishi to'g'risida»gi qonunda ko'zda tutilgan sud akt hujjatlarining va boshqa organlarning akt hujjatlarini majburiy tartibda bajarish jarayonida sud ijrochisining burchlari:

-ijro harakatlarining o'z vaqtida, to'liq va to'g'ri bajarilishiga qaratilgan choralarni ko'rish;

-tarafarga yoki ularning vakillariga ijro ish yurituvining material-hujjatlari bilan tanishish imkoniyatini yaratish, ulardan ko'chirmalar, nusxalar olish;

-ijro ish yurituviga doir arizalarni va mazkur ish yurituvda ishtirok etayotgan taraflarning iltimosnomalarini ko'rib chiqish va ular bo'yicha shikoyat qilish muddatlari va tartibini tushuntirgan holda qarorlar chiqarish;

-basharti u bevosita shaxsan yoki bilvosita ish yurituvining natijasidan manfaatdor bo'lgan yoxud uning holisligiga shubxa tug'diruvchi boshqa sabablar mavjud bo'lgan hollarda ijro ish yurituvda ishtirok etishdan chetlatish (uzini-o'zi rad etish).

2. Sud ijrochisi quyidagi huquqlarga ega: ijro harakatlarini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan masalalar bo'yicha zarur axborot izoh-tushuntirishlar va ma'lumotnomalarni olish;

-tashkilotlar va fuqarolar huzurida u erda ishlayotgan qarzdorlarga daxldor ijro xatlarining bajarilishini va ularning bajarilishiga doir moliyaviy hujjatlarning yuritilishini tekshirish; qonunchilikka muvofiq holda ijro hujjatlarining bajarilishida ishtirok etayotgan tashkilotlar va fuqarolarga muayyan ijro xatti-harakatlarini amalga oshirish masalalari yuzasidan topshiriqlar berish;

-qarzdor, shuningdek boshqa shaxslar egallab turgan yoki ularga qarashli bo'lgan binolar va omborlarga kirish, ko'zdan kechirish, zarur hollarda binolar va omborlarni majburiy tartibda ochish.

Yuqorida bayon qilinganidek sud ijrochilari ijroga oid hujjatlarni ijroga qaratish bilan bir qatorda sudlar faoliyatini amalga oshirishda odil sudlovni amalga oshirishga qaratilgan harakatlar bilan ko'maklashadi. Bu borada ular qonunda ko'rsatilgan osoyishtalikni ta'minlash va mustahkamlashga qaratilgan quyidagi ishlarni bajarishlari kerak:

-sudlarda sudyalari, guvohlar va boshqa protsess ishtirokchilarini xavfsizligini ta'minlash;

-sud majlisi jarayonida tartibni saqlash yuzasidan raislik etuvchi, sud raislari va sudyalarni farmoyishlarini bajarish;

-sud raisi yoki sudyalarning sudlashuvchi yoki boshqa fuqarolarga nisbatan majburiy protsessual xarakterdagi farmoyishlarini bajarish;

-sud majlisi xonalari, maslaxat uylari va sud binosini ish vaqtida qo'riqlashni ta'minlash;

-sud majlisi zallarini sud jarayonini olib borishlik uchun tayyorgarligini tekshirish, sudyalarni farmoyishi asosida doimiy ravishda ko'rilmaydigan joyga jinoiy ish va daliliy ashyolarni olib kelinishi hamda saqlashlikni ta'minlash;

-sud yoki sud ijrochisiga chaqirtirilganda kelmagan shaxslarni majburiy keltirish;

ijro harakatlarini amalga oshirishda katta sud ijrochisi ko'rsatmasi asosida ishtirok etish.

Sud ijrochisi berilgan huquq doirasida amalga oshiriladigan qonuniy talablarini O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha davlat idoralari, tashkilotlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning bajarilishi majburiy bo'lib hisoblanadi.

Sud ijrochisining qonuniy talablarini bajarmaslik va uning zimmasiga yuklangan xizmat-vazifalarining ado etilishiga monelik qilish O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka olib keladi.¹

Sud ijrochilari sudning hal qiluv qarorlarini ijro qilishning birdan-bir yagona organi emas, ba'zi hollarda, chunonchi: soliq organlari va banklar ham amalga oshiradilar.

Ijro hujjati asosida qarzdorning hisobida pul mablag'larini undiruvchining schyotiga yoki sudning depozit schyotiga majburiy ravishda o'tkazuvchi davlat banki hamda xodimlarning ish haqlaridan tegishli summani ushlab qoluvchi muassasa, korxonalar, jamoa xo'jaligining buxgalteriyalari ham ijro organlari bo'lib hisoblanishi mumkin.

Ijro hujjati-pul mablag'ini qarzdorning schyotidan undiruvchining schyotiga o'tkazish uchun qonuniy asosdir, lekin ijro varagida yoki xo'jalik sudining buyrugida qarzdorning pul mablag'i o'tkazilishi lozim bo'lgan schyoti

ko'rsatilmagan bo'lsa, shuningdek ijro varagi va xo'jalik sudining buyrugida ko'rsatilgan qarzdorning schyoti davlat bankida bo'lmasa, ijro hujjati ijro qilinmasdan, uni bergan organga yuborish uchun undiruvchiga qaytariladi.

Sud qarorlarini ijro qilish protsessda odatda ikki taraf: hal qiluv qarorining ijro qilinishini talab etuvchi taraf-undiruvchi va sud qarorlarini ijro qilishga majbur bo'lgan taraf-qarzdor ishtirok etadi. Ijro qilish protsessidagi undiruvchi va qarzdor tushunchalari, sudda ish ko'rish vaqtidagi da`vogar hamda javobgar tushunchalari bilan hamma vaqt to'g'ri kelavermaydi. Agarda sud qarorlari bilan da`vogarning da`vo talabi qanoatlantirilgan bo'lsa, qarorni ijro qilish protsessida da`vogar undiruvchi, javobgar qarzdor bo'lib hisoblanadi. Agarda sud qarori bilan da`vogarning da`vosi rad etilib, undan javobgarning foydasiga, masalan, sud xarajatlarini undirishga qaror qilingan bo'lsa, u holda ijro protsessida da`vogar qarzdor javobgar esa, undiruvchi bo'lib qoladi. SHuningdek ayrim hollarda sud ish ko'rish protsessida butunlay ishtirok etmagan shaxslar yoki tashkilotlar ham ijro protsessida taraflar bo'lib qolishi mumkin. Bunday hollarda vorislar yoki undiruvchilardan ijro varaqasi bo'yicha haq talab qilish huquqiga ega bo'lgan shaxslar undiruvchi bo'lishlari mumkin. Odatda, ijro protsessida bir ijro hujjati bo'yicha bir undiruvchi va bir qarzdor bo'ladi. Lekin sud tomonidan sheriklik majburiyatidan kelib chiqadigan talablar qanoatlantirilgan bo'lsa, ijro protsessida qarzdor tomonidan ham javobgar tomonidan ham sherik ishtirokchilik bo'lishi mumkin.

Har bir hal qiluv qarori bo'yicha bitta ijro varagi beriladi. Lekin agar ijro turli joylarda o'tkaziladigan bo'lsa yoki hal qiluv qarori bir qancha da`vogarlarning foydasiga yoki bir necha javobgarlarga nisbatan chiqarilgan bo'lsa, undiruvchilarning iltimosi bo'yicha sud ijro joyini yoki hal qiluv qarorining ijro etilishiga tegishli qismini aniq qilib ko'rsatib, bir necha ijro varagi berishi mumkin. Sherik javobgarlardan pul mablag'lari undirish to'g'risidagi hukm yoki hal qiluv qaroriga asosan undiruvchining iltimosi bo'yicha sherik javobgarlarning soniga qarab bir necha ijro varaglari berilishi mumkin. Har bir ijro varagida undiriladigan pulning umumiy summasi ko'rsatilishi va hamma javobgarlar (ularning sheriklik asosida javobgar bo'lishlari ko'rsatilgan holda) sanab o'tilishi lozim.

Sud ijrochisi majburiy ijroga kirishganida taraflarga ularning protsessual huquq va burchlarini tushuntirishga majbur. Undiruvchi va qarzdor hal qiluv qaror ijro etilishi vaqtida shaxsan o'zi yoki vakillari orqali hozir bo'lishga, ijro ishini yurgizish materiallari bilan tanishishga, ijroning borishi haqida ma'lumot olishga, kelishuv bitimlari tuzishga, mulkning kimga tegishli va uning bahosi to'g'risida nizolashishga sud ijrochisining harakatlari ustidan shikoyat qilishga haqlidir.

Undiruvchining vakili tegishli xabardor qilingani holda hal qiluv qarorining ijro etilishida hozir bo'lmasligi sud ijrochisining ijro harakatlarini bajarishga to'sqinlik qilmaydi. FPKning 380-moddasiga muvofiq undiruvchi majburiy ijrodan voz kechishga, undirish miqdorini kamaytirishga, javobgarning ijroni keyinroq yoki qismlarga bo'lib bajarilishiga yo'l qo'yishga haqli. Ijro harakatlarini bajarayotganda sud ijrosi agar undirish uchun zarur

bo'lsa, qarzdorning binolari va omborlarini ko'zdan kechirishga ham haqli bo'ladi. qarzdor sud ijrochisining binoga kirishishiga yo'l kuymagan taqdirda sud ijrochisi zarur bo'lgan hollarda holis shaxslarni taklif qilib, binoni ularning huzurida ochadi va ko'zdan kechiradi.

Sud ijrochisining ijro harakatini bajarish vaqtida qarzdorning shaxsiy erkinligiga va obruyiga qanday shaklda bo'lmasin, tajovuz qilishi qat'iyan man etiladi. Sud qarorlarini ijro qilishda qarzdorning shaxsi daxlsizdir. Sud ijrochisi qarzdorni sudga majburiy keltirish huquqiga ega emas va uning turar joyini cheklab qo'ya olmaydi hamda ijro qilish protsessida har ikki tarafning huquqlarini qo'riqlashga majburdirlar. U qarorning ijrosiga kirishishdan oldin qarzdorga hal qiluv qarorini 5 kunlik muddat ichida ixtiyoriy ravishda ijro qilish to'g'risida taklif yuboradi. qarzdor belgilangan muddatida qarorni ijro qilmasa yoki ixtiyoriy ijro qilishni rad etsa-sud ijrochisi qarorni majburiy ijro qilishga kirishadi.

Majburiy ijro qilish choralari: qarzdorning shaxsiy mulkini xatlash va mulkni sotish yo'li bilan undirish; qarzdorning boshqa shaxslarda bo'lgan shaxsiy mulkidan va pul mablag'laridan undirish; qarzdorning ish haqi, pensiyasi, stipendiyasi va boshqa turdagi daromadlaridan undirish; hal qiluv qarorida ko'rsatilgan ma'lum narsalarni qarzdordan olib undiruvchiga berish; qonunga muvofiq hal qiluv qarorida ko'rsatilgan boshqa choralar tarzida bo'ladi.

Qarzdor va undiruvchi ijro qilish protsessida yuqorida aytilganidek, o'zlarining vakillari orqali ham ijro qilish huquqlariga egadirlar. Ijro qilish protsessida vakillikning barcha turlari: ixtiyoriy vakillik, qonuniy, ustav bo'yicha vakillik amalga oshirilishi mumkin.

Muomalaga layoqatli fuqaro tomonidan saylangan vakillikning va ijro protsessidagi yuridik shaxs vakilining vakolatlari notarial yoki vakolat beruvchining ish joyidagi ma'muriyat tomonidan guvohlantirilgan, yozma shakldagi, ishonch qog'ozi yoki vakolatnoma bilan rasmiylashtirilgan bo'lishi lozim. qonuniy vakillardan alohida vakolatnoma talab etilmaydi. Ijro protsessidagi vakillar taraflarning barcha huquqlaridan foydalanadilar. Vakolatnoma vakilning o'z vakolatini boshqa shaxsga berish, ijro harakati vaqtida kelishuv bitimi tuzish, mulk va pul olish huquqlari maxsus ravishda ko'rsatilishi lozim. Bunday ko'rsatma bo'lmaganida ixtiyoriy saylangan vakil yuqorida aytilgan huquqlarni amalga oshira olmaydi.

Ijro protsessida vujudga kelgan bir qator masalalar ijrochi, sud yoki qarorni ijroga bergan organ tomonidan hal qilinadi, masalan, qarorni sir saqlash, qarorning ijrosini keyinga qoldirish, ijro hujjatlarini olish yoki uni keyinga qoldirish, ijro hujjatlarini olish yoki uni ijroga qaratish bo'yicha utib ketgan muddatni tiklash, qarzdorning umumiy mulkidagi xissasini belgilash, taraflarning kelishuv bitimini tasdiqlash, qarorning ijrosini to'xtatish va bekor qilish, ijro varaqasining dublikatini berish va shu kabi boshqa masalalarni hal qiladi.

Ijro ishida prokurorning ishtiroki qonunda nazarda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan qonunlarning to'g'ri ijro qilinishi ustidan

yuqorida nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuroriga va unga itoat qiluvchi prokurorlarga yuklatilgan (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 118-moddasi, Prokuratura to'g'risidagi qonunning 1-moddasi).

FPKning 46-moddasiga muvofiq prokuror ishga protsessning boshlanish bosqichida kirisha oladi. Prokuror fuqarolik sud ishlarining yurgizilishida qonunning har qanday tusda buzilishini (bunday buzilishlar kim tomonidan sodir qilinganidan qat'iy nazar) bartaraf qilish uchun qonunda nazarda tutilgan choralarni ko'radi.

O'zlashtirish savollari

1. Sud qarorlarining ijrosi fuqarolik protsessining muhim va yakuniy bosqichi ekanligi.

2. Ijro hujjatlarning turlari va ularning huquqiy ahamiyati. Ijro varag'i va uni berish tartibi. Ijro varag'ining nusxasi. Majburiy ijro qilishga tegishli hujjat (akt)lar.

3. Ijro hujjatlarini majburiy ijroga berish muddati.

4. Ijro ishlarini yuritishda ishtirok etuvchi shaxslar, ularning huquq va majburiyatlari.

5. Ijro hujjatlarini undirishga qaratish.

6. Ijro ishlarini yuritishni to'xtatish va tugatish. Undirishni qarzdorning mulkiga qaratish.

7. Qarzdorning mulkini aniqlash va uni xatlash. Undirishga qaratilmaydigan mulklar.

29-Mavzu. FUQAROLIK PROTSESSIDA CHET EL FUQAROLARI VA TASHKILOTLARI, FUQAROLIGI BO'LMAGAN SHAXSLARNING ISHTIROKI

Tayanch iboralar: chet el fuqarolari va tashkilotlari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning fuqarolik protsessual huquqlari, chet el fuqarolari va tashkilotlari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etayotgan nizolar, shuningdek loakal bittasi chet elda yashab turgan taraflar o'rtasidagi nizolar bo'yicha fuqarolik ishlari O'zbekiston Respublikasi sudlarining sudlovligiga taalluqli bo'lishi va taalluqliligi, chet davlat sudlarining sudga doir topshiriqlarini ijro etish va O'zbekiston Respublikasi sudlarining chet davlat sudlariga topshirik bilan murojaat qilishi, chet davlat sudlari va arbitrajlarining hal qiluv qarorlarini ijro etish.

Dars o'tish vositalari: mavzu nazariy ahamiyat kasb etishi bilan uni asosan ma'ruza tarzida O'zbekiston Respublikasining protsessual qonunchiligi haqida, Prezident asarlarida sud -huquq sohasini isloh qilishga qaratilgan vazifalarni hamda Oliy sudning Plenum qarorlarining - normalarini sharhlash orqali yoritiladi hamda zaruratga qarab savol-javoblar uyushtiriladi.

Dars o'tish usullari: darsning mohiyatini ijtimoiy-gumanitar fanlar yutuqlaridan foydalangan holda yorqin tahlil qilish va seminarda har bir talabaning fikrini eshitish bilan yakunlanadi.

FPKning 386-391-moddalarida belgilanganidek, chet el fuqarolari, shuningdek O'zbekiston Respublikasida yashovchi, ammo fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi sudlariga murojaat qilish huquqiga egadirlar va respublika fuqarolari bilan bir qatorda fuqarolik protsessual huquqlardan foydalanadilar. Chet el korxonalari va tashkilotlari ham O'zbekiston Respublikasi sudlariga murojaat qilish huquqiga egadirlar va o'zlarining manfaatlarini himoya qilish uchun fuqarolik protsessual huquqlaridan foydalanadilar.

Chet davlatlarda O'zbekiston fuqarolarining protsessual huquqlarini cheklashga yo'l qo'yilishi mumkinligini e'tiborga olib, fuqarolik sud ishlarini yuritish fuqarolarning, korxonalar yoki tashkilotlarning fuqarolik protsessual huquqlarini maxsus cheklagan davlatlarga javoban qonun ularning fuqarolariga, korxonalar va tashkilotlariga nisbatan ham shunday cheklashlarni belgilashi mumkin. Bu qonunga muvofiq chet el davlatlariga da'vo qo'zg'atishga, da'voni ta'minlashga va chet davlatning Respublikadagi mulkidan haq undirishga faqat tegishli davlatning vakolatli organlari ruhsati bilangina yo'l qo'yilishi mumkin.

Chet davlatlarining Respublikadagi diplomatik vakillarini hamda tegishli qonunlar va bitimlarda ko'rsatilgan boshqa shaxslarni fuqarolik ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi sudiga chaqirishga faqat xalqaro huquq normalarida yoki tegishli davlatlar bilan birga bo'lgan bitimlarda belgilangan doiralardagina yo'l qo'yiladi. Diplomatlar sud ishlarini bo'yicha guvohlik berishga majbur emaslar.

Xorijiy davlatlarining va ularning vakillarining yuqorida ko'rsatilgan huquqlari va imtiyozlari Respublikada bakamtilik shartlari bilangina, ya'ni huddi shunday huquq va imtiyozlar o'sha davlatlarda O'zbekiston davlatiga va uning vakillariga berilganidagina ta'minlanadi. Aks holda Respublika Vazirlar Mahkamasi yoki boshqa vakolatli organ tomonidan o'sha davlatga, uning mulkiga yoki o'sha davlat vakiliga nisbatan shunday javob choralari ko'rish mumkin.

Chet el sudlarining sudga doir topshiriqlarini ijro etish va O'zbekiston Respublikasi sudlarining chet el sudlariga topshiriq bilan murojaat qilish tartibi FPKning 390-moddasida belgilangan. Bu qonunda ko'rsatilishicha, O'zbekiston Respublikasi sudlari chet el sudlarining ayrim protsessual harakatlarni (chaqirik xatlari va boshqa hujjatlarni topshirish, taraflar va guvohlarni so'roq qilish, ekspertiza o'tkazish, joyiga borib ko'rish va boshqalarni) bajarish to'g'risida belgilangan tartibda bergan topshiriqlarini ijro qiladilar. Bunday topshiriqlarni ijro etish O'zbekiston Respublikasining suverenitetiga zid keladigan yoki O'zbekiston Respublikasining xavfsizligiga taxdid soladigan; topshiriqni ijro etish sudning huquq doirasiga kirmaydigan holatlar mustasnodir ya'ni ijro etilmaydi.

Chet el sudlarining ayrim protsessual harakatlarni ijro etish to'g'risidagi topshiriqlari O'zbekiston qonunlari asosida bajariladi.

O'zbekiston Respublikasi sudlari chet el sudlariga ayrim protsessual harakatlarni ijro etish to'g'risida topshiriq bilan murojaat qilishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasining sudlari chet el sudlari bilan munosabatda bo'lish tartibi O'zbekiston Respublikasining qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasining xalqaro bitimlari bilan belgilanadi.

Har bir davlatning yustitsiya organlari o'z faoliyatlarini o'z mamlakatlari doirasidagina to'la hajmda amalga oshirishlari mumkin. Chet mamlakatlarda protsessual harakatlarning qaysi mamlakat hududida amalga oshirilishi lozim bo'lsa, faqat shu mamlakat davlatining roziligi bilangina va uning huquqiy tashkilotlari yordami bilangina amalga oshirishlari mumkin.

Chet davlat fuqarolari va yuridik shaxslari boshqa davlatning sud organlarida harakat qilishlarida shartnoma yoki bitimlar asosida huquqiy yordam oladilar.

Huquqiy yordam deganda shaxsiy va mulkiy huquq, oila va vorislik huquqi normalari, chet davlat fuqarolari yoki korxonalar va tashkilotlari ishtirok etayotgan ishlarning biron-bir tashkilotga yoki sudga taalluqli bo'lishligi, mulkiy nizolar hamda nomulkiy xarakterdagi ishlar bo'yicha huquqlarning tan olinishi va sud qarorlarining ijro etilishini tartibga soladigan normalar tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi bilan boshqa chet davlatlar o'rtasida huquqiy yordam ko'rsatish tizimi o'z ichiga: birinchidan, fuqarolik, oilaviy ishlar va jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risida hamdo'stlik mamlakatlari bilan tuzilgan shartnomalarni; ikkinchidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi bilan o'zaro bitimlar tuzmagan davlatlarning sudlari tomonidan fuqarolik ishlari bo'yicha beriladigan

topshiriqlarni; uchinchidan, fuqarolik ishlari bo'yicha sud topshiriqlarini bajarish to'g'risida xorijiy davlatlar bilan tuzilgan shartnomalarni oladi.

Fuqarolik, oilaviy ishlar va jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordamlar ko'rsatish to'g'risidagi shartnomalar barcha hamdo'stlik davlatlar bilan tuzish uchun tadbirlar belgilanmoqda. Hamdo'stlik davlatlar o'rtasida tuzilgan huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi shartnomalar mamlakatlar, fuqarolar hamda yuridik shaxslar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik manba sifatida muhim ahamiyatga egadir. Bu shartnomalar hamdo'stlik davlatlari o'rtasida odil sudlovni amalga oshirish, huquqiy tartibotni mustahkamlash va huquq normalarini unifikatsiya (bir xil) qilishda muhim ahamiyatga ega.

Huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi shartnomalar to'la teng huquqlilik, hududiy daxlsizlik, davlatning suvereniteti va bir-birlarining ichki ishlariga aralashmaslik va manfaatlarining o'zaro hisobga olinishi printsiplari asosida tuzilgan bo'lishi lozim.

Hamdo'stlik davlatlari bilan huquqiy hamkorlik munosabatlarni rivojlantirishda bu shartnomalar huquq tartibotni mustahkamlashga, odil sudlovni to'g'ri amalga oshirishda katta rol uynaydi.

Fuqarolik, oila va mehnat masalalaridan kelib chiqqan nizolar bo'yicha ishlarni hal qilishda, agar o'zaro kelishilgan davlatlarning fuqarolari yoki korxonalar va tashkilotlari qatnashsalar, shuningdek, yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni belgilash to'g'risidagi ishlarni hal qilishda (agar bu faktlarni belgilashning boshqacha tartibi qonunda nazarda tutilmagan bo'lsa), chet el fuqarolarini bedarak yo'qolgan deb topish va uni o'lgan deb e'lon etish, fuqaroni muomalaga layoqatsiz deb topish to'g'risidagi ishlarni hal qilishda chet mamlakat sudlarining qarorlarini ijro etish bo'yicha sud topshiriqlarini bajarishda tegishli hamdo'stlik davlatlarining qonunlari tadbiiq etiladi.

Xorijiy davlatning sudlari tomonidan berilgan topshiriqni bajaruvchi O'zbekiston Respublikasi sudi, agar bunday topshiriq O'zbekiston Respublikasi qonunlariga xilof bo'lmasagina, mazkur davlatning protsessual huquq normalarini tadbiiq etishi mumkin. Fuqarolik ishlari bo'yicha chet davlat fuqarolari yoki xorijiy korxonalar va tashkilotlar fuqarolik ishlarida qatnashganlarida ish yuritishning asosiy masalasini-xorijiy davlatning moddiy huquqiy normasi to'g'risida masala bo'ladi. Xorijiy davlatlarning fuqarolari va tashkilotlari ishtirok etgan fuqarolik ishlarini hal qilish uchun chet mamlakatlarning moddiy huquq normalarining tadbiiq etilishi asoslari va shartlarini, ularning mazmunini aniqlash tartibini protsessual normalarning tadbiiq etilishini, bu normalarning noto'g'ri tadbiiq etilishining protsessual oqibatlarini bilish zarur.

Chet el fuqarolari va tashkilotlari ishtirok etgan fuqarolik ishlarini hal qilishda sud qonunga muvofiq chet el huquq normalarini ham tadbiiq etadi. Agar O'zbekiston Respublikasi ishtirok qilgan xalqaro shartnomada yoki xalqaro bitimda O'zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunlarida nazarda tutilgan qoidalarga qaraganda boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, u holda

O'zbekiston Respublikasi hududida ham huddi yuqoridagi qoida-xalqaro shartnoma qoidalari tadbiiq etiladi (FPKning 3-moddasi).

O'zbekiston Respublikasida chet el sudlari va arbitrajlarining qarorlarini ijro etish tartibi O'zbekiston Respublikasining chet davlatlar bilan tuzgan tegishli bitimlari bilan belgilanadi. Chet el sudi yoki arbitrajining hal qiluv qarori shu hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgan vaqtdan boshlab uch yil ichida majburiy ijroga topshirilishi mumkin. Ijro etiladigan qarorlar protsessual qonunga muvofiq chiqarilgan bo'lishi kerak (FPKning 391-moddasi).

Sud qarorlarining majburiy ravishda ijro etilishini so'rab berilgan iltimosnomada tubandagilar: 1-dan, haq undiruvchining nomi, agar iltimosnoma vakil tomonidan berilsa-bu vakilning nomi, doimiy yoki vaqtincha turar joyi; 2-dan, qarzdorning nomi va uning doimiy yoki vaqtincha turar joyi; 3-dan, qarorning majburiy ravishda ishro etishga ruhsat berilishi to'g'risida haq undiruvchining iltimosi ko'rsatiladi.

O'zlashtirish savollari

1.Chet el fuqarolari va tashkilotlari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning fuqarolik protsessual huquqlari.

2.Chet el fuqarolari va tashkilotlari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etayotgan nizolar, shuningdek loakal bittasi chet elda yashab turgan taraflar o'rtasidagi nizolar bo'yicha fuqarolik ishlari O'zbekiston Respublikasi sudlarining sudlovligiga taalluqli bo'lishi va taalluqliligi.

3.Chet davlat sudlarining sudga doir topshiriqlarini ijro etish va O'zbekiston Respublikasi sudlarining chet davlat sudlariga topshirik bilan murojaat qilishi.

4.Chet davlat sudlari va arbitrajlarining hal qiluv qarorlarini ijro etish.

30-Mavzu. HAKAMLAR SUDI (FUQAROLIK ISHLARINI HAKAMLAR SUDIDA KO'RIB HAL QILISH)

Tayanch iboralar: hakamlar sudi va uning fuqarolik huquqiy nizolarni hal qilishdagi ahamiyati, hakamlar sudiga taalluqli bo'lgan fuqarolik ishlari, hakamlar sudida ish ko'rish tartibi, hakamlar sudining hal qiluv qarorining qonuniy kuchi, hakamlar sudi hal qiluv qarorinish ijrosi.

Dars o'tish vositalari: mavzu nazariy ahamiyat kasb etishi bilan uni asosan ma'ruza tarzida O'zbekiston Respublikasining protsessual qonunchiligi haqida, Prezident asarlarida sud -huquq sohasini isloh qilishga qaratilgan vazifalarni hamda Oliy sudning Plenum qarorlarining - normalarini sharhlash orqali yoritiladi hamda zaruratga qarab savol-javoblar uyushtiriladi.

Dars o'tish usullari: darsning mohiyatini ijtimoiy-gumanitar fanlar yutuqlaridan foydalangan holda yorqin tahlil qilish va seminarda har bir talabanning fikrini eshitish bilan yakunlanadi.

Hakam termini arabcha «hakammu» so'zidan olingan bo'lib, holis, uchinchi bir shaxsning sudya bo'lishini anglatadi. Hakamlar sudi rus tilida «treteyskiy sud» deb atalib, uchinchi shaxslar (treti litsa) sudi degan ma'noda tushuniladi. **Hakamlar sudi deb fuqarolar bilan fuqarolar va tashkilotlar bilan tashkilotlar o'rtasida kelib chiqqan ba'zi fuqarolik huquqiy xarakterdagi nizolarning uchinchi shaxs yoki shaxslar (holislar) tomonidan ko'rilishiga aytiladi.**

Manfaatdor taraflarning fuqarolik huquqlari faqat davlat sudi tomonidangina emas, balki hakamlar sudi yo'li bilan ham himoya qilinishi mumkin. Hakamlar sudi nizolashuvchilarning alohida kelishuvi bilan bir yoki tok sonidan iborat bir necha shaxslar tarkibida fuqarolik huquqiy xarakteridagi nizoni hal etish uchun tashkil etiladi.

O'zbekiston Respublikasida hakamlar sudi nizoli huquqiy munosabatlarning sub`ektlariga va nizoning predmetiga qarab quyidagicha turlarga: fuqarolar o'rtasidagi nizolarni hal qilish uchun tuziladigan; tashkilotlar o'rtasidagi xo'jalik nizolarini hal qilish uchun tuziladigan; tashqi savdogaga oid nizolarni ko'radigan va dengiz huquqi bilan tartibga solinadigan huquqiy munosabatlardan kelib chiqqan nizolarni hal qilish uchun tuziladigan hakamlar sudlariga bo'linadi.

Fuqarolar o'rtasidagi nizolar hakamlar (holislar) sudi tomonidan hakamlar sudi turidagi Nizomga muvofiq hal qilinadi. Bu qonunni 1-20-moddalarida ko'rsatilishicha, fuqarolar (mehnat va oila munosabatlariga doir nizolardan tashqari) o'z o'rtalarida kelib chiqqan har qanday nizoni hakamlar sudining ko'rish uchun topshirishlari mumkin.

Nizoni hakamlar sudining ko'rish uchun topshirish to'g'risidagi shartnoma yozma shaklda (hakamlar yozuvi shaklida) tuzilgan bo'lishi hamda unda: taraflarning nomi va ularning yashash joyi; nizoning predmeti; saylangan sudyalarning nomlari; nizoni hal qilish muddati; shartnomaning tuzilgan joyi va vaqti ko'rsatilishi lozim.

Hakamlar sudi har safar nizoning hamma ishtirokchilarining alohida kelishuvi bilan tashkil etiladi va har bir taraf tomonidan baravar miqdorda saylangan bir yoki bir necha sudya tarkibida tuziladi. Agar sud hay`at tarkibida tuzilsa, sudyalardan biri o`zaro kelishuv bo`yicha rais qilib saylanadi.

Voyaga etgan (18 yoshga to`lgan) har bir fuqaro hakamlar sudining a`zosi qilib saylanishi mumkin. Ammo ayrim shaxslar: Jumladan, voyaga etmaganlar, vasiylik yoki xomiylik ostida bo`lganlar, sudning hukmi bilan sud organlarida va prokuraturada mansab egallash huquqidan yoki advokatlik faoliyati bilan shug`ullanish huquqidan mahrum etilganlar (hukmda ko`rsatilgan muddat davomida), jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslar hakamlar sudining a`zosi bo`la olmaydilar.

Ishning ko`rilishi tamomlanmaguncha sudyalar almashtirilmaydi.

Sudyalardan birortasining ko`rilayotgan ish oqibatlaridan manfaatdorligini va bu holat shartnoma tuzish vaqtida o`ziga ma`lum bo`lmaganligini isbot qilgan taraf-kelishuvdan voz kechishga haqlidir.

Sudyalardan biri vafot etgan, boshqa yokka ketib qolgan yoki kasal bo`lib qolgan taqdirda, nizoni hal qilishni sudyalarning mavjud tarkibiga topshirish yoki chikib ketgan sudyani saylagan tarafning tayinlashi bo`yicha yangi sudya saylash taraflarning kelishuviga bog`liq. Bu to`g`rida hakamlar yozuvining o`zida qayd qilinadi va uni qolgan hamma sudyalar va taraflar imzolaydi.

Nizoni hakamlar sudining ko`rishi uchun topshirish to`g`risida shartnoma tuzgan fuqarolar, Nizomning 6-moddasida ko`rsatilgan hollardan boshqa hamma hollarda, hakamlar yozuvida ko`rsatilgan muddat o`tmasdan oldin bu shartnomadan voz kechishga haqli emaslar.

Hakamlar sudida ishlar jamoatchilik asoslarida, xizmat haqi olinmasdan ko`riladi.

Hakamlar sudi FPKda bayon qilingan sud ishlarini yuritish qoidalari bilan bog`liq emas. Ammo tomonlardan biri yoki har ikkisi sudga kelishdan bosh tortmagan bo`lsa, hakamlar sudi taraflarning bayonotlarni eshitmasdan ishni hal qila olmaydi.

Hakamlar sudi tubandagi hollarda bo`lmagan deb hisoblanadi: ishni hal qilish muddati o`tganda; sudyalardan birortasining ishni ko`rishda ishtirok etishdan voz kechishi yoki chetlatilgani holda, agar ishni ko`rishda taraflarning birortasiga nisbatan jinoiy ta`kib qo`zg`atishga asos beradigan holatlar ochilib qolsa va bu hol ishning oqibatiga ta`sir qiladigan bo`lsa va nihoyat taraflardan biri vafot etgan taqdirda.

Hakamlar sudining hal qiluv qarori ko`pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. YOzma shaklda tuzilgan bu hal qiluv qarorida uning chiqarilgan joyi va vaqti hamda hakamlar sudining tarkibi; sud asoslangan hakamlar yozuvi; nizolashuvchilarning nomi; nizoning predmeti; hakamlar sudi o`z xulosalariga qanday dalillarni asos qilib olganliklari va hakamlar sudining qarori ko`rsatiladi.

Xal qiluv qarorini hamma sudyalar imzolaydi. Sudyalardan birortasi imzo qo`yishdan bosh tortsa va alohida fikrda qolsa, bu haqda hal qiluv

qarorining o'zida qayd qilib qo'yiladi. Sudyalarning ko'pchiligi tomonidan imzolangan hal qiluv qarori qonuniy kuchga egadir. Bu qaror taraflarga sud majlisida eshittiriladi va ular hal qiluv qaroriga imzo qo'yadilar. Agar taraflardan biri imzo qo'yishdan bosh tortsa yoki sud majlisiga uzrsiz sabab bilan kelmasa, hal qiluv qarori unga eshittirilgan hisoblanib, bu to'g'rida rais hal qiluv qaroriga yozib qo'yadi.

Hakamlar sudining hal qiluv qarori ixtiyoriy ravishda ijro etilmasa, rayon (shahar) sudi beradigan ijro varaqasiga asosan majburiy tartibda ijro qilinishi mumkin. Sudya ijro varaqasini berishda hakamlar sudining hal qiluv qarori qonunga muvofiqligini tekshiradi. Sudya ijro varaqasini berishni rad qilganida bu to'g'rida xususiy shikoyat berish yoki xususiy protest keltirish mumkin. Sudyaning ijro varaqasi berishni rad etish to'g'risidagi ajrimi qonuniy kuchga kirgandan so'ng, nizo manfaatdor tarafning arizasi bo'yicha sudda fuqarolik ishini yuritish tartibida hal qilinishi mumkin.

Hakamlar sudining ish yuritishga oid hamma materiallari ishni ko'rish tamomlangandan so'ng saqlash uchun hakamlar sudi ish ko'rgan joydagi rayon (shahar) sudiga topshiriladi.

Xo'jalik tashkilotlarining ayrim murakkab ishlari bo'yicha bo'lgan nizolarning hakamlar sudida ko'rilishini maqsadga muvofiq deb topilishi amaliyotdan ma'lum.

Birlashmalar, korxonalar, tashkilotlar va muassasalar o'rtasidagi xo'jalik nizolari o'zaro kelishuvga binoan har bir konkret ish bo'yicha saylanadigan hakamlar sudiga ko'rish uchun topshirilishi mumkin.

Hakamlar sudida xo'jalik sudlari kompetentsiyasiga taalluqli bo'lgan nizolar (nizolashuvchi tarafning qaysi ministrlilik yoki idoraga buysunishlaridan qat'iy nazar) ko'riladi. qolxozlar va qolxozlararo tashkilotlar bilan bo'lgan xo'jalik nizolari, ham xo'jalik sudlariga taalluqli bo'lgani uchun hakamlar sudida ko'riladigan bo'ldi.

Xo'jalik nizolarini bevosita bartaraf etish uchun taraflar tomonidan choralar ko'rilganidan so'nggina ko'rish uchun hakamlar sudiga topshirilishi mumkin. Agar bunday choralarning ko'rilganligi to'g'risida dalillar keltirilmasa, da'vo arizasi ko'rilmaydi.

Hakamlar sudi ish bo'yicha taraf bo'lib ko'rilgan tashkilotlarning rahbarlari, birlashmalar, korxonalarning direktorlari, tashkilotlar, muassasalarning rahbarlari, injener-texnik xodimlar, ilmiy-tekshirish muassasalari, jamoat tashkilotlari va ro'y bergan nizoni hal qilishga vakolatli bo'lgan boshqa shaxslar jumlasidan saylanadi.

Nizoni hakamlar sudida ko'rish to'g'risida taklif olgan taraf, bunday taklif olingan kundan e'tiboran o'n kun ichida bu taklifga rozi bo'lganligi yoki uni rad qilganligi to'g'risida yozma ravishda javob berishi kerak. nizoning hakamlar sudida ko'rilishi va sud tarkibi to'g'risida kelishilsa, manfaatdor tomon o'z talablarini yozma ariza tarzida ifodalashga va bu arizani hakamlar sudyalaridan biriga topshirishga majbur. Da'voning hakamlar sudiga berilishi da'vo muddatini o'tishini uzadi.

Nizo taraflardan birining joylashgan joyida yoki sud ish manfaatlarini ko'zlab, ishini qaerda ko'rilishini maqsadga muvofiq deb topsa-shu erda ko'riladi. Hakamlar sudi ishda ishtirok etuvchi taraflardan nizoni hal etish uchun zarur bo'lgan materiallarni talab qilib olishga, taraflarning o'zaro hisob-kitoblarini solishtirib tekshirishga, lozim bo'lsa ekspertiza tayinlashga majbur qilishga haqlidir.

Hakamlar sudi nizo yuzasidan hal qiluv qarori chiqarishda, pretenziyalar berish va ko'rish bo'yicha belgilangan muddatlarning buzilishiga yo'l kuygan tarafdin da'vo summasiga **qarab belgilangan miqdorda undirishga haqli bo'ladi**.

Hakamlar sudining xo'jalik nizolari bo'yicha chiqargan hal qiluv qarorlari qat'iy bo'ladi va barcha davlat, kooperativ va boshqa jamoat birlashmalari, korxonalar, tashkilotlar va muassasalar tomonidan qarorda belgilangan muddat davomida ijro etilishga majburiydir.

Hakamlar sudi tomonidan ko'rilgan ish hal qiluv qarori chiqarilgandan so'ng besh kun ichida ish ko'rilgan joydagi xo'jalik sudiga saqlash uchun topshiriladi.

Xo'jalik sudi hakamlar sudi chiqargan hal qiluv qarorini qonunga xilof deb topsa, mazkur hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risida asoslantirilgan qaror chiqaradi.

Birlashmalar, korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning rahbarlari hakamlar sudi tomonidan aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun choralar ko'rishga va ish saqlanib turgan xo'jalik sudiga ko'rilgan choralar to'g'risida bir oylik muddat ichida ma'lumot berishga majburiydir.

Hakamlar sudida ko'riladigan ishlar bo'yicha davlat boji olinmaydi.

Tashqi savdoga oid bitimlardan kelib chiqadigan nizolarni, jumladan, xorijiy firmalar bilan O'zbekiston Respublikasi xo'jalik tashkilotlari o'rtasidagi nizolarni hal qilish uchun Savdo palatasi qoshida Tashqi savdo arbitraj komissiyasi tashkil etilgan. Bu komissiyaning vakolati Tashqi savdo arbitraj komissiyasi to'g'risidagi Nizom bilan belgilangan.

Doimiy ravishda ish olib boradigan mazkur komissiyaning asosiy vazifasi tashqi savdo bitimlaridan kelib chiqadigan nizolarni ko'rishdan iborat.

Agar taraflar o'rtasida kelib chiqadigan nizolarning Tashqi savdo arbitraj komissiyasida ko'rilishi to'g'risida kelishilgan bo'lsa, komissiyada ish manfaatdor taraflarning yozma arizalari bo'yicha yuritiladi. Komissiyada ish yuritish tegishli tartibda tasdiqlangan maxsus qoidalarga muvofiq ravishda olib boriladi.

Da'vo arizasida umumiy ma'lumotlardan tashqari taraflarning kimlarni arbitraj qilib saylash to'g'risidagi fikr-mulohazalari, da'vo talablarining nimalar bilan, qanday dalillar, qonunlar, xalqaro shartnomalar bitimlar bilan asoslantirilganligi kursatiladi. Da'vo arizasiga ishga taalluqli bo'lgan hujjatlar ilova qilinadi. Da'vo arizasi ishda ishtirok etuvchi javobgarlarning soniga qarab nusxalar bilan topshiriladi.

Nizoli ishning arbitraj komissiyasida ko'rish to'g'risidagi arizaning nusxasi javobgar tomonidan olinganidan so'ng, uning tomonidan 30 kunlik

muddat ichida yozma bayonotlar berilishi mumkin. Javobgar shu muddat ichida o'zi saylagan arbitrni ko'rsatadi yoki arbitr tanlashni komissiya raisining ixtiyoriga topshiradi.

Arbitr ish ko'rish kunini tayinlaydi. Ish ochiq majlisda kuruladi, agar taraflardan biri talab etsa, ish yopiq majlisda ham ko'rilishi mumkin. Ish bo'yicha bayonnoma olib boriladi, bayonnoma arbitr tomonidan imzolaniadi. nizo yuzasidan hal qiluv qarori ko'pchilik ovoz bilan yoki arbitrning yakka o'zi tomonidan qabul qilinadi. Norozi arbitr o'z mulohazasini yozma ravishda ishga qo'shib qo'yadi. qarorning xulosa qismi darhol e'lon qilinadi.

Tashqi arbitraj komissiyasining qarori qat'iy bo'lib, shikoyat qilinmaydi. hal qiluv qarori taraflar tomonidan ixtiyoriy ravishda ijro etiladi, agar taraflardan biri ijrodan bosh tortsa, qaror qonun va xalqaro bitimlarda belgilangan tartibda ijrochi tomonidan majburiy ijro qilinadi. Ish ko'rish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar taraflarga yuklatiladi.

Dengiz arbitraj komissiyasi (DAK) dengiz huquqi bilan tartibga solinadigan huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarning mutaxassis shaxslar tomonidan tez va asosli hal etilishini ko'zda tutib tashkil qilingandir.

Dengiz arbitraj komissiyasi haqidagi Nizomga muvofiq bu komissiya vakolatiga kemalarning to'qnashuvidan, portlardagi ko'rilishlarga zarar etkazilishidan, dengiz kemalari bilan yuk va passajirlar tashishda zarar ko'rilishidan, baliq ovlash vaqtida kemalarga, turlarga zarar etkazilishidan va Nizomda ko'rsatilgan boshqa hollarda zarar etkazilishidan kelib chiqqan nizolarni ko'rish va hal qilish kiradi.

Komissiyada ish ko'rilishi, bu to'g'rida savdo palatasining prezidiumi tomonidan tasdiqlangan maxsus qoidalar bilan tartibga solinadi.

Savdo palatasining prezidiumi DAKni 25 a'zosidan iborat tarkibda bir yillik muddatga tayinlaydi. Komissiya a'zolaridan rais va ikki o'rinbosar saylanadi. nizoli ish manfaatdor tarafning yozma arizasiga ko'ra boshlanadi.

Da'vogar arizasida komissiya a'zolaridan kimni arbitr qilib saylaganligini yoki bu masalani hal qilishni raislik qiluvchining ixtiyoriga kuyganligini ko'rsatishi lozim.

Taraflarning komissiya majlisida qatnashmasligi ish ko'rish uchun to'sqinlik qilmaydi. Ish ochiq majlisda, uzluksiz, tortishuvchilik, erkin huquqlilik printsipi asosida ko'riladi. Taraflar dalillar keltirish, da'voni isbotlash, e'tirozlar bildirish huquqiga egadirlar. Agar keltirilgan dalillar etarli bo'lmasa, arbitr qo'shimcha dalillar talab qilishi mumkin.

O'zlashtirish savollari

1. Hakamlar sudi va uning fuqarolik huquqiy nizolarni hal qilishdagi ahamiyati.
2. Hakamlar sudiga taalluqli bo'lgan fuqarolik ishlari.
3. Hakamlar sudida ish ko'rish tartibi.
4. Hakamlar sudining hal qiluv qarorining qonuniy kuchi.
5. Hakamlar sudi hal qiluv qarorinish ijrosi.

31 Mavzu. O'ZBEKISTONDA XO'JALIK SUDI (XO'JALIK NIZOLARINI KO'RISH TARTIBI)

Tayanch iboralar: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida xo'jalik sudlarining odil sudlovni amalga oshiruvchi sud hokimiyati haqida, O'zbekiston Respublikasining xo'jalik protsessual kodeksi va uning o'ziga xos xususiyatlari, Xo'jalik sudlarida ishg ko'rishning asosiy tamoyillari, Xo'jalik sudlarining tizimi, Xo'jalik sudlariga taalluqli nizolar, Xo'jalik nizolarini ko'rishda ishtirok etuvchi shaxslar, ularning protsessual huquq va majburiyatlari, Xo'jalik ishlarini apellyatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida ko'rishning xususiyatlari, Xo'jalik sudlari qarorlarining ijrosi.

Dars o'tish vositalari: mavzu nazariy ahamiyat kasb etishi bilan uni asosan ma`ruza tarzida O'zbekiston Respublikasining protsessual qonunchiligi haqida, Prezident asarlarida sud -huquq sohasini isloh qilishga qaratilgan vazifalarni hamda Oliy sudning Plenum qarorlarining - normalarini sharhlash orqali yoritiladi hamda zaruratga qarab savol-javoblar uyushtiriladi.

Dars o'tish usullari: darsning mohiyatini ijtimoiy-gumanitar fanlar yutuqlaridan foydalangan holda yorqin tahlil qilish va seminarda har bir talabaning fikrini eshitish bilan yakunlanadi.

Xo'jalik sudiga manfaatdor shaxs o'zining buzilgan va nizolashilayotgan huquqi yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarining himoya qilinishi, belgilangan tartibda murojaat qilish huquqi berilgan.

Xo'jalik sudi iktisodiy sohada va uni boshqarish jarayonida kelib chiqadigan nizolar hamda qonunlar bilan uning vakolatiga kiritilgan boshqa ishlarni hal qilish yo'li bilan odil sudlovni amalga oshiradi.

Xo'jalik sudida sud ishlarini yuritish vazifalari quyidagilardan iborat:

1) iktisodiy sohada va uni boshqarish jarayonida korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolarning buzilgan va nizolashilayotgan huquqlarini yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish;

2) iktisodiy sohada va uni boshqarish jarayonida qonunchilikni mustahkamlash va huquqbuzarliklarning oldini olishga ko'maklashish.

Xo'jalik sudlarida ish yuritishning sub`ektlari bo'lib, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, shu jumladan jamoa xo'jaliklari, turli mulkchilik shakllariga asoslangan xususiy va kushma korxonalar xalqaro birlashmalari, davlat hamda boshqa idoralar, iktisodiy masalalar bo'yicha shug'ullanuvchi tadbirkorlar va yuridik shaxslar bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 111-moddasida va «Sudlar to'g'risida»gi qonunda, xo'jalik sudlarining tashkil etilishi va ularning faoliyati tartibi, tizimi Xo'jalik protsessual kodeksi¹ va shular asosida qabul qilingan qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Mazkur qonun hujjatlari nizolarni ko'rishda ishtirok etadigan barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, boshqa taraflar uchun asosiy qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq Xo'jalik sudlari ham umumiy sudlar singari besh yil muddatga saylanadigan Oliy Xo'jalik sudidan, qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jalik sudidan va shu muddatga tayinlanadigan viloyat sudlari Toshkent shahar Xo'jalik sudlaridan iborat tartibda faoliyat ko'rsatadigan xo'jalik sudlari mavjud (Konstitutsiyaning 107-moddasi).

Oliy Xo'jalik sudining sudyalari Prezidentning tavsiyasiga ko'ra, Oliy Majlis deputatlari, qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jalik sudlari esa qoraqalpog'iston Respublikasi Jukorgi Kengesi tomonidan saylanadilar.

Viloyat, Toshkent shahar Xo'jalik sudlarning sudyalari Oliy Xo'jalik sudi raisi tavsiyasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan yuqorida ko'rsatilganidek besh yil muddatga tayinlanadilar.

Xo'jalik sudlarining quyi sudlari bo'lib, faqat Toshkent shahar va viloyat sudlari hisoblanib, tuman (shahar)larda xo'jalik nizolarini ko'rib hal etadigan sudlar faoliyat ko'rsatmaydi.

Sobiq Arbitraj sudlari zamirida tuzilgan amaldagi Xo'jalik sudlari o'zining mazmuni va mohiyati bilan tubdan farq qiladi, jumladan:

a) agar arbitraj sudlariga odil sudlovni amalga oshirishdek muhim funktsiya yuklatilmagan bo'lsa, xo'jalik sudlari ham umumiy sudlar kabi odil sudlovni amalga oshiradigan organ sifatida ko'riladigan bo'ldi;¹

b) agar arbitraj boshqaruv organlariga bo'ysinuvchi va bu organlarga xos muayyan vazifalarni bajaruvchi bo'lib hisoblangan bo'lsa, Xo'jalik sudlari esa, Konstitutsiyaga asosan sud hokimiyati tizimiga kiritildi;

v) xo'jalik sudlarida apellyatsiya bosqichi faoliyat ko'rsatadigan bo'lishi;

g) guvohlarning bergan guvohliklaridan foydalanish kabi qator huquqiy me'yorlar arbitraj organlaridan farq qilishini ko'rsatuvchi omillar bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida Oliy Xo'jalik sudi xo'jalik sudlov sohasida sud hokimiyatining eng yuqori organi hisoblanadi. U tomonidan qabul qilingan hujjatlar qat'iy va O'zbekiston Respublikasining barcha hududida bajarilishi majburiy. O'zbekiston Respublikasi Oliy Xo'jalik sudi qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jalik sudi, viloyatlar, Toshkent shahar Xo'jalik sudining sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega.

Oliy Xo'jalik sudi, Plenumning dasturiy ko'rsatmalarini Xo'jalik sudlari tomonidan bajarilishini nazorat qiladi,

quyi xo'jalik sudlari faoliyatini tekshiradi, xo'jalik sudlarining ishlarini tashkil etish borasidagi ijobiy tajribani urganadi, umumlashtiradi va ommalashtiradi.

Oliy Xo'jalik sudining tarkibi «Sudlar to'g'risida»gi qonunda o'z ifodasini topgan Oliy Xo'jalik sudi-Rais, uning o'rinbosarlari, sudlov hay'atlari raislari, Oliy Xo'jalik sudi sudyalaridan iborat bo'ladi.

Oliy Xo'jalik sudi;

Oliy Xo'jalik sudining Plenumi;

Oliy Xo'jalik sudining Rayosati;

Nizolarni hal etish bo'yicha sudlov hay'ati;

Xo'jalik sudlari qarorlarining qonuniyligi va asosligini tekshirish bo'yicha sudlov hay'ati faoliyat ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Xo'jalik sudining raisi Oliy Xo'jalik sudi faoliyatiga tashkiliy rahbarlik qiladi va quyidagi vazifalarni amalga oshiradi;

-Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jalik sudi, viloyatlar, Xo'jalik sudlari raislarining xo'jalik sudlari ishlarini tashkil qilish haqidagi ma'ruzalarini eshitadi;

-xo'jalik sudlari, Oliy xo'jalik sudi sudlov hay'atlari va apparati ishini tashkil qilishga oid masalalarni ko'radi;

-qonun hujjatlarida o'ziga berilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Oliy Xo'jalik sudining Rayosati Oliy Xo'jalik sudi sudyalaridan belgilangan miqdorda tuziladi.

Oliy Xo'jalik sudi Rayosati Oliy Xo'jalik sudi sudyalaridan Oliy Xo'jalik sudi Plenumi tomonidan belgilangan miqdorda tuziladi.

Oliy Xo'jali sudi Raisi va uning o'rinbosarlari Rayosat tarkibiga lavozimlari bo'yicha kiradilar.

Rayosatning yigilishi oyida kamida bir marta o'tkaziladi va Rayosat a'zolarining ko'pchiligi ishtirok etgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

Oliy Xo'jalik sudining tarkibida yana sudlov hay'atlari faoliyat ko'rsatib, ular xo'jalik nizolarini birinchi instantsiyada sud qarorlarining qonuniy va asosligini tekshirish tartibida amaldagi qonunlarga va huquqiy me'yorlarga asoslangan holda ish ko'radilar.

Xo'jalik sudlari iktisodiy isloxlarni o'tkazish jarayonida davlat organlari orasida muhim o'rin egallagani sababli iktisodiy sohada va uni boshqarish jarayonida korxonalar, muassasa, tashkilotlar va fuqarolarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlarini yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish bilan bu borada qonunchilikni mustahkamlash va shartnoma munosabatlaridagi huquqbuzarlikni oldini olishga qaratilganligi Xo'jalik Protsessual kodeksining 3-moddasida o'z ifodasini topganligi bu sudlarning asosiy vazifasi ekanligini bildiradi.

Amaldagi qonunlarda xo'jalik nizolarini hal qilishga qaratilgan xo'jalik sudlarining vakolatlari birmuncha kengaytirilib, jamoa xo'jaliklari, tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi fuqarolarning ham iktisodiy munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolari shu sudlarga taalluqli qilib belgilangan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Xo'jalik sudi Plenumining 1994 yil 18 oktyabrdagi nizolarining xo'jalik sudloviga taalluqligiga doir ayrim masalalar).¹

Xo'jalik sudlarida ish ko'rish taalluqlilik qoidasiga rioya qilgan holda amalga oshiriladi. Xo'jalik Protsessual Kodesida manfaatdor taraf xo'jalik nizolaridan qaysi turdagi ishlar yuzasidan sudga murojaat etishi mumkinligi berilgan, ularga:

1) yuridik shaxslar (bundan buyon matnda-tashkilotlar) o'rtasidagi, yuridik shaxs tuzmagan holda yakka tartibdagi tadbirkor maqomini qonunda belgilangan tartibda olgan fuqarolar o'rtasidagi (bundan buyon matnda-fuqarolar) fuqarolik, ma'muriy va boshqa huquqiy munosabatlar natijasida iktisodiy sohada hamda uni boshqarish jarayonida kelib chiqadigan nizolarga doir ishlar;

2) iqtisodiy sohada hamda uni boshqarish jarayonida tashkilotlar va fuqarolarning huquqlari paydo bo'lishi, o'zgarishi yoki tugatilishi uchun ahamiyat kasb etuvchi faktlarni aniqlash (bundan buyon matnda-yuridik ahamiyat kasb etuvchi faktlarni aniqlash) to'g'risidagi;

3) tashkilotlar va fuqarolar bankrotga uchraganligi to'g'risidagi ishlar.

Xo'jalik sudlariga taalluqli bo'lgan ishlar tomonlarning kelishuviga asosan holislar sudiga hal etish uchun o'tkazishlari mumkin.

Fuqarolik huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan hamda xo'jalik sudiga taalluqli bo'lgan nizolar tomonlarning kelishuviga binoan, xo'jalik sudi qaror chiqargunga qadar tomonlar holislar sudi ko'rib chiqishiga utkazishlari mumkin.

Xo'jalik ishlariga taalluqli ishlarning sud bo'g'inlari (zvenolari) o'rtasidan taqsimlanishi qonunlarda o'z ifodasini topgan. Taalluqlilik haqida umumiy sudlarda ko'rsatib o'tilganidek, xo'jalik sudlarida ham taalluqlilik deganimizda nizoli ishlarni ko'rish va hal qilish yuzasidan sudlar bilan boshqa davlat organlari va jamoat tashkilotlari o'rtasida huquq doirasidagi vakolatlar bilan bog'liq bo'lgan farqlar nazarda tutilgan bo'lsa, sudlovlikda esa, bir tomondan hal etiladigan nizoli ishlarni sudga taalluqliligini tushunilsa, ikkinchi tomondan yagona xo'jalik sud tizimi ichida har bir sudlar qanday vakolatga ega ekanligi anglanadi.

Demak, xo'jalik nizolarini sudlovligi deganda sud idoralariga taalluqli bo'lgan barcha ishlarning umumiy sudlar o'rtasida taqsimlanishi tushuniladi. Ishning sudlovligini aniqlash deganda mazkur ishni qaysi xo'jalik sud bo'g'ini ko'rish va hal etishi mumkin (vakolatli) ekanligi ham tushuniladi.

Xo'jalik sudiga taalluqli ishlar qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar Xo'jalik sudlari tomonidan qarab chikiladi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Xo'jalik sudi sudloviga taalluqli ishlar bundan mustasnodir.

Oliy Xo'jalik sudi quyidagilarni ko'rib chiqadi:

-respublika boshqaruv organlari, vakillik va ijroiya hokimiyati mahalliy organlar o'rtasidagi iktisodiy bitimlardan kelib chiqadigan nizolar;

-O'zbekiston Respublikasi vakillik, ijroiya hokimiyati mahalliy (organlari) Oliy organlarining normativ xarakterga ega bo'lmagan hujjatlarini (butunlay yoki qisman) haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi ishlar.

Oliy Xo'jalik sudi alohida holatlarni e'tiborga olgan holda istalgan ishni istalgan xo'jalik sudidan olib qo'yish va uni birinchi instantsiya bo'yicha o'zi

qarab chiqishiga qabul qilishi, ishni bir xo'jalik sudidan boshqasiga o'tkazish huquqiga egadir.

Sud bo'g'inlari o'rtasida taqsimlangan nizoli xo'jalik ishlarini sud da'vogarnimi, javobgarnimi ulardan birini yashab, ishlab turgan hududida ko'rib hal etilishini aniqlashi lozim. Bu masalani qanday hal etishlik qonunda o'z ifodasini topgan. Umumiy qoida bo'yicha da'volar javobgar joylashgan erdagi xo'jalik sudiga taqdim etiladi.

Alohida bo'linmalarda faoliyat ko'rsatuvchi yuridik shaxsga nisbatan da'vo alohida bo'linma joylashgan erga taqdim etiladi. Fuqarolik Protsessual huquqida sudlovlikni turlarga bo'linishi va shular asosida nizoli ishlarni qaysi sud bo'g'inida ko'rib hal etilishiga birmuncha aniqlik kiritilgan.

Xo'jalik Protsessual Kodesida ham bu masalaga ahamiyat berilganligi ko'riladi. Bunga ko'ra sudlovlik institutini umumiy sudlovlik da'vogarni ixtiyori bo'yicha sudlovlik; yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni belgilash to'g'risidagi ishlarining sudlovligi; bankrotlik to'g'risidagi ishlarning sudlovligi; mustasno (mutloq) sudlovlik; shartnomaviy sudlovlik turlarga bo'linib, bular xo'jalik nizolarini xususiyatlariga qarab ish tutilganligi bilan farqlanishi ko'rsatilgan.

Ish yuritishda yuqorida keltirilgan har bir sudlovlik turlari o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ularga rioya qilmaslik taraflarning huquq va manfaatlarining buzilishiga olib kelishi mumkin.

1) Hududiy (umumiy) sudlovlikka ko'ra, qonunda nazarda tutilgan hollarda fuqarolar tadbirkorlik bilan shug'ullangan ishlar bo'yicha asosan javobgarning yashash joydagi xo'jalik sudiga, agar javobgar yuridik shaxs bo'lsa, ishning qaysi sud tomonidan ko'rilishi lozimligi yuridik shaxsning organi (idorasi) yoki mulki turgan joy bo'yicha yoki alohida bo'linma (filiali) joylashgan joyda ko'rish belgilangan.

Da'volar nizoli ishlarni qonun bo'yicha unga berilgan huquq doirasida o'z ixtiyoriga qarab ish qo'zg'atishi ham nazarda tutilgan.

Manfaatdor shaxs da'vogar ishlarini qaysi sudda ko'rish lozimligi uning ixtiyori tanlashi bo'yicha belgilanishiga alternativixtiyoriy sudlovlik deb ataladi.

Turli erlarda joylashgan bir nechta javobgarlarga nisbatan-da'volar da'vogarning tanlashi bo'yicha javobgarlarning biri joylashgan erdagi xo'jalik sudiga taqdim etiladi.

Qaerdaligi noma'lum bo'lgan javobgarlarga nisbatan da'volar uning mol-mulki joylashgan erdagi yoki O'zbekiston Respublikasida ma'lum bo'lgan oxirgi turar joyidagi xo'jalik sudiga taqdim etilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining tashkiloti yoki fuqarosi bo'lgan va ayni paytda boshqa davlat hududida turgan javobgarga nisbatan da'volar da'vogar joylashgan erdagi yoki javobgarning mol-mulki joylashgan erdagi xo'jalik sudiga taqdim etilishi mumkin.

Ijro etish joyi ko'rsatilgan shartnomadan kelib chiqadigan da'volar shartnoma ijro etiladigan erda qo'zg'atilishi mumkin.

1) Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni belgilashdan maqsad manfaatdor shaxslarning xo'jalik huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan

nizolarni qo'zg'atish bilan, ularning mulkiy huquqlarini qo'riqlashi nazarda tutilgan.

Sud bunday ishlarni ko'rishda yuridik ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlarni boshqa tartibda olish mumkin bo'lmaganligi tufayli sudga murojaat etganligini aniqlashi kerak. Huquqiy faktlarni belgilash uchun, agar bu fakt shaxsiy yoki mulkiy huquqlarni vujudga keltiradigan, o'zgartiradigan yoki bekor qiladigan holatlar bo'lishi talab etiladi.

Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi ishlar arizachi turgan joydagi sudning sudloviga tegishlidir.

2) Bozor iktisodiyoti davrida xo'jalik tashkilotlari tadbirkorlarning bir maromda ishlashligi va yuritishni oqilona tashkil qilishga bog'liq bo'ladi. Bordinyu, bozor qonuniyatlariga nisbatan ishbilarmonlik yusinida ish tutmasalar xonavayron (bankrot) likka uchrashi mumkin. Shuning uchun ham xo'jalik protsessual kodeksida bankrotlikka alohida e'tibor berilib, sudlovlikka oid qoida, kelib chiqadigan nizoli ishlarni tashkilot yoki fuqarolarning, ya'ni qarzdorlarning turgan joyidagi sudda ko'rib hal etilishi nazarda tutilgan.

3) Mustasno (mutloq) sudlovlik. Bu sudlovlikning asosiy mohiyati shundaki, xo'jalik nizolarini qonun faqat muayyan ishlarni, muayyan sudlarga tegishli bo'lishini belgilaydi.

Mustasno sudlovlikka tegishli bo'lgan nizoli ishlarning sanogini kengaytirilishiga yo'l qo'yilmaydi, ya'ni bunday sudlovlikdan taraflarning kelishuviga yoki da'vogarning tanlashi bo'yicha o'zgartirilmaydi. Masalan, bino, inshoot, er-uchastkalariga nisbatan mulk huquqi to'g'risidagi, bino, inshoot, er-uchastkasini noqonuniy egallovchilardan tortib olish, mulkdorning yoki mulkning boshqa qonuniy egasining, egalik huquqini tortib olish bilan bog'liq bo'lmagan huquqlari buzilishini bartaraf etish to'g'risidagi da'volar bino, inshoot, er-uchastkasi joylashgan erdagi sudga beriladi.

4) Qonunda da'vogar, javobgar yashab, ishlab turgan joydagi hamda da'vogarning ixtiyori bo'yicha sudlovliklarni (XPKning 27-28-moddalari) taraflarning roziligi bilan o'zgartirish mumkinligi qayd qilingan. Bunday sudlovlik shartnomaviy sudlovlik turiga kiradi. Bu huquqiy me'yorning maqsadi manfaatdor shaxslarga ko'prok qulayliklar yaratish inobatga olingan.

Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat ko'rishga kadam qo'yilgan bir paytda taraflarning sudlovlikdagi erkinliklarini ortiqcha cheklashni maqsadga muvofiq emasligi nazarda tutilgan. Shartnomaviy sudlovlikka asosan taraflar o'rtasida ish yuzasidan nizo kelib chiqqan taqdirda shartnomada va undan keyin ham nizoni qaysi sudda ko'rib hal etilishini taraflar kelishuv asosida o'zaro belgilashlari mumkin.

Agar ish ko'rish jarayonida xo'jalik sudi tomonidan shartnomaviy sudlovlik tufayli taraflarning huquqi buzilganligini aniqlasa, ishni sudlovlikni umumiy qoidalari asosida ko'rish to'g'risidagi masalani hal etishi mumkin.

Amaldagi xo'jalik protsessual kodeksida ishlarni bir xo'jalik sudidan boshqasiga o'tkazish masalasiga ham alohida huquqiy me'yor bilan tartibga solinishi belgilangan.

Xo'jalik sudi tomonidan sudlovga tegishlilik qoidalarga rioya qilgan holda qabul qilib olingan ish, garchi keyinchalik boshqa xo'jalik sudining sudloviga tegishli bo'lib qolsa-da, avvalgi xo'jalik sudi tomonidan mohiyatan ko'rilishi lozim.

Biroq sud ba'zi qabul qilingan ishning boshqa sudda ko'rilishi zarur va maqsadga muvofiq degan xulosaga kelishi mumkin. Bunday hollarda qonun sudyaga ishni ko'rish uchun boshqa teng darajadagi sudga o'tkazish huquqini beradi.

Xo'jalik sudi ishni boshqa xo'jalik sudiga quyidagi hollarda o'tkazadi:

1) agar ish sudlovga tegishlilik qoidasi buzib qabul qilinganligi va shu sudda ishni ko'rish vaqtida ma'lum bo'lsa;

2) agar bir yoki bir necha sudyalar rad qilinganidan keyin ularni ushbu sudda almashtirish mumkin bo'lmay qolsa, shuningdek ishni ushbu sudda ko'rish mumkin bo'lmay qolgan boshqa hollarda; Ishni boshqa xo'jalik sudida ko'rishga o'tkazish to'g'risida ajrim chiqariladi.

Bir suddan boshqa sudga yuborilgan ish u yuborilgan sudda ko'rish uchun qabul qilib olinishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Xo'jalik sudlari o'rtasida sudlovga tegishlilik to'g'risidagi nizolarga yo'l qo'yilmaydi (XPKning 33-moddasi).

Ishni boshqa sudga o'tkazish to'g'risidagi sudning ajrimiga shu ajrim ustidan shikoyat qilish muddati o'tgandan so'ng berilgan bo'lsa, bunday hollarda shikoyatni qanoatlantirmay qoldirish haqida sud ajrim chiqargandan so'ng ish boshqa sudga o'tkaziladi.

Ish bir suddan boshqa xo'jalik sudiga yuborilganida ish kelib tushgan sudda ko'rib chiqilishi va bu borada xo'jalik sudlari o'rtasida sudlovlik to'g'risida nizolar kelib chiqmasligi haqida qonun yo'l qo'ymasligini ta'kidlaydi.

Agar korxonalar, tashkilot va muassasaning qaytadan tuzilishi munosabati bilan ishda qatnashuvchi taraflar o'zgartirilsa yoki taraflarning biron-bir tashkilotga buysunishi o'zgarsa va shu tufayli nizo boshqa xo'jalik sudiga taalluk bo'lib qolsa, ish mazkur xo'jalik sudiga topshirilishi lozim.

Nizoning mazkur xo'jalik sudiga taalluqli bo'lmasligi aniqlanganida da'vo (arizalari) materiallari da'vo arizasi tushgan paytdan e'tiboran yoki ish sud majlisida bekor qilingani zamon uch kun ichida tegishli xo'jalik sudiga yuborilishi kerak. Bu materiallarni olgan sudya ularni umumiy asoslarda ko'rish uchun qabul qiladi.

Xo'jalik sudining sudyasi da'vo materiallari noto'g'ri yuborilgan deb topsa, bu materiallarning nizoning taalluqliligi to'g'risidagi masalani hal qilish uchun tegishli xo'jalik sudiga yuborilishi kerak.

Qonunda ko'rsatilgan ayrim hollarda xo'jalik nizolari avval sudsiz hal etish ko'rsatilgan bo'lishi mumkin, masalan, «Birjalar va birja faoliyati to'g'risida»gi «O'zbekiston Respublikasi qonunining 31-moddasi 2-bandida birja oldi-sotdi qatnashchilari o'rtasida yuzaga keladigan nizolar konflik

komissiyasi tomonidan hal etilishi, agar taraflardan biri uning qaroridan roz bo'lmagan taqdirda tegishli xo'jalik sudi tomonidan hal etilishi ko'rsatilgan.¹

O'zlashtirish savollari

1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida xo'jalik sudlarining odil sudlovni amalga oshiruvchi sud hokimiyati haqida.

2.O'zbekiston Respublikasining xo'jalik protsessual kodeksi va uning o'ziga xos xususiyatlari.

3.Xo'jalik sudlarida ishg ko'rishning asosiy tamoyillari. Xo'jalik sudlarining tizimi.

4.Xo'jalik sudlariga taalluqli nizolar.

5.Xo'jalik nizolarini ko'rishda ishtirok etuvchi shaxslar, ularning protsessual huquq va majburiyatlari.

6.Xo'jalik ishlarini apellyatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida ko'rishning xususiyatlari.

7.Xo'jalik sudlari qarorlarining ijrosi.

32-Mavzu. O'ZBEKISTONDA NOTARIAT (NOTARIAL HARAKATLAR)

Tayanch iboralar: notariat tushunchasi va uning vazifalari, «Notariat to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasining qonuni va uning mohiyati, notarial idoralarning tuzilishi va ularning vakolatlari, notarial harakatlarni bajarish bo'yicha tuman, shaxarchalar, qishloqlar va ovullar fuqarolar yig'inlarining rais (oksoqol)lari tomonidan amalga oshiriladigan notarial harakatlar, notarial harakatlar yuzasidan nizolashish, ayrim turdagi notarial harakatlarni bajarish qoidalari, er-xotinning umumiy mulkidagi xissaga bo'lgan egalik huquqini belgilash to'g'risida guvohnoma berish, merosga bo'lgan huquq haqida guvohnoma berish, ijro xatlarining mazmuni, faktlarni guvohlantirish bo'yicha notarial harakatlar, meros mulkini saqlash choralari, musodara qilingan uy-joyni birovlariga berishni ta'qiqlash, hujjatlarni saqlashga qabul qilish.

Dars o'tish vositalari: mavzu nazariy ahamiyat kasb etishi bilan uni asosan ma'ruza tarzida O'zbekiston Respublikasining protsessual qonunchiligi haqida, Prezident asarlarida sud -huquq sohasini isloh qilishga qaratilgan vazifalarni hamda Oliy sudning Plenum qarorlarining - normalarini sharhlash orqali yoritiladi hamda zaruratga qarab savol-javoblar uyushtiriladi.

Dars o'tish usullari: darsning mohiyatini ijtimoiy-gumanitar fanlar yutuqlaridan foydalangan holda yorqin tahlil qilish va seminarda har bir talabaning fikrini eshitish bilan yakunlanadi.

Notariat atamasi lotincha «notarius» so'zidan olingan bo'lib, xat yozuvchi, kotib ma'nosini bildiradi.

O'zbekiston Respublikasida notariat deb fuqarolar hamda tashkilotlarning huquqlarini hamda yuridik ahamiyatga ega bo'lgan aktlarni guvohlantiruvchi va bu huquqlar hamda faktlarni tasdiqlash bilan bog'liq bo'lgan harakatlarni amalga oshiruvchi davlat va xususiy idoralarga aytiladi.

Notariat (notarial idoralar) yuridik faktlarni belgilaydigan va fuqarolik huquqlari to'g'risidagi nizolarni hal qiluvchi sud muassalaridan farqlanadi. Bu idoralar fuqarolar bilan bevosita uchrashish yo'li bilan yoki qonunda ko'rsatilgan hollarda hujjatlarga asosan nizosiz huquqlarni va yuridik faktlarni guvohlantiradi.

O'zbekiston Respublikasida notariatning tashkil etilishi printsiplari va faoliyati O'zbekiston Respublikasining notariati to'g'risidagi 1996 yil 26 dekabrda qonuni,¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Notariati to'g'risida» chiqarilgan qarorlari bilan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi notarial idoralar tomonidan notarial harakatlarni bajarish tartibi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi davlat notarial idoralarning notariuslari va xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarning notarial harakatlarini amalga oshirish tartibi to'g'risida»gi 1997 yil 28 aprel qo'llanmasi, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi hay'atining 1997 yil 28 apreldagi qarori bilan tasdiqlangan. «O'zbekiston Respublikasi davlat notarial idoralarida xususiya

amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarning ish yuritish tartibi haqida»gi qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi hay'atining 1997 yil 28 aprelda tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi shaharchalar, kishloklar va ovullar fuqarolari yig'inlarining raislari (oksoqollari) tomonidan belgilangan notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to'g'risida»gi ko'llanma hamda boshqa huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.¹

O'zbekiston Respublikasida notarial harakatlarni bajarish davlat yoki xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarial idoralarga yuklatilgan. Notarial idoralar bo'lmagan aholi yashaydigan joylarda (punktlarda) ba'zi notarial harakatlar fuqarolar yig'inlarining raislari (oksoqollari) tomonidan amalga oshiriladi.

Chet mamlakatlarda notarial harakatlarni bajarish respublika fuqarolar va tashilotlar manfaatlarini ko'zlab O'zbekiston Respublikasining konsullik muassalarini notarial harakatlarni amalga oshirish vakolati berilgan mansabdor shaxslariga yuklatilgan.

Notarial idoralar va shaharlar, kishloklar va ovullar fuqarolarining raislari o'z ishlarini, faoliyatini amalga oshirishda amaldagi qonunlarga, jumladan, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga, Oila kodeksiga va Fuqarolik Protsessual Kodesiga asoslanadilar.

Notarius o'z faoliyatida mustaqil bo'lib, bu faoliyatni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga amal qiladi.

Notariusning faoliyat ko'rsatish hududi (notarial okrug) O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy bo'linishiga muvofiq belgilanadi. Tumanlarga bo'lingan shaharlarda tegishli shaharning butun hududi notarial xizmat ko'rsatish hududi hisoblanadi.

Korakalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi yoki tegishli adliya boshqarmasi sodir etilish joyi qonun hujjatlarida belgilangan notarial harakatlarni bajarish yuzasidan notarius o'z vazifalarini amalga oshirishga haqli bo'lgan hududni belgilab beradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, adliya boshqarmasi aniq holatlarni hisobga olib, notariusning vakolatlari amal qiladigan hududni o'zgartirishi mumkin. Ko'rsatilgan hudud doirasida notariusning o'z ish joyi bo'lishi shart.

Har bir fuqaro yoki yuridik shaxs notarial harakatlarni amalga oshirish uchun xohlagan notariusga murojaat qilishga haqlidir, ushbu qonunning 37, 44, 51, 52, 59, 62, 63, 74, 82 va 93-moddalarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Notariusning notarial harakatni belgilangan faoliyat hududidan tashqarida amalga oshirishi bu harakatni haqiqiy emas, deb topishga asos bo'lmaydi.

Notarius mavjud bo'lmagan hududdagi vasiyat qiluvchi og'ir kasal bo'lgan hollarda vasiyatnomani tasdiqlash uchun notarius o'zi xizmat ko'rsatadigan hududdan tashqariga chiqishga haqlidir. Notariat faoliyatiga xos

bo'lgan alohida qoida shundan iboratki, notariuslar va notarial idoralarining boshqa xodimlari, umuman notariat faoliyatini amalga oshiruvchilar o'zlari tomonidan qilinadigan notarial harakatlarini sir qilib saqlanishini ta'minlashga majburlar. Binobarin, qilingan notarial harakatlar to'g'risida ma'lumotlar va hujjatlarni kimlarga nisbatan bunday harakatlar qilingan bo'lsa, shu shaxslarning o'zlariga yoki ularning vakillariga yoxud qonunda nazarda tutilgan hollarda tergov va sudlarning talablari bo'yicha beradilar. Vasiyatnomalar to'g'risidagi ma'lumotlar kimlarning foydasiga mazkur vasiyatnomalar tuzilgan bo'lsa, shu shaxslarga vasiyat qoldiruvchi fuqaro o'lganidan so'ng beriladi.

Notariuslar o'z nomlaridan shaxsan o'zlari uchun, o'zlari nomidan xotini yoki eri nomiga, notarial harakatlar qila olmaydilar. Bundan tashqari notarius mazkur notarial idorada ishlovchi xizmatchilar nomidan notarial harakatlar qila olmaydilar. Bunday qoidalar notarius ishida ba'zi bir suis`temol qilishlarga yo'l qo'ymaslik maqsadida belgilanadi.

Amaldagi notariat to'g'risidagi qonunda notarial harakat bilan shug'ullanish uchun yangi qoida belgilangan. Bu qoidaga ko'ra, notariat faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxs litsenziya (ruxsatnoma)ga ega bo'lish lozim. Litsenziya qoraqalpog'iston Respublikasi adliya vazirligi, adliya boshqarmalari tomonidan malaka komissiyalarining qarorlari asosida beriladi. Litsenziya berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan belgilab qo'yilgan. Litsenziya berish rad etilganligi ustidan sudga qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, adliya boshqarmasining qarori olingan kundan boshlab bir oy ichida shikoyat qilish mumkin.

Litsenziya olgan, lekin uch yil mobaynida notarius lavozimida ish boshlamagan fuqaroning malaka imtixonini qayta topshirganidan keyingina notarius lavozimida ishlashiga yo'l qo'yiladi.

Qonunning 4-moddasida malaka va apellyatsiya komissiyalarining faoliyati haqida so'z boradi.

Notariat to'g'risidagi qonunga ko'ra, notarius o'z faoliyatida mustaqil bo'lib, bu faoliyatni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga amal qiladi.

Notariusning faoliyat ko'rsatish hududi (notarial okrug) O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-huquqiy bo'linishiga muvofiq belgilanadi. Tumanlarga bo'lingan shaharlarda tegishli shaharning butun hududi notarial xizmat ko'rsatish hududi hisoblanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi yoki tegishli adliya boshqarmasi sodir etilish joyi qonun hujjatlarida belgilangan notarial harakatlarni bajarish yuzasidan notarius o'z vazifalarini amalga oshirishda haqli bo'lgan hududni belgilab beradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, adliya boshqarmasi aniq holatlarni hisobga olib, notariusning vakolatlari amal qiladigan hududni o'zgartirishi mumkin. Ko'rsatilgan hudud doirasida notariusning o'z ish joyi bo'lishi shart.

Har bir fuqaro yoki yuridik shaxs notarial harakatlarni amalga oshirish uchun xohlagan notariusga murojaat qilishga haqlidir. Ushbu qonunning 37, 44, 51, 52, 59, 62, 63, 74, 82 va 93-moddalarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Notariusning notarial harakatni belgilangan faoliyat hududidan tashqarida amalga oshirishi bu harakatni haqiqiy emas deb topishga asos bo'lmaydi.

Notarius mavjud bo'lmagan hududdagi vasiyat qiluvchi og'ir kasal bo'lgan hollarda vasiyatnomani tasdiqlash uchun notarius o'zi xizmat ko'rsatadigan hududdan tashqariga chiqishga haqlidir.¹

Notariat faoliyatiga xos bo'lgan alohida qoida shundan iboratki, notariuslar va notarial idoralarning boshqa xodimlari umuman notariat faoliyatini amalga oshiruvchilar o'zlari tomonidan qilinadigan notarial harakatlarning sir saqlanishini ta'minlashga majburlar. Binobarin, bajarilgan notarial harakatlar to'g'risida ma'lumotlar va hujjatlarni faqat kimlarga nisbatan bunday harakatlar qilingan bo'lsa, shu shaxslarning o'zlariga yoki ularning vakillariga yoxud qonunda nazarda tutilgan hollarda tergov va sud organlarining talablari bo'yicha beradilar.

Vasiyatnomalar to'g'risidagi ma'lumotlar kimlarning foydasiga mazkur vasiyatnomalar tuzilgan bo'lsa, shu shaxslarga vasiyat qoldiruvchi fuqaro o'lgandan keyin beriladi.

Notariuslar o'z nomlaridan shaxsan o'zlari uchun, o'zlari nomidan xotini yoki eri nomiga notarial harakatlar qila olmaydilar. Bundan tashqari notarius mazkur notarial idorada ishlovchi xizmatchilar nomidan notarial harakatlar qila olmaydilar.

Bunday qoidalar notarius ishida ba'zi bir suis`temol qilishlarga yo'l qo'ymaslik maqsadida belgilanadi.

Notariat to'g'risidagi qonunda notariuslar o'z nomiga va o'z nomidan, xotini (eri) nomiga hamda uning nomidan, xotinining (erining) va o'zining qarindosh urug'lari, ular bilan vasiylik va xomiylik tufayli bog'langan shaxslar nomiga va ularning nomidan notarial harakatlarni amalga oshirishga haqli emasligi o'z ifodasini topgan (qonunning 37-moddasi).

Umuman qoida bo'yicha notarial harakatlar notarial harakatlarning binolarida amalga oshiriladi. Ammo agar fuqaro uzrli sabab bilan, masalan, kasalligi, mayibligi, kariligi sababli notarial idoraga kela olmasa, notarius tegishli notarial harakatlarni mazkur shaxsning uyida, kasalxonada yoki boshqa joyda qilishi mumkin.

Odatda, notarial harakatlar barcha zarur hujjatlar topshirilgan kunning o'zidayok amalga oshiriladi. Ayrim hollarda notarius, notarial harakatlarni qilishni boshqa vaqtga qoldirishi mumkin.

Notarial harakatni amalga oshirish qo'shimcha ma'lumotlarni talab qilib olish yoki hujjatlarni ekspertizaga yuborish zarur bo'lganida kechiktirilishi mumkin.

Notarial harakatlarni amalga oshirish, basharti, qonunga binoan manfaatdor shaxslardan ushbu harakatlarni amalga oshirishga e'tiroz bor-yo'qligini so'rash zarur bo'lganda kechiktirilishi mumkin. Notarial harakatni amalga oshirishni kechiktirish muddati bir oydan oshmasligi lozim. Notarial harakatni amalga oshirishni so'rab murojaat qilgan shaxsning talabiga ko'ra, unga notarial harakatni amalga oshirishni kechiktirish haqidagi qaror beriladi.

Manfaatdor shaxs tasdiqlashni so'rayotgan huquq yoki fakt ustida da'volashish uchun sudga murojaat qilish istagidagi boshqa manfaatdor shaxsning arizasiga ko'ra notarial harakatni amalga oshirish ko'pi bilan o'n kun muddatga kechiktirilishi mumkin, Agar bu muddat ichida ariza tushganligi haqida suddan ma'lumot olinmasa, notarial harakat amalga oshirilishi lozim.

Bir manfaatdor shaxs tasdiqlashni so'rayotgan huquq yoki fakt ustida da'volashayotgan boshqa manfaatdor shaxsdan ariza tushganligi to'g'risida suddan ma'lumot olingan taqdirda notarial harakatni amalga oshirish mazkur ish sudda hal bulguniga qadar to'xtatib turiladi.

Qonun hujjatlarida notarial harakatlarni amalga oshirishni kechiktirish va to'xtatib turishning boshqa asoslari ham belgilanishi mumkin.

Notarius o'ziga biron-bir notarial harakatning qilinishi to'g'risida iltimos bilan kelgan fuqaroning shaxsini tekshiradi. Notarius ma'lum bo'lgan fuqaroning shaxsi uning pasporti bo'yicha tekshiriladi. Harbiy xizmatchini shaxsi esa-tugilish haqidagi guvohnomalar bo'yicha yoki ota-onalarning pasportlaridagi xatlarga qarab tekshiriladi.

Lozim hollarda notarius fuqarolarning muomala layoqatlari va huquq layoqatlarini, tashilotlarning huquqiy munosabatlarda qatnashishlari mumkinligini tekshiradi. Shuningdek, vakillarga berilgan vakolatnomalarni, ularga qo'yilgan imzolarning haqiqiyiligini tekshiradi.

Notarius o'zi tomonidan guvohlantiriladigan bitimlarning, hujjatlarning xatlari, matnlari ochiq-ravshan yozilishiga va hech qanday tuzatishlarga yo'l kuymaganligiga e'tibor berishi lozim. Hujjatlarning matnlaridagi ochiq joylar chizib qo'yiladi. qo'shimcha yozilgan xatlar esa notariat harakatlarida qatnashuvchi shaxslarning imzolaridan oldin izohlantiriladi va guvohlantirish xatida takror yoziladi.

Agar notarial harakatlarda qatnashuvchi shaxslar mazkur hujjatlarning matnlariga kul qo'ymaydigan bo'lsalar, bu holda hujjatga qilingan qo'shimcha xatlar yoki tuzatishlar faqat notarius tomonidan izohlantiriladi va imzolanadi. Hujjatdagi tuzatishlar shunday qilinishi kerakki, barcha xato yozilgan va keyinchalik chizib tashlangan va tuzatilgan xatlarni ochiq ukish mumkin bo'lsin.

Hujjatning berilgan kuni rakamlari va muddatlari so'z bilan yoziladi. Hujjatda eslatilgan shaxslarning familiyalari, ismlari va otalarining ismlari, turar joylari ko'rsatiladi. Yuridik shaxslarning va boshqa tashkilotlarning nomlari bir marta bo'lsa ham qisqartirilmadan to'la yoziladi, shuningdek yuridik shaxslar organlarining manzillari ko'rsatiladi.

Ayrim hollarda notariuslar notarial harakatlarni amalga oshirishni rad etishi mumkin. Bu haqda qonunning 38-moddasida quyidagilar ko'rsatilgan:

-bu harakat boshqa notarius tomonidan amalga oshirilishi kerak bo'lsa;
-muomalaga layoqatsiz fuqaro yoxud zarur vakolatlari bo'lmagan vakil notarial harakatni amalga oshirishni so'rab murojaat qilgan bo'lsa;
-yuridik shaxs nomidan amalga oshiriladigan bitim uning ustavida yoki nizomida ko'rsatilgan maqsadlarga zid bo'lsa;
-bitim qonun talablariga muvofiq bo'lmasa;
-notarial harakatni amalga oshirish uchun taqdim etilayotgan hujjatlar qonun hujjatlari talablariga muvofiq bo'lmasa.

Notarial harakatni amalga oshirish rad etilgan taqdirda notarial harakatni amalga oshirishni rad etish haqida notarius murojaat qilingan kundan boshlab uch kundan kechiktirmasdan qaror chiqaradi.

Notarius notarial harakatni amalga oshirish to'g'risidagi murojaati rad etilgan shaxsning iltimosiga binoan rad etish sababini yozma ravishda bayon etishi va rad etish ustidan shikoyat qilish tartibini tushuntirib berishi lozim.

Notariuslarning harakatlari ustidan manfaatdor shaxslar sudga shikoyat bilan murojaat etishlari mumkin, masalan, agar amalga oshirilgan notarial harakatni, notarial harakatni kechiktirish yoki notarial harakatni amalga oshirishni rad etish to'g'risidagi qarorni noto'g'ri deb hisoblagan manfaatdor shaxs bu xususda davlat notarial idorasi yoki xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius turgan joydagi sudga shikoyat qilishga haqlidir.

Demak, notariuslarning asosiy vazifalari fuqarolarning, tashkilotlarning hamda boshqa jamoat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ko'riklashdan, qonunchilik va huquq-tartibotni mustahkamlashdan, shartnomalar va boshqa bitimlarni to'g'ri va o'z vaqtida tasdiqlash, vorislik huquqlarini rasmiylashtirish, ijro xatlarini yozish va boshqa notarial harakatlarni amalga oshirish yo'li bilan huquq buzilishini oldini olishga va notariat to'g'risidagi qonunda nazarda tutilgan qator talablarni amalga oshirishga qaratilgandir.

O'zbekiston Respublikasida notariat to'g'risidagi qonunning 23-moddasiga muvofiq davlat notarial idoralar quyidagi notarial harakatlarni amalga oshiradi:

- 1) bitimlarni (shartnomalar, vasiyatnomalar, vakolatnomalar) tasdiqlaydi;
- 2) vasiyatnomalarni tasdiqlaydi;
- 3) er-xotinning umumiy mol-mulkiidagi ulushga mulk huquqi tushrisida guvohnomalar beradi;
- 4) mol-mulknii uzga shaxsga o'tkazishni ta'qiqlab qo'yadi va ta'qiqni bekor qiladi;
- 5) merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma beradi;
- 6) meros mol-mulkning qo'riqlanishiga doir chora-tadbirlar ko'radi;
- 7) hujjatlar nusxalarining va hujjatlardan olingan ko'chirmalarning to'g'riligini shaxodatlaydi;
- 8) hujjatlarning bir tildan boshqa tilga to'g'ri tarjima qilinganligini shaxodatlaydi;
- 9) hujjatlardagi imzolarning haqiqiyiligini shaxodatlaydi;

10) ko'chmas mulk ochiq savdoda sotib olinganligi haqida guvohnoma beradi;

11) fuqaroning tirik ekanligi faktini tasdiqlaydi;

12) fuqaroning muayyan joyda ekanligi faktini tasdiqlaydi;

13) fuqaroning fotoso'ratda aks ettirilgan shaxs ekanligini tasdiqlaydi;

14) hujjatlar taqdim etilgan vaqtni tasdiqlaydi;

15) jismoniy va yuridik shaxslarning arizalarini boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga topshiradi;

16) pul summalari va qimmatli kog'ozlarni depozitga qabul qilib oladi;

17) hujjatlarni saqlash uchun qabul qilib oladi;

18) pul to'lash uchun cheklarni taqdim etadi va cheklar bo'yicha pul to'lanmaganligini tasdiqlaydi;

19) ijro xatlarini yozadi;

20) veksellarning protestlarini amalga oshiradi;

21) dengiz protestlarini amalga oshiradi;

22) notarial tasdiqlagan hujjatlarning dublikatlarini hamda reestrlardan ko'chirmalarni beradi.

Davlat notarial idoralarida ishlovchi notariuslar qonunlarda nazarda tutilgan boshqa notarial harakatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Xususan amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius yuridik shaxsdir. U o'z idorasiga ega bo'lish bankda hisob-kitob varagi va boshqa hisob varaqalar ochish, mulkiy hamda shaxsiy nomulkiy huquq va majburiyatlarga ega bo'lish, xodimlar bilan mehnat shartnomalari tuzish va ularni to'xtatish, tushgan daromadni tasarruf etish, sudda o'z nomidan qatnashish va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa harakatlarni amalga oshirishga haqlidir.

Xususiy amaliyot bilan shuullanuvchi notariuslar jamoat birlashmalari to'g'risidagi qonunda belgilangan tartibda tuziladigan notarial palataga birlashishlari mumkin.

Notarius ta'tilga chiqish va davlat ijtimoiy sugo'rtasi bo'yicha nafaqalarning barcha to'rini olish huquqidan foydalanadi. Notariusga davlat ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqa tayinlash va to'lash hamda uni davlat pensiyasi ta'minoti amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar notariat to'g'risidagi qonunning 23-moddasida nazarda tutilgan notarial harakatni amalga oshiradi, mol-mulkni uzga shaxsga o'tkazishni ta'qiqlab qo'yish va ta'qiqni bekor qilish, merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma berish va meros mol-mulkni qo'riqlash chora-tadbirlarini ko'rish bundan mustasno.

Yuqorida ko'rsatilgan notarial harakatlarni bajarish tartibi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlagan qo'llanma bilan belgilangan.¹

Davlat notarial idoralari bo'lmagan aholi punktlarida, shahar, kishlok va ovullarda notariat to'g'risidagi qonunning 25-moddasiga muvofiq quyidagi notarial xarkatlarni amalga oshiradi:

- 1) vasiyatnomalarni tasdiqlaydi;
- 2) ishonchnomalarni tasdiqlaydi, avtotransport vositalarini boshqarish va tasarruf etish haqidagi ishonchnomalar bundan mustasno;
- 3) meros mol-mulkning qo'riqlanishiga doir chora-tadbirlar ko'radi;
- 4) hujjatlar nusxalarining va hujjatlardan olingan ko'chirmalarning to'g'riligini shaxodatlaydi, ma'lumot haqidagi hujjat nusxalari bundan mustasno;
- 5) hujjatdagi imzoning haqiqiyiligini shaxodatlaydi.

O'zbekiston Respublikasi shaharlar, kishloklar va ovullar fuqarolar yig'inlarining raislari (oksoqollari) qo'llanmada nazarda tutilgan boshqa notarial harakatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Yuqorida ko'rsatilgan notarial harakatlarni bajarish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan Instruksiya bilan amalga oshiriladi.¹

Quyidagi hujjatlar notarial tasdiqlagan hujjatlarga tenglashtiriladi:

-kasalxonalarda, gospitallarda, boshqa statsionar davolash muassasalarida davolanayotgan yoki kariyalar va nogironlar uylarida yashayotgan fuqarolarning ushbu kasalxonalar, gospitallar va boshqa davolash muassasalarining bosh shifokorlari, ularning tibbiyot bo'yicha o'rinbosarlari yoki navbatchi shifokorlari, shuningdek gospitalarning boshliklari, kariyalar va nogironlar uylarining direktorlari va boshqa shifokorlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari;

-O'zbekiston Respublikasining davlat bayrogi ostida so'zib yurgan kemalarda safarda bo'lgan fuqarolarning kemalarining kapitanlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari;

-qidiruv ekspeditsiyalarida yoki shunga uxshash boshqa ekspeditsiyalarda bo'lgan fuqarolarning shu ekspeditsiyalar boshliklari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari;

-harbiy xizmatchilarning, harbiy qismlar joylashgan, notariuslar bo'lmagan punktlarda esa, shu qismlarda ishlovchi harbiy xizmatchi bo'lmagan shaxslarning, ular oila a'zolarining hamda harbiy xizmatchilar oila a'zolarining harbiy qismlarining komandirlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari va ishonchnomalari;

-ozodlikdan mahrum etish joylaridagi yoki qamoqdagi shaxslarning tegishli muassasalar boshliklari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari va ishonchnomalari.

Vasiyatnomalar va ishonchnomalarni ushbu moddada aytib o'tilgan mansabdor shaxslar tomonidan tasdiqlash O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan belgilab qo'yadigan tartibda amalga oshiriladi.

Yuqorida ko'rsatilgan mansabdor shaxslarning vasiyatnomalar va vakolatnomalarni tasdiqlashi Notariat qonunining tegishli moddalari talablariga rioya qilingan holda, qonun va boshqa qonun hujjatlari bilan belgilaydigan tartibda amalga oshiradi.

Notariuslik vazifasini bajarish huquqi berilgan mansabdor shaxslar o'zlari tasdiqlagan vasiyatnomalarning bir nusxasini vasiyatchi doimiy yashaydigan joydagi davlat notarial idorasiga saqlash uchun hech kechiktirmay topshirishlari lozim.

O'zbekiston Respublikasi konsullik muassasalarining konsullari quyidagi notarial harakatlarni amalga oshiradi:

1) bitimlarni (shartnomalar, vasiyatnomalar, ishonchnomalar va hokazolarni) tasdiqlaydi, O'zbekiston Respublikasidagi uy-joylarni boshqa shaxsga o'tkazish va garovga qo'yish to'g'risidagi shartnomalar bundan mustasno;

2) fuqaroning tirik ekanligi faktini tasdiqlaydi;

3) fuqaroni muayyan joyda ekanligi faktini tasdiqlaydi;

4) fuqaroning fotoso'ratda aks ettirilgan shaxs ekanligini tasdiqlaydi;

5) hujjatlar taqdim etilgan vaqtni tasdiqlaydi;

6) meros mol-mulkning qo'riqlanishiga doir chora-tadbirlar ko'radi;

7) merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnomalar beradi;

8) hujjatlarning nusxalari va hujjatlardan olingan ko'chirmalar to'g'riligini shaxodatlaydi;

9) er-xotinning umumiy mulkidagi ulushga mulk huquqi haqida guvohnomalar beradi;

10) hujjatlardagi imzolarning haqiqiylikini shaxodatlaydi;

11) hujjatlarning bir tildan boshqa tilga to'g'ri tarjima qilinganligini shaxodatlaydi;

12) pul summalari va qimmatli kog'ozlarni depozitga qabul qilib oladi;

13) hujjatlarni saqlash uchun qabul qilib oladi;

14) ijro xatlarini yozadi;

15) dengiz protestlarini amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi konsullik muassasalarining konsullari qonunlarda nazarda tutilgan boshqa notarial harakatlarni ham amalga oshirishi mumkin (Notariat to'g'risidagi qonunning 28-moddasi).

Maboda vasiyatchi Respublikada doimiy yashash joyiga ega bo'lmasa, vasiyatnoma Adliya vazirligi tomonidan belgilab beriladigan davlat notarial idorasiga yuboriladi.

Davlat notariusi saqlash uchun topshirilgan vasiyatnomaning qonuniyligini tekshirishi va uning qonunga muvofiq emasligini aniqlagani taqdirda bu haqda vasiyatchiga va vasiyatnomani tasdiqlagan mansabdor shaxsga ma'lum qilishi shart. Notarial harakatlarni bajarishda notariuslar mustaqil ish ko'radilar va faqat qonunga itoat qiladilar.

Davlat notariusi fuqarolarning va tashkilotlarning huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilishlarida ularga yordam ko'rsatadi va shu bilan birga fuqarolarning qonundan bexabarliklari va shu singari boshqa holatlar ularning zarariga qaratilmasligi chorasini ko'radi.

Notarius notarial harakatni bajarish vaqtida ayrim mansabdor shaxslar yoki fuqarolar tomonidan qonunchilik yoki jamiyat qoidalari buzilganligini yoki jamoat tashkilotlarining ishdagi jiddiy kamchiliklar borligini aniqlasa, shu

noto'g'riliklar va kamchiliklarni yo'qotishga qaratilgan zarur choralarni ko'rish uchun bu haqda tegishli muassasalar, tashkilotlar rahbarlariga yoki prokurorga xabar qiladi.

A. shaxsiy mulk huquqi asosida uy-joy ko'rish uchun er maydonlarining berilishi to'g'risidagi shartnomalarni tasdiqlash. Uy-joy ko'rish uchun er maydonini muddatsiz foydalanishga berish to'g'risida hokimiyat bilan imorat ko'ruvchi fuqaro o'rtasidagi shartnomani guvohlantirishda notarius imorat ko'rish uchun ajratilgan er uchastkasiing plani, agar ko'p kvartirali uy-joy ko'riladigan bo'lsa, ko'rilishni tasdiqlangan loyixasi, er uchastkasini ajratish to'g'risida hokimiyatning qarorlaridan keltirilgan ko'chirmalarni tekshiradi.

Yakka tartibda uy-joy ko'rishda turar joy maydoniga bo'lgan huquqdan mahalliy hokimiyatning qarori bilan qaysi fuqaroga va uning oila a'zolariga er maydoni ajratib berilgan bo'lsa, faqat shu shaxslargina foydalanadilar.

Uy-joy ko'rishda imorat ko'ruvchi uchun begona bo'lgan shaxslarning imorat ko'rishda qatnashishlari imoratga nisbatan egalik huquqini olish uchun ularga asos bermaydi.

Uy-joy ko'rish uchun er maydonini muddatsiz foydalanishga berish to'g'risidagi notarial guvohlantirilgan shartnomaning shartlarini o'zgartirish, jumladan, imorat ko'rishda ishtirok etish va keyinchalik ko'rilgan uy-joyga sherik bo'lish uchun boshqa shaxslarning jalb etilishi, faqat imorat ko'ruvchining roziligi va er maydoni ajratgan hokimiyatning maxsus qarorigina bo'lishi mumkin.

Bunday o'zgarishlarga faqat avvalgi shartnomani bekor qilish va uning o'rniga yangi shartnoma tuzish yoki avvalgi shartnomaga uning shartlarining o'zgartirilganligi to'g'risida xat yo'li bilan o'zgartilishi mumkin. Bunday xat hokimiyat bo'limining vakili va imorat ko'ruvchilar tomonidan imzolanishi va notarial tartibda guvohlantirilishi lozim.

Eskirgan, xaroba holga tushgan uy-joyning o'rniga yangi uy-joy ko'rish uchun er maydoni ajratish to'g'risida shartnoma tuzish talab qilinmaydi. Bunday hollarda imorat ko'rish uchun imoratni tiklash zarurligi to'g'risida tuman hokimligining qarori, shunday imoratning tegishli tartibda tasdiqlangan loyixasi va imorat ko'rish uchun ruhsat talab qilinadi.

Yuqorida ko'rsatilgan tartibda eski imorat o'rniga yangi imorat ko'rish uchun zarur hujjatlar, faqat imorat egasining o'zi tomonidan yoki egalari tomonidan ko'rilganidagina talab qilinadi. Agar eski imorat o'rniga yangi imorat ko'rish uchun uy-joyning egalardan boshqa fuqarolar qatnashsa, er uchastkasini ajratish to'g'risidagi masala hokimiyatda hal qilinadi va shartnomani keyinchalik notarial tartibda rasmiylashtirish talab qilinadi.

Uy-joylar ko'rish uchun er maydonlarining berilishi to'g'risidagi shartnomalar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi davlat notarial idoralarining notariuslari va xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarning notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi qo'llanmaning 37-40-bandlarida ko'rsatilgan tartibda guvohlantiriladi, masalan:

Shaxsiy mulk huquqi asosida uy-joy ko'rish uchun er maydonlari berish to'g'risidagi shartnomalar er maydoni ajratib berilgan joydagi notarial idoralarda tasdiqlanadi.

Shaharlarda va shahar tipidagi posyolkalarda mulk huquqi asosida uy-joy ko'rish uchun er maydonlarini muddatsiz foydalanishga berish to'g'risidagi shartnomalarni tasdiqlash chogida notariuslar fuqarolarning uy-joy ko'rishga bo'lgan huquqini yo'lgan solib turuvchi qonunlarning talabiga shartnomalarning muvofiqligini tekshiradilar. Bunda er maydoni ko'ruvchiga biriktirib berilganligi to'g'risidagi davlat akti yoki er berilganligi haqidagi qaror tekshiriladi.

Shartnomada shaxsiy mulk huquqi asosida yakka tartibda uy ko'rish uchun er maydonini muddatsiz foydalanishga berish to'g'risidagi namunaviy shartnomada ko'zda tutilgan barcha zarur talablar ko'rsatilganligini yoki yo'qligini tekshirish ham zarur.

Davlat va jamoat extiyojlari takozosi bilan fuqarolardan er maydonlari olib qo'yilganligi munosabati bilan ularga qarashli imoratlardan ko'chirish uchun boshqa er maydoni berish to'g'risidagi shartnomalarni guvohlantirishda ko'rilish loyixasini taqdim etish talab etilmaydi.

Uy-joy ko'rish uchun er maydonlari berish to'g'risidagi shartnomalarni guvohlantirish chogida notariuslar uy ko'ruvchilarga O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 212-moddasi mazmunini tushuntiradilar.

Uy-joy ko'rish uchun er maydoni berish to'g'risidagi shartnoma tomonlarning roziligi bilan bekor qilingan taqdirda, notariuslarning shartnomaning notarial idoraga bo'lgan nusxalariga va reestruga uning bekor qilinganligi to'g'risida yozib qo'yadi.

Tomonlar (tegishli hokimiyat boshqarmasi bo'limi va uy-joy ko'ruvchilar)ning uy-joy ko'rish uchun er maydoni berish to'g'risidagi notarial tasdiqlangan shartnomaning shartlarini o'zgartirish to'g'risidagi shartnomasi notariusga tuman yoki shahar hokimiyatlarining shartnoma shartlarini o'zgartirish to'g'risidagi qarori taqdim etgandan keyin tasdiqlanishi mumkin.

Shartnoma shartlarini o'zgartirish, shartnomani bekor qilish va uning o'rniga yangisini tuzish bilan ham, shuningdek shartnoma shartlarini o'zgartirish to'g'risidagi alohida bitim tuzish yo'li ham amalga oshirilishi mumkin.

B.Uy-joylarni olish-sotish, xadya qilish, ayirboshlash, umrbod asrash sharti bilan topshirish to'g'risidagi shartnomalarni va boshqa bitimlarni guvohlantirish. Fuqarolar va tashkilotlar o'rtasida tuziladigan shartnomalar va boshqa bitimlarning to'g'riligi va qonunga muvofiq bo'lishligini ta'minlash maqsadida ba'zi shartnomalarning, Jumladan, uy-joylarni olish-sotish, xadya qilish, ayirboshlash, umrbod asrash sharti bilan topshirish to'g'risidagi shartnomalarning notarial tartibda guvohlantirilishi talab qilinadi. Bunday tartibning o'rnatilishi shartnomalarning tuzilishi fakti va uning mazmuni masalalari bo'yicha taraflar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ochiq-ravshan to'g'ri bo'lishligini ta'minlashga yordam beradi. Tuzilgan shartnomalar yuzasidan nizo chiqqan tartibda bitimlarning notarial tartibda

rasmiylashtirilishi shartnomani qanday mazmunda tuzilganligini va boshqa holatlarning isbotlantirishini engillashtiradi.

Agar notarial tartibda guvohlantirilgan shartnomaning nusxasi yo'qotilgan bo'lsa, bu holda manfaatdor shaxs shartnomaning dublikatini ko'rsatishi mumkin. Binobarin, shartnomaning notarial rasmiylashtirilishi tufayli bir taraf ikkinchi tarafning manfaatiga zarar etkaza olmaymiz.

Notarial tartibda guvohlantirilgan shartnomalar yuzasidan tarafdardan biri ikkinchisiga muayyan pul to'lashlikka yoki biron-bir ashyoni topshirishlikka majbur bo'lganligi ma'lum bo'lsa, majburiyat ixtiyoriy ravishda ijro etilmaganidan notariusda ijro xatining olinishi mumkin bo'ladi.

Uy-joylarni olish-sotish shartnomalarini va boshqa ba'zi shartnomalarni tuzishda bitimlar albatta notarial tartibda rasmiylashtirilishi talab qilinadi.

Bundan tashqari qonun har qanday bitimning, shartnomaning ham notarial tartibda rasmiylashtirilishiga yo'l qo'yadi. Binobarin har qanday shartnomalarni tuzishda fuqarolar va tashkilotlar o'zlarining xohishlari bo'yicha notarial idoraga murojaat qilish o'zlari o'rtasida tuziladigan bitimning guvohlantirilishini iltimos qilishlari mumkin.

Bitimni guvohlantirishdan oldin notarius uning qonunga to'g'ri kelish-kelmasligini tekshiradi. Agar bitim qonun talablariga muvofiq kelmasa yoki davlat va jamiyat manfaatlariga atayin xilof maqsadlarda tuzilishini aniqlasa, notarius bunday bitimni tasdiqlashdan bosh tortishi mumkin.

Yuqorida ko'rsatilganlardan tashqari notarius bitimda ishtirok etuvchilarning huquq layoqati va muomala layoqatiga egami-yo'qmi ekanliklarini tekshirishi lozim.

Yuridik shaxsning huquq layoqati haqidagi masalani hal qilishda uning faoliyatlari maqsadlariga muvofiq ravishda mazkur tashkilotning qarori yoki nizomnoma faoliyatlarida ko'rsatilgan unga to'g'ri keladigan muayyan bitimlarni (shartnomalarni) tuzishgagina huquqli bo'lishini nazarga olish kerak.

Yuridik shaxslar bitimlarni o'z organlari yoki vakillari orqali tuzganliklari sababli notarius yuridik shaxs nomidan harakat qiluvchi shaxslarning mansablarini va vakolatlarini tekshiradi.

Bitim tuzuvchi fuqarolarning huquq layoqati notarius tomonidan amalda tekshirilmaydi. Ma'lumki, qonun fuqarolarning huquq layoqatlarining ba'zi hollarda sud tartibini chelanshini, jumladan, muayyan mansablarni egallash, ma'lum faoliyat bilan shug'ullanish, ma'lum joylarda yashash, ota-onalik huquqlaridan mahrum qilishni belgilaydi.

Yuqorida ko'rsatilganlardan faqat ota-onalik huquqlaridan mahrum qilishga qaratilgan huquqni cheklash holatlarigina fuqarolik huquqiy bitimlarini tuzishda ahamiyatli bo'ladi. Agar ota-onalik huquqidan mahrum qilingan shaxs yosh bolalarning nomidan bitim tuzishida vakil sifatida qatnashib, bitimning guvohlantirilishi to'g'risida murojaat qilsa, bunday bitimni guvohlantirishdan notarius bosh tortadi.

Voyaga etmagan yosh bolalar, shuningdek ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi tufayli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqaro tomonidan bitim tuzilishi to'g'risida masala qo'yilsa, bunday fuqaro o'z ishlarini

aqli rasoliq bilan yurgizishlikka qobiliyati bo'lmaganligi sababli, notarius uning tomonidan tuziladigan bitimni guvohlantirishdan, tasdiqlashdan bosh tortishi mumkin.

Muomalaga layoqatsiz fuqarolar nomidan bitimlarni ularning qonuniy vakillari, ya'ni ota-onalari, vasiylari, farzand qilib olgan shaxslar tuzishlari mumkin.

Muomala layoqati cheklangan fuqarolar bitimlarni o'zlarining qonuniy vakillari, Jumladan, ota-onalari, farzand qilib oluvchilari va xomiylarining roziliklarini olib tuzishlari mumkin.

O'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan holatda bo'lgan fuqarolar ham, Jumladan, kattik mast bo'lgan holda yoki narkotik moddalarni iste'mol qilganliklari sababli o'z harakatlarining ahamiyatini bilmagan shaxslar tomonidan tuziladigan bitimlar notarius tomonidan guvohlantirilmaydi.

Uy-joylarni olish-sotish shartnomalarini guvohlantirishda taraflar notariusiga imoratning sotuvchisiga tegishli bo'lishligi to'g'risidagi hujjatni, kommunal xo'jalik bo'limining sotiladigan uy-joyning nimalardan iborat bo'lishligi va imoratga hech qanday ta'qiq solinmaganligi to'g'risidagi ma'lumot, shuningdek imorat yuzasidan boqimandalarining bo'lish-bo'lmasligi to'g'risida moliya bo'limining ma'lumoti keltirilishi lozim.

Notarius sotuvchilarga imoratlarni olish-sotish to'g'risidagi qonunini jumladan, Fuqarolik kodeksining 185-moddasida ko'rsatilgan qoidalarni, Jumladan, birga turuvchi er va xotin bilan ularning voyaga etmagan bolalari ixtiyorida, ulardan birining shaxsiy mulki bo'lgan yoki ularning umumiy mulki bo'lgan faqat birgina uy-joy yoki uy-joyning bir qismi bo'lishi mumkinligi to'g'risidagi qoidani tushuntiradi. O'zbekiston Respublikasining davlat notarial idoralarining notariuslari va xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarning notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi ko'llanmaning 66-bandida belgilangan.

Shartnomani guvohlantirish to'g'risida notarius tomonidan yoziladigan xatda mazkur shartnoma haqiqiy sanalmasligi xavfi ostida ro'yxatdan o'tkazilishi uchun kommunal xo'jalik bo'limiga taqdim etilishi lozimligi ko'rsatiladi.

Ba'zi hollarda imoratlarni olish-sotish to'g'risidagi bitimlar faqat tegishli fuqaroning yoki mansabdor shaxsning roziligi bo'lgandagina tuzilishi mumkin. Bunday rozilik bo'lmagan taqdirda, notarial idora bitimni guvohlantirishga haqli bo'lmaydi. Jumladan, ko'rilib bitmagan uy-joyni birovga o'tkazish to'g'risidagi shartnoma faqat tegishli hokimiyatning ruhsati bo'lganidagina guvohlantirilishi mumkin.

Er va xotinning umumiy mulki bo'lib hisoblangan uy-joyni sotish uchun ikkinchi taraf, ya'ni sotuvchining eri yoki xotininining roziligi talab qilinadi. Umumiy mulkka bo'lgan xissasini sotishda, agar uy-joy egalaridan boshqa shaxsga sotiladigan bo'lsa, sotuvchi mazkur joyning sotilishi to'g'risidagi ma'lumotni boshqa sherik egalariga ma'lum bo'lganligi, bu joyning sotilish narxining ham ma'lum bo'lishligi va sheriklari shu joyni sotib olishda

o'zlarining ustunlik huquqidan foydalanishni xohlamaganliklari to'g'risidagi dalillarni keltirishlari lozim.

Imorat ko'rish uchun kredit muassasalaridan, masalan, bankdan qarz olingan bo'lsa, bunday imoratlarni sotish to'g'risidagi shartnomalar faqat tegishli muassasalarning yozma ravishda bergan roziliklari bo'lgandagina tasdiqlanishi mumkin.

Agar uy egasi tomonidan asosiy imoratga o'zboshimchalik bilan qo'shimcha xonalar ko'rilgan bo'lsa yoki mazkur er maydonida ikkinchi uy-joy ko'rilgan bo'lsa, notarial idora uy-joyning sotilishi to'g'risida shartnomani to qonunsiz ko'rilgan imoratning yoki qo'shimcha ko'rilgan imoratlarning taqdiri to'g'risidagi masala hal bo'lishiga qadar tasdiqlashga haqli bo'lmaydi.

Uy-joylarni olish-sotish, xadya qilish, ayirboshlash, umrbod asrash sharti bilan topshirish to'g'risidagi shartnomalar FKning 110, 112, 210, 212, 488-moddalarida yuqorida keltirilgan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan qo'llanmaning 41-59-bandlarida berilgan qoidalarga muvofiq ravishda rasmiylashtiriladi.¹

O'zlashtirish savollari

1. Notariat tushunchasi va uning vazifalari. «Notariat to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasining qonuni va uning mohiyati.

2. Notarial idoralarning tuzilishi va ularning vakolatlari.

3. Notarial harakatlarni bajarish bo'yicha tuman, shaxarchalar, qishloqlar va ovullar fuqarolar yig'inlarining rais (oksoqol)lari tomonidan amalga oshiriladigan notarial harakatlar. Notarial harakatlar yuzasidan nizolashish. Ayrim turdagi notarial harakatlarni bajarish qoidalari.

4. Er-xotinning umumiy mulkidagi xissaga bo'lgan egalik huquqini belgilash to'g'risida guvohnoma berish.

5. Merosga bo'lgan huquq haqida guvohnoma berish

6. Ijro xatlarining mazmuni. Faktlarni guvohlantirish bo'yicha notarial harakatlar.

7. Meros mulkini saqlash choralari. Musodara qilingan uy-joyni birovlariga berishni ta'qiqlash.

8. Hujjatlarni saqlashga qabul qilish.

Seminar mashg'ulotlari

18. Birinchi instantsiya sudining qarorlari.

19. Sirtidan hal qiluv qarori chiqarish.

20. Buyruq tartibida ish yuritish.

21. Nikohdan ajratish to'g'risidagi ishlarni sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari.

22. Aliment undirish to'g'risidagi ishlarni sudda kurishning protsessual xususiyatlari.

23.Otalikni belgilash to'g'risidagi ishlarni sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari.

24.Mehnatga oid ishlarni sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari

25.Uy-joyga oid huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan ishlarni sudda kurishning protsessual xususiyatlari.

26.Davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat va arizalar bo'yicha ish yuritish.

27.Alohida tartibda ish yuritish.

28.Birinchi instantsiya sudining hal qiluv qarorlari va ajrimlari ustidan apellyatsiya shikoyati berish (protest keltirish).

29.Birinchi instantsiya sudining hal qiluv qarorlari va ajrimlari ustidan kassatsiya shikoyati berish (protest keltirish).

30.Qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarning qonuniy, asosli va adolatli ekanligini tekshirish.

31.Konuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish.

32.Sud qarorlarining ijrosi.

33.Fuqarolik protsessida chet el fuqarolari va tashkilotlari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning ishtiroki.

34.Hakamlar sudi (fuqarolik ishlarini hakamlar sudida ko'rib hal qilish).

35.O'zbekistonda xo'jalik sudi (xo'jalik nizolarini ko'rish tartibi).

36.O'zbekistonda Respublikasida notariat (notarial harakatlar).

Mustaqil ta'lim mavzulari

18.Birinchi instantsiya sudining qarorlari.

19.Sirtidan hal qiluv qarori chiqarish.

20.Buyruq tartibida ish yuritish.

21.Nikohdan ajratish to'g'risidagi ishlarni sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari.

22.Aliment undirish to'g'risidagi ishlarni sudda kurishning protsessual xususiyatlari.

23.Otalikni belgilash to'g'risidagi ishlarni sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari.

24.Mehnatga oid ishlarni sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari

25.Uy-joyga oid huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan ishlarni sudda kurishning protsessual xususiyatlari.

26.Davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat va arizalar bo'yicha ish yuritish.

27.Alohida tartibda ish yuritish.

28.Birinchi instantsiya sudining hal qiluv qarorlari va ajrimlari ustidan apellyatsiya shikoyati berish (protest keltirish).

29.Birinchi instantsiya sudining hal qiluv qarorlari va ajrimlari ustidan kassatsiya shikoyati berish (protest keltirish).

30.Qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarning qonuniy, asosli va adolatli ekanligini tekshirish.

31.Konuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish.

32.Sud qarorlarining ijrosi.

33.Fuqarolik protsessida chet el fuqarolari va tashkilotlari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning ishtiroki.

34.Hakamlar sudi (fuqarolik ishlarini hakamlar sudida ko'rib hal qilish).

35.O'zbekistonda xo'jalik sudi (xo'jalik nizolarini ko'rish tartibi).

36.O'zbekistonda Respublikasida notariat (notarial harakatlar).

Semestrlar bo'yicha o'quv yuklamasi hajmi

Semestr	YUk-lama	Auditoriya mashg'ulotlarituri bo'yicha o'quv yuklamasi taqsimoti(soat)						Mustaqil ta`lim
		jami	Ma`ruza.	Ama-liy mash.	Labora. ishlari	Sem-inar.	Kurs. ish	
5-6 semestr		243	64	64				115
Jami:		243	64	64				115

O'zlashtirish nazorati

Talabalar bilimni nazorat qilish turlari

Semestr	Nazorat turi	%	Maksimal ball(100%)	O'tish bali(55%)
VI	J.N.	35	35	19,2
	O.N.	50	50	27,5
	YA.N.	15	15	8,2

Talaba bilimni baholash

qoniqarsiz		qoniqarli		yaxshi		a`lo	
Ball		ball		ball		ball	
Min.	Maks.	Min.	Maks.	Min.	Maks.	Min.	Maks.
0	54	55	70	71	85	86	100
Bilmaslik tasavvurga bo'lmaslik	aniq ega	Tassavvurga ega bo'lish, bilish, aytib berish.	Mohiyatini tushinish	Amalda qo'llay olish. Must.musho hada yuritish		Ijodiy fikrlay olish. Xulosa va qaror kabul qilish	

Nazorat ishi uchun savollar majmuasi

1. O'zbekiston Respublikasi Fukarolik Protsessual Kodeksi tizmi va mazmuni.
2. «Sudlar to'g'risida »O'zbekiston Respublikasining konuni va uning sud isloxotidagi axamiyati.
3. Shaxsiy nomulkiy huquqlarni sudda himoya qilish tushunchasi.
4. Mulkiy huquqlarni sudda himoya qilish tartibi.
5. Oila hukuki munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolarni sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari.
6. Mehnatga oid va boshka hukukiy munosabatlardan kelib kelib chiqadigan nizolarni sudda ko'rishning protsessual tartibi.
7. Sud qarorlarini ijro qilish tartibi va uning mohiyati.
8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida sudlar to'g'risida belgilangan moddalarning mazmuni va uning tushunchasi.
9. O'zbekiston Respublikasida chet el fukarolarining protsessual huquq va majburiyatlari.
10. Protsessual muddatining tushunchasi va turlari.
11. Protsessual muddatlarning to'xtatilishi, o'zgartirilishi va tiklanishi. 15. Aliment undirish haqidagi mayib bo'lish yoki sog'likka boshkacha tarzda shikast etganlik ishlarini sudda ko'rish tartibi.
12. Boquvchisining o'limi natijasida ko'rilgan zararlar o'rnini koplash to'g'risidagi ishlarning sudlovliligi.
13. Mehnatga doir hukukiy munosabatlardan kelib chikdigan talablar bo'yicha ko'zg'atalgan ishlarni sudda ko'rish tartibi.
14. Birinchi instantsiya sudi tomonidan sudda ko'rish tushunchasi.
15. Fuqarolik ishlarining sudga taallukligi.
16. Fuqarolik sudida alohida tartibda ko'riladigan ishlar tushunchasi.
17. Chet el fukarolari, fukarolik bo'lmagan shaxslar yoki chet el korxonalarini va tashkilotlari ishtirok etayotgan ishlarni sudda ko'rish.
18. Sudlovlik (podsudnost) tushunchasi.
19. Nikohni bekor qilish to'g'risidagi va nikohning bekor kilinishi bilan bog'lik bo'lgan boshka nizolarning sudga taallukligi va ularni sudda ko'rish tartibi.
20. Er xotin o'rtasidagi nikoh shartnomasini sud bekor qilish asoslari.
21. Otalikni belgilash to'g'risidagi nizolarni sudda ko'rish tartibi.
22. Farzandlikka olishni hakikiy emas deb topish va uni bekor qilish to'g'risidagi da`volar.
23. Sud organlariga turar joyga oid hukukiy munosabatlardan, kelib chiqadigan nizolarning taallukligi.
24. Prokurorning arizasi bo'yicha sudda ko'riladigan ishlar tushunchasi.
25. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudning sudlariga taallukli ishlar.
26. Ishni bir suddan boshkasiga o'tkazish tartibi va protsessual harakatlarni bajarish tushunchasi.
27. Ajrim ustidan shikoyat berish yoki unga nisbatan protest keltirish tartibi.
28. Tashkilotlarning sudga murojat qilishi tartibi ariza yozish shakli, arizaning mazmuni.
29. Arizani qabul qilishini rad etish asoslari va rad etishni rasmiy-lashtirish tushunchasi.

30. Sudyaning bir turdagi ishlarini birlashtirish hukuki va protsessual tartibi.
31. Sud majlisida ishni ko'rishning protsessual tartibi.
32. Sudda ish yuritishni to'xtatib turish.
33. Sudlarda odil sudlovni amalga oshirish, fukarolar hak-hukuklarini himoya qilish tushunchasi.
34. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chukurlashtirish, fukarolik jamiyati asoslarini shakllantirishdagi asosiy yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisning to'kkizinchi sessiyasida kilgan ma`ruzalari.
35. Fuqorolik ishini ishda ishtirok etuvchi shaxslarni xabardor qilish tartibi.
36. Ishda ishtirok etuvchi shaxslarni so'roq qilish tartibi.
37. Sud ishtirokchilarining ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar va guvohlarning protsessual huquqlari.
38. Sud majlisidagi tartib.
39. O'n olti yoshga to'lmagan fukarolar, ular ishda ishtirok etuvchi shaxs yoki guvoxlar bo'lmasa, sud majlisi zaliga qo'yish tartibi.
40. Prokuror yoki advokatning protsessual huquq va majburiyatlari.
41. Sud majlisiga uchinchi shaxsni taklif qilish tartibi.
42. Fukorolik ishlarini umumiy koida bo'yicha oshkora ko'rilish tartibi
43. Odil sudlovni amalga oshirishda fukorolarning ishtirokini ta`minlash.
44. Sudda fukorolik ishlarini ko'rib chikib hal qilishda sud majlisining ketma ketligi.
45. Sirdan ish yuritish tartibi.
46. Fuqorolik ishlarini sudda ko'rishga tayyorlash vazifalari.
47. Ishni tayyorlash tartibda taraflarni so'roqlash.
48. Ishni sudda ko'rishga tayyorlash bo'yicha sudyaning harakatlari
49. Sudya arizani kabul kilib, fukorolik ishi ko'zg'atganidan so'nggi harakatlari.

50. Javobgarning sud majlisiga kedmaganligi oqibatlarini.
51. Taraflarning kelishuv bitimi tuzish va uning protsessual tartibi.
52. Ishni ko'rishga tayyorlash jarayonida vakillarning katnashish masalasini hal qilish tartibi.
53. Ishda prokurorning ishtirok etishi to'g'risidagi va tegishli davlat boshkaruvi organini sud protsessida katnashishga jalb etish hakidagi masalani hal qilish.

54. Tashkilotlardan yoki fukarolardan yozma va ashyoviy dalillarni talab kilib olish tartibi.
55. Sudning ishda ishtirok etuvchi shaxslarning fikrlarini xisobga olib eksptiza tayinlash masalasini hal kilishi.
56. Sudning boshka sudlarga sud topshiriklar yuborishi.
57. Sud`ya ishni etarli darajada tayyor deb bilsa, uni sud majlisida ko'rishga tayinlash to'g'risida ajrim chikarish tartibi.
58. Taraflar va protsessning boshka ishtirokchilariga ishni ko'rish vakti va joyi hakida ma`lum kilish.
59. Sud xabarlarini va chakiruvchilari.
60. Sud ishlarini appelatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida ko'rilish tartibi.
61. Fuqorolik protsessida taraflar tushunchasi.
62. Fuqorolik protsessida uchinchi shaxslarning ishtiroki.

63. Fuqarolik protsessida prokurorning ishtiroki.
64. Boshqa shaxslarning hukuklarini sudda himoya qiluvchi davlat boshkaruv idoralari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning ishtiroki.
65. O'zbekiston respublikasi fuqarolik protsessual kodeksining asosiy tamoyillari.
66. Fuqarolik protsessida fuqarolik protsessual vorislik tushunchasi. 71. Sudning hal qiluv karori tushunchasi va uning mazmuni.
67. Fuqarolik protsessida mustakil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar.
68. Prokuror boshqa shaxslarning hukuklarini va konun bilan ko'riklanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun ariza bilan sudga murojaat etish hukuki.
69. O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risidagi» konuni va uning fuqarolik protsessidagi ahamiyati.
70. Sudning qonuniy kuchga kirmagan qarorlari ustidan shikoyat berish tartibi.
71. Sudning qonuniy kuchga kirgan qarorlarini nazorat tartibida qayta ko'rish tartibi.
72. Notariat idoralarning xatti xarakatlari bilan bog'liq nizolarni sudda ko'rish.
73. Xo'jalik sudi tushunchasi va uning tizimi.
74. Hakamlik sudi tushunchasi va uni tashkil etish tartibi.
75. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumida ish yuritish tartibi.
76. Kassatsiya instantsiya ish yuritishning protsessual tartibi.
77. Sud hal qiluv qarorlarini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish tartibi.
78. Davlat organlari va mansabdor shaxslarning fuqarolarning haq huquqlarini kamsituvchi qarorlari ustidan ish ko'rish tartibi.
79. Sud buyrug'i tushunchasi.
80. Sudda fuqarolik ishni qo'zg'atish asoslari va tartibi.
81. Fuqarolik sudida vakillik tushunchasi.
82. Fuqarolarning huquq va muomala layoqatini sud tartibida cheklash tartibi.
83. Sud ajrimi tushunchasi va uning mazmuni.
84. Fuqarolik protsessual huquqning tamoyillari.
85. Fuqarolik sud ishlarini yuritish tushunchasi va uning vazifalari.
86. Fuqarolik protsessining bosqichlari.
87. Sudda ish ko'rishning oshkoraligi, bevositaligi va og'zakiligi.
88. Fuqarolik protsessiga oid huquqiy munosabatlar tushunchasi.
89. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar tushunchasi va ularning protsessual huquq va majburiyatlari.
90. Fuqarolik protsessida taraflar tushunchasi.
91. Ishga daxldor bo'lmagan shaxslarni almashtirish tartibi va uning tushunchasi.
92. Fuqarolik protsessida mustaqil da'vo bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar tushunchasi.
93. Fuqarolik protsessida mustaqil da'vo bilan arz qilmaydigan shaxslar tushunchasi.
94. Fuqarolik protsessida prokurorning ishtirok etish maqsadi, asoslari va shakllari.
95. Fuqarolik ishlarini sudda ko'rishga tayyorlash.

TEST SAVOLLARI

1. Sud muzokaralarida ishda ishtirok etuvchi shaxslarning nut qlari..

Da`vogar va uning vakili, keyin javobgar va uning vakili suzlaydi;

Da`vogar va uning vakili, keyin uchinchi shaxs va uning vakili suzlaydi;

Da`vogar va uning vakili, keyin prokuror suzlaydi;

Da`vogar va uning vakili, keyin javobgar va musta qil da`vogar sifatida qatnashuvchi shaxs suzlaydi;

2.Sudning xal qiluv qarori deb..

Birinchi instantsiya sudining ishni mazmunan xal qiladigan qaroriga aytiladi;

Appellyatsiya instantsiya sudining ishni mazmunan xal qiladigan qaroriga aytiladi;

Kassattsiya instantsiya sudining ishni mazmunan xal qiladigan qaroriga aytiladi;

Nazorat tartibida koerilgan sud ishining xal qilingan qaroriga aytiladi;

3.Sud xal qiluv qarorini kechiktirish muddatlari..

Aloxida murakkab xolatlarda fuqarolik ishlari buyicha xal qiluv qarorlari uch kunga kechiktirilishi mumkin;

Sudning ixtiyoriga kura fuqarolik ishlari buyicha xal qiluv qarorlari oen kunga kechiktirilishi mumkin;

xlari turt kunga kechiktirilishi mumkin;

Aloxida murakkab xolatlarda fuqarolik ishlari buyicha xal qiluv qarorlari un kunga kechiktirilishi mumkin;

4.Sud xal qiluv qarorining mazmuni..

Xal qiluv qarorining mazmuni kirish, bayon, asoslantiruvchi va xulosa qismlaridan iborat buladi;

Xal qiluv qarorining mazmuni kirish, asoslantiruvchi va xulosa qismlaridan iborat buladi;

Xal qiluv qarorining mazmuni kirish, bayon va asoslantiruvchi qismlaridan iborat buladi;

Xal qiluv qarorining mazmuni bayon, asoslantiruvchi va xulosa qismlaridan iborat buladi;

5.Sud xal qiluv qarorining uzgarmasligi..

Ish buyicha xal qiluv qarori uqib eshittirilganidan keyin shu qarorni chi qargan sudning uzi uni bekor qilishga yoki uzgartirishga xaqli emas;

Ish buyicha xal qiluv qarori uqib eshittirilgunga qadar shu qarorni chi qargan sudning uzi uni bekor qilishga yoki uzgartirishga xaqli emas;

Ish buyicha xal qiluv qarori uqib eshittirilganidan keyin shu qarorni chi qargan sudning uzi uni bekor qilishi yoki uzgartirishi mumkin;

Ish buyicha xal qiluv qarori uqib eshittirilganidan keyin shu qarorni chi qargan sudning uzi uni uch kun muddat ichida bekor qilishga yoki uzgartirishga xaqli emas;

6. Sud xal qiluv qarorining qonuniy kuchga kirishi..

Sudning xal qiluv qarori, agar uning ustidan shikoyat berilmagan yoki protest keltirilmagan bulsa, appelyatsiya shikoyati va protest keltirish muddati utkanidan keyin qonuniy kuchga kiradi;

Sudning xal qiluv qarori, agar uning ustidan shikoyat berilmagan yoki protest keltirilmagan bulsa, qonuniy kuchga kiradi;

Sudning xal qiluv qarori, agar uning ustidan protest keltirilmagan bulsa, appelyatsiya shikoyati va protest keltirish muddati utkanidan keyin qonuniy kuchga kiradi;

Sudning xal qiluv qarori, agar uning ustidan shikoyat berilmagan yoki protest keltirilmagan bulsa, appelyatsiya shikoyati keltirish muddati utkanidan keyin qonuniy kuchga kiradi;

7. Darxol ijro etilishi lozim bulgan xal qiluv qarorlaridan biri..

Alimentlar undirish to'g'risidagi ishlar;

Aloxida tartibda ko'rilgan ishlar;

Otalikni belgilash to'g'risidagi ishlar;

Nikox shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi ishlar.

8. Sirdan xal qiluv qarorini chiqarish..

Sud majlisining va qti va joyi to'g'risida javobgarni xabardor qilganda va uni sud majlisiga kelmagan xolda da`vogar e`tiroz bildirmasa sirdan xal qiluv qarori chi qarish mumkin;

Da`vogar e`tiroz bildirmasa sirdan xal qiluv qarori chi qarish mumkin;

sud majlisining va qti va joyi to'g'risida javobgarni xabardor qilganda va uni sud majlisiga kelmagan xolda;

Sud majlisining joyi to'g'risida javobgarni xabardor qilganda va uni sud majlisiga kelmagan xolda da`vogar e`tiroz bildirmasa sirdan xal qiluv qarori chiqarish mumkin;

9. Sirdan chiqarilgan xal qiluv qarorining nusxasini yuborish..

Hal qiluv qarorining nusxasi shu qaror chiqarilgan kundan e`tiboran besh kundan kechiktirmay yuboriladi;

Hal qiluv qarorining nusxasi shu qaror chi qarilgan kundan e`tiboran un kundan kechiktirmay yuboriladi;

Hal qiluv qarorining nusxasi shu qaror chi qarilgan kundan e`tiboran un besh kundan kechiktirmay yuboriladi;

Hal qiluv qarorining nusxasi shu qaror chi qarilgan kundan e`tiboran uch kundan kechiktirmay yuboriladi;

10. Fuqarolik sudining sirdan ish yuritish jarayonidagi vakolatlari..

Arizani qanoatlantirmay qoldirishga, sirdan chi qarilgan xal qiluv qarorini bekor qilishga va uni avvalgi tarkibdagi yoki boshqa tarkibdagi sud tomonidan ishni mazmunan ko'rishni tiklashga xaqli;

Sirdan chiqarilgan xal qiluv qarorini bekor qilishga va uni avvalgi tarkibdagi yoki boshqa tarkibdagi sud tomonidan ishni mazmunan kurishni tiklashga xaqli;

Arizani qanoatlantirmay qoldirishga, sirdan chiqarilgan xal qiluv qarorini bekor qilishga yoki boshqa tarkibdagi sud tomonidan ishni mazmunan kurishni tiklashga xaqli;

Arizani qanoatlantirmay qoldirishga, yoki boshqa tarkibdagi sud tomonidan ishni mazmunan kurishni tiklashga xaqli;

11. Fuqarolik sudida sud buyrugini chiqarish buyicha talablar..

Agar talab notarial tartibda tasdiqlangan bitimga asoslangan bulsa, agar talab yozma bitimga asoslangan va javobgar tomonidan tan olingan bulsa, agar voyaga etmagan bolalar uchun alimentlar undirish xaqidagi, otalikni belgilash bilan yoki uchinchi shaxslarni jalb qilish zarurati bilan bogliq bulmagan talab arz qilingan bulsa;

Agar talab notarial tartibda tasdiqlangan bitimga asoslangan bulsa, agar talab yozma bitimga asoslangan va javobgar tomonidan tan olingan bulsa, agar voyaga etmagan bolalar uchun alimentlar undirish xaqidagi, otalikni belgilash bilan yoki uchinchi shaxslarni jalb qilish zarurati bilan bogliq bulmagan talab arz qilingan bulsa;

Agar talab notarial tartibda tasdiqlangan bitimga asoslangan bulsa, agar talab yozma bitimga asoslangan va javobgar tomonidan tan olingan bulsa, yoki uchinchi shaxslarni jalb qilish zarurati bilan bogliq bulmagan talab arz qilingan bulsa;

12. Fuqarolik sudida da`vo ishlarini koerish tartibi..

Fuqarolik protsessual kodeksining 21-25boblarida belgilangan;

Jinoyat protsessual kodeksining 21-25boblarida belgilangan;

Fuqarolik kodeksining 21-25boblarida belgilangan;

Oila kodeksining 21-25boblarida belgilangan;

13. Notarial xarakat noto`g`ri bajarilgan yoki uni bajarish rad etilganligi xaqidagi shikoyatlar notarial xarakat noto`g`ri bajarilganligi yoki bunday xarakatni arizachiga ma`lum bulgan kundan e`tiboran..

Yigirma kunlik muddatda beriladi;

un kunlik muddatda beriladi;

Besh kunlik muddatda beriladi;

un besh kunlik muddatda beriladi;

14. Fuqarolik sudida aloxida tartibda koeriladigan ishlardan biri..

Yuridik axamiyatga ega bulgan faktlarni aniqlash to`g`risidagi ishlar;

Uy-joy nizolari buyicha ishlar;

Nikoxni bekor qilish to`g`risidagi ishlar;

Aliment undirish to`g`risidagi ishlar.

15. Yuridik axamiyatga ega bulgan faktlarni belgilash to`g`risidagi ishlar buyicha arizalar..

Arizachi (da`vogar) yashab turgan joydagi sudga beriladi;

Arizachi (da`vogar) yashab turgan joydagi sudga yuqori sudning roziligi bilan beriladi;

Arizachi (da`vogar) yashab turgan joydagi sudga taraflarning vakillarining xoxishi buyicha beriladi;

Arizachi (da`vogar) yashab turgan joydagi sudga prokurorning roziligi bilan beriladi;

16. Fuqaroni bedarak yuqolgan deb topish va fuqaroni ulgan deb e`lon qilish to`g`risidagi ishlarda..

Fuqaroni bedarak yuqolgan deb topish va fuqaroni ulgan deb e`lon qilish to`g`risidagi ishlarda albatta prokurorning ishtiroki shart;

Fuqaroni bedarak yuqolgan deb topish va fuqaroni ulgan deb e`lon qilish to`g`risidagi ishlarda albatta prokurorning ishtiroki shart emas;

Fuqaroni bedarak yuqolgan deb topish va fuqaroni ulgan deb e`lon qilish to`g`risidagi ishlarda albatta prokurorning ishtiroki prokuror ixtiyoriga bogliq;

Fuqaroni bedarak yuqolgan deb topish va fuqaroni ulgan deb e`lon qilish to`g`risidagi ishlarda albatta prokurorning ishtiroki yu qori prokuror tomonidan ma`qul deb topilsa;

17. Fu qarolik sudida fuqaroni muomala layoqati cheklangan deb topish to`g`risidagi ishni..

Fuqarolik sudida fuqaroni muomala layoqati cheklangan deb topish to`g`risidagi ishni albatta shu fu qaroning(javobgarning), prokurorning hamda vasiylik va xomiylik organining vakilining ishtirokida kuradi;

Prokurorning hamda vasiylik va xomiylik organining vakilining ishtirokida kuradi;

Fuqarolik sudida fuqaroni muomala layoqati cheklangan deb topish to`g`risidagi ishni albatta shu fuqaroning(javobgarning) ishtirokida kuradi;

Prokurorning hamda shaxar xokimining va xomiylik organining vakilining ishtirokida kuradi;

18. Fuqarolik sudida mol-mulkni egasiz deb topish..

Mol-mulkni (ashyoni)egasiz deb topish xa qidagi ariza moliya organi yoki boshqa vakolatli organ tomonidan mol-mulk(ashyo) turgan joydagi sudga beriladi;

Mol-mulkni (ashyoni)egasiz deb topish xa qidagi ariza maxalla fu qarolar yigini yoki bosh qa vakolatli organ tomonidan mol-mulk(ashyo) turgan joydagi sudga beriladi;

Mol-mulkni (ashyoni)egasiz deb topish xaqidagi ariza moliya organi yoki bosh qa vakolatli organ tomonidan mol-mulk(ashyo)ni turgan joydagi sudga un kun ichida beriladi;

Mol-mulkni (ashyoni)egasiz deb topish xaqidagi ariza shaxar xokimligi yoki bosh qa vakolatli organ tomonidan mol-mulk(ashyo) turgan joydagi sudga beriladi;

19. SHaxsni psixatriya statsionariga gayriixtiyoriy tartibda yotqizish yoki uning muddatini uzaytirish uchun asos sifatida xizmat qiluvchi xujjat..

Sudning arizani qanoatlantirish to`g`risidagi xal qiluv qarori;

Maxalla fuqarolar yigini qarori;

Ichki ishlar ruxsatnomasi;

Prokuror qarori;

20. Taqdim etuvchiga deb berilgan xujjatlar yuqolgan taqdirda ular buyicha xuquqlarni tiklash..

Fuqarolik ishlari buyicha tuman, shaxar, viloyat sudlariga berilgan;
Tuman, shaxar notarial idoralariga berilgan;
Tuman, viloyat prokuraturasiga berilgan;
Maxalla fuqarolar yigini raisiga berilgan.

21. Sudning qarori qonuniy, asosli va adolatli ekanligini tekshirish xaqida murojzat qilish xuquqi...

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudning qarori qonuniy, asosli va adolatli ekanligini tekshirish xaqidagi shikoyat(ariza) bilan qonunda belgilangan tartibda murojzat qilishga xaqli;

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudning qarori qonuniy, asosli va adolatli ekanligini tekshirish xaqidagi shikoyat(ariza) bilan qonunda belgilangan tartibda viloyat prokuroriga murojzat qilishga xaqli;

Oliy sudning appelyatsiya instantsiya sudiga shikoyat qilish xuquqi beriladi;
Shikoyat (ariza) bilan qonunda belgilangan tartibda murojzat qilishga xaqli;

22. Sudning qarorini bekor qilish asoslaridan biri..

Ish uchun axamiyatga ega bulgan xolatlar tuliq aniqlanmagan bulsa;
Da`vogarning arz qilgan talbi buyicha;
Sudyaning ixtiyoriga koera;
Prokurorning protesti buyicha;

23. Fuqarolik protsessida moddiy xuquq normalarini buzish yoki noto`g`ri qullash..

Sud tatbiq qilinishi lozim bulgan qonunni qullamagan bulsa;
Sudga tarjimon taklif qilinmagan bulsa;
Sudga uchinchi shaxs jalb qilinmagan bulsa;
Sudda prokuror ishtirok etmagan bulsa.

24. Sud qarorlarini qayta kurib chiqish vakolatiga ega bulgan sudlarga..

Appelyatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida kuradigan sudlar kiradi;
Birinchi instantsiya sudlari hamda kassatsiya instantsiya sudlari kiradi;
Nazorat tartibida koeradigan sudlar hamda appelyatsiya instantsiyasi sudlari kiradi;
Appelyatsiya, kassattsiya hamda birinchi instantsiya sudlari kiradi.

25. Appelyatsiya, kassatsiya va nazorat instantsiyasi sudlari ajrimning(qarorining) qonuniy kuchga kirishi..

Appelyatsiya, kassatsiya va nazorat instantsiyasi sudlari ajrimi (qarori) chi qarilishi bilanoq darxol qonuniy kuchga kiradi;

Appelyatsiya, kassatsiya va nazorat instantsiyasi sudlari ajrimning(qarorining) qonuniy kuchga besh kundan sung kiradi;

Appelyatsiya, kassatsiya va nazorat instantsiyasi sudlari ajrimning(qarorining) qonuniy kuchga olti kundan sung kiradi;

Appelyatsiya, kassatsiya va nazorat instantsiyasi sudlari ajrimning(qarorining) qonuniy kuchga uch kundan sung kiradi;

26. Fuqarolik sudida appelyatsiya shikoyati berish (protest keltirish) xuquqi va muddati..

Sudning xal qiluv qarori chi q qan kundan e`tiboran yigirma kun ichida taraflar va ishda ishtirok etishga jalb qilingan shaxslar xal qiluv qarori ustidan appelyatsiya shikoyati berishlari, prokuror protest keltirishi mumkin;

Sudning xal qiluv qarori chiqqan kundan e`tiboran bir oy ichida taraflar va ishda ishtirok etishga jalb qilingan shaxslar xal qiluv qarori ustidan appelyatsiya shikoyati berishlari, prokuror protest keltirishi mumkin;

Sudning xal qiluv qarori chiqqan kundan e`tiboran un kun ichida taraflar va ishda ishtirok etishga jalb qilingan shaxslar xal qiluv qarori ustidan appelyatsiya shikoyati berishlari, prokuror protest keltirishi mumkin;

Sudning xal qiluv qarori chi q qan kundan e`tiboran uch kun ichida taraflar va ishda ishtirok etishga jalb qilingan shaxslar xal qiluv qarori ustidan appelyatsiya shikoyati berishlari, prokuror protest keltirishi mumkin;

27. Appelyatsiya shikoyati berish (protest keltirish) tartibi..

Appelyatsiya shikoyatlari va protestlari appelyatsiya instantsiyasi nomiga yoziladi, lekin xal qiluv qarori chiqargan sudga beriladi;

Appelyatsiya shikoyatlari va protestlari kassatsiya instantsiyasi nomiga yoziladi, lekin xal qiluv qarori chiqargan sudga beriladi;

Appelyatsiya shikoyatlari va protestlari appelyatsiya instantsiyasi nomiga yoziladi, lekin viloyat prokuraturasiga beriladi;

Birinchi instantsiya sudiga beriladi.

28. Appelyatsiya shikoyatini (protestini)xarakatsiz qoldirish..

Fuqarolik protsessual kodeksning 322-323 moddalarining talablari buzilsa appelyatsiya shikoyati protesti xarakatsiz qolidiriladi;

Fuqarolik protsessual kodeksning 122-323 moddalarining talablari buzilsa appelyatsiya shikoyati protesti xarakatsiz qolidiriladi;

Fuqarolik protsessual kodeksning 132-323 moddalarining talablari buzilsa appelyatsiya shikoyati protesti xarakatsiz qolidiriladi;

Fuqarolik protsessual kodeksning 322-333 moddalarining talablari buzilsa appelyatsiya shikoyati protesti xarakatsiz qolidiriladi;

29. Fuqarolik ishini appelyatsiya instantsiyasida koerish muddatlari..

Yigirma kundan bir oy muddatgacha;

un kundan yigirma kungacha;

Besh kundan un besh kungacha;

Uch kundan besh kungacha;

30. Fuqarolik sudida sud tarkibini e`lon qilish va rad qilish xuqu qiga..

raislik qiluvchi sudya;

sud kotibi;

prokuror;

sud raisi hamda prokuror;

31. Fuqarolik sudida ish yuzasidan ma`ruza qilish..

Ishni appelyatsiya instantsiyasi sudida kurish raislik qiluvchi yoki sudyalardan birining ma`ruzasi bilan boshlanadi;
Prokurorning ma`ruzasi bilan boshlanadi;
Sud kotibining ma`ruzasi bilan boshlanadi;
Da`vogarning da`vosi bilan boshlanadi.

32.Appelyatsiya instantsiya sudida ajrim chiqarish tartibi..

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlari va prokurorning fikri tinglab bulingandan keyin appelyatsiya instantsiyasi sudi ajrim chiqarish uchun maslaxatxonaga kiradi;
Prokurorning fikri tinglab bulingandan sung sud maslaxatxonaga kiradi;
Ekspertning xulosasi shitilgandan so`ng maslahatxonaga kiradi;
Prokuror hamda ekspertning xulosasi eshitilgandan sung sud maslaxatxonaga kiradi.

33. Fuqarolik sudida kassatsiya shikoyati berish (protesti keltirish) xuquqi va muddati..

Sudning xal qiluv qarori chiqqan kundan e`tiboran bir yil ichida ishda ishtirok etishga jalb qilingan shaxslar tomonidan kassatsiya shikoyati berilishi va prokuror protest keltirishi mumkin;
Sudning xal qiluv qarori chiqqan kundan e`tiboran bir oy ichida ishda ishtirok etishga jalb qilingan shaxslar tomonidan kassatsiya shikoyati berilishi va prokuror protest keltirishi mumkin;
Sudning xal qiluv qarori chiqqan kundan e`tiboran ikki yil ichida ishda ishtirok etishga jalb qilingan shaxslar tomonidan kassatsiya shikoyati berilishi va prokuror protest keltirishi mumkin;
Sudning xal qiluv qarori chiqqan kundan e`tiboran olti oy ichida ishda ishtirok etishga jalb qilingan shaxslar tomonidan kassatsiya shikoyati berilishi va prokuror protest keltirishi mumkin;

34.Fuqarolik ishlarini kassatsiya instantsiya sudida ko`rish muddatlari..

Kassatsiya shikoyati yoki protesti buyicha tushgan ishni u kelib tushgan kundan e`tiboran bir oydan kechiktirmay kurib chiqishi lozim. Ish uta murakkab bulgan xollarda sudning raisi bu muddatni kupi bilan yana yigirma kunga uzaytirishi mumkin;
Kassatsiya shikoyati yoki protesti buyicha tushgan ishni u kelib tushgan kundan e`tiboran ikki oydan kechiktirmay kurib chi qishi lozim. Ish uta murakkab bulgan xollarda sudning raisi bu mudatni kupi bilan yana yigirma kunga uzaytirishi mumkin;
